

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

Inson huquqlari kutubxonasi

XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING ASOSIY XALQARO SHARTNOMALARI TO‘PLAMI

Toshkent – 2024

UO'K 331.101(575.1)(08)

KBK 65.25(50')ya73

X 22 Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2024. – 152 b. ("Inson huquqlari kutubxonasi")

ISBN 978-9943-4309-8-3

Mazkur qo'llanma Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2024-yil 14 noyabr, 14-sonli bayonnoma).

Mas'ul muharrir: akademik A.X. Saidov

Tuzuvchilar: yuridik fanlari doktori M. Tillabayev, L. Ruzikulova

Ushbu to'plamdan XMTning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan 23 ta konvensiyasi va 1 ta Bayonnoma o'rin olgan. Ushbu konvensiyalar insonning mehnat sohasidagi asosiy huquqlari va erkinliklarini hamda ularni himoya qilishni tartibga soluvchi umume'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va normalarni o'z ichiga oladi. Mehnat huquqi bo'yicha keltirilgan xalqaro standartlar fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlash sohasidagi norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyotining asosi bo'lib xizmat qilishi e'tirof etiladi.

Umid qilamizki, mazkur nashr davlat hokimiyati organlari vakillari, huquqshunos olimlar, yuristlar, kasaba uyushmalari va o'z kasbiy faoliyatida mehnat huquqi bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxslar uchun foydali vosita bo'ladi.

UO'K 331.101(575.1)(08)
KBK 65.25(50')ya73

ISBN 978-9943-4309-8-3

MUNDARIJA

Munosib mehnatga bo'lgan huquq (kirish o'rnida).....	5
---	---

BIRINCHI BO'LIM. ASOSIY KONVENSIYALAR

Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konvensiya.....	10
1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konvensiyaga bayonnoma.....	20
Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-sonli konvensiya.....	25
Jamoa muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi tamoyillarini qo'llash to'g'risidagi 98-sonli konvensiya.....	31
Teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng haq to'lash to'g'risidagi 100-sonli konvensiya.....	35
Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi 105-sonli konvensiya.....	39
Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi 111-sonli konvensiya.....	42
Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 138-sonli konvensiya.....	46
Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti to'g'risidagi 155-sonli konvensiya.....	54
Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rish to'g'risidagi 182-sonli konvensiya.....	62
Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslar to'g'risidagi 187-sonli konvensiya.....	67

IKKINCHI BO'LIM. USTUVOR KONVENSIYALAR

Sanoat va savdoda mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi 81-sonli konvensiya.....	73
Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risidagi 122-sonli konvensiya.....	83
Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi 129-sonli konvensiya.....	87
Xalqaro mehnat normalari qo'llanilishiga ko'maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to'g'risidagi 144-sonli konvensiya.....	96

UCHINCHI BO'LIM. TEXNIK KONVENSIYALAR

Ish vaqtini haftasiga qirq soatgacha qisqartirish to'g'risidagi 47-sonli konvensiya.....	100
Haq to'lanadigan yillik ta'til to'g'risidagi 52-sonli konvensiya.....	103

Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli konvensiya.....	108
Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 103-sonli konvensiya.....	115
Korxonalarda mehnatkashlar vakillarining huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan imkoniyatlar to'g'risidagi 135-sonli konvensiya.....	121
Xodimlarni ish joyidagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishlar tufayli yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatardan himoya qilish to'g'risidagi 148-sonli konvensiya.....	125
Jamoa muzokaralariga ko'maklashish to'g'risidagi 154-sonli konvensiya.....	132
Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli konvensiya.....	136
Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi 167-sonli konvensiya.....	141

MUNOSIB MEHNATGA BO'LGAN HUQUQ

(kirish o'rnida)

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 42-modda¹

Insonning iqtisodiy huquqlarini himoya qilish tizimida mehnat huquqlari markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Mehnat huquqlarini himoya qilish globallashuv, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy voqelik sharoitida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Mehnat huquqlari inson huquqlari tizimining muhim qismidir, chunki ish nafaqat daromad manbai, balki o'zini o'zi anglash va inson qadr-qimmatini saqlash usulidir. Har bir xodim millati, jinsi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, adolatli va munosib mehnat sharoitlari, etarli ish haqi hamda kamsitish va ekspluatatsiyadan himoyalanih huquqiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) xalqaro hujjatlarida, shu jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)² konvensiyalarida mustahkamlangan ana shu huquqlar ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun asosdir.

1919-yilda tashkil etilgan va keyinchalik BMTning ixtisoslashgan muassasasi hisoblangan Xalqaro mehnat tashkiloti mehnat sohasidagi inson huquqlarini izchil himoya qilib kelayotgan eng faol tashkilotlardan biridir. "Inson huquqlari" atamasi XMT Ustavida³ ishlatilmagan, biroq bu vaqt davomida XMTning vazifalari aynan mehnat sohasida inson huquqlariga rioya etilishini xalqaro-huquqiy mustahkamlash va ta'minlash, mehnat huquqlari kontseptsiyasini doimiy rivojlantirishdan iborat edi. XMT tomonidan qabul qilingan konvensiya va tavsiyalar milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada mehnat huquqlarini ta'minlash uchun eng muhim huquqiy hujjatlarga aylandi.

O'nlab yillar davomida XMT konvensiyalari butun dunyo bo'ylab qonun chiqaruvchilar va huquq himoyachilari, xodimlar va ish beruvchilar uchun namuna bo'lib kelgan. Ularning qoidalari nafaqat mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashdi, balki

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Адолат, 2023. – Б. 140.

² Международная Организация Труда: Конвенции и рекомендации, принятые Международной Конференцией Труда. В 2 т. [Т.1. 1919–1956; Т.2. 1957–1990]. – Женева: Международное бюро труда, 1991.

³ Международная организация труда: Конвенции. Документы. Материалы: справочное пособие / Сост. и авт. предисл. и вступ. ст. З. С. Богатыренко. – М.: Дело и Сервис, 2007. – 751 с.

mehnat sohasidagi ko'plab ilg'or islohotlar, jumladan, bolalar mehnatini taqiqlash, majburiy mehnatning oldini olish va ish joylarida kamsitishlarga qarshi kurashish uchun asos bo'ldi. Bundan tashqari, XMT konvensiyalari ilg'or tajriba almashishni rag'batlantirish va mehnat sohasidagi xalqaro normalarni mustahkamlash orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga faol ko'maklashdi.

XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlab XMT jahon iqtisodiyotining globallashuvi davrida o'zining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati va rolini qayta ko'rib chiqishni boshladi. Shu munosabat bilan, "iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy taraqqiyot bilan birga bo'lishini" va barcha zamonaviy davlatlar, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, mehnat sohasidagi muayyan inson huquqlariga rioya qilishini ta'minlash maqsadida 1998-yilda XMTning Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasi qabul qilindi¹.

Deklaratsiya mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlarning beshta toifasini o'z ichiga oladi:

birinchidan, jamoaviy muzokaralar olib borish va birlashish erkinligiga bo'lgan huquqi tan olish;

ikkinchidan, zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnatning barcha shakllarini bekor qilish;

uchinchidan, bolalar mehnatini taqiqlash;

to'rtinchidan, mehnat va kasb-hunar sohasida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik; beshinchidan, xavfsiz va sog'lom mehnat muhitini yaratish.

Deklaratsiya ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lmasa-da, unda barcha a'zo davlatlarning XMTning tegishli konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan yoki qilmaganligidan qat'i nazar, ushbu asosiy prinsiplarni hurmat qilish majburiyati borligi qayd etilgan.

Bugungi kunga qadar Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 191 ta konvensiya qabul qilingan. Ulardan ba'zilari eskirgan va ularning o'rni yangi, yanada takomillashtirilgan standartlar bilan almashtirilgan. Ulardan ba'zilari o'ziga xos xususiyatlarga ega va ishlab chiqarishning muayyan sohalarida qo'llaniladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti o'z konvensiyalarining tasnifini taklif qiladi, ular asosiy, ustuvor va texnik konvensiyalarga ajratilgan.

XMTning asosiy konvensiyalari:

- 1930-yilgi Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya (29-son);
- 1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konvensiyaga bayonnoma;
- 1948-yilgi Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (87-son);
- 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi to'g'risidagi konvensiya (98-son);
- 1951-yilgi Teng haq to'lash to'g'risidagi konvensiya (100-son);
- 1957-yilgi Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi konvensiya (105-son);
- 1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya (111-son);
- 1973-yilgi Eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya (138-son);

¹ XMTning Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar hamda uni amalga oshirish mexanizmi to'g'risidagi deklaratsiyasi. Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi tomonidan 1998-yil 18-iyunida Jenevada o'zining 86-sessiyasida qabul qilingan // <https://www.ilo.org/resource/conference-paper/ilo-1998-declaration-fundamental-principles-and-rights-work-and-its-follow>

- 1981-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti to'g'risidagi konvensiya (155-son);

- 1999-yilgi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiya (182-son);

- 2006-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslar to'g'risidagi konvensiya (187-son).

XMTning ustuvor konvensiyalari:

- 1947-yilgi Mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya (81-son);

- 1964-yilgi Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risidagi konvensiya (122-son);

- 1969-yilgi Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya (129-son);

- 1976-yilgi Uch tomonlama maslahatlashuvlar (xalqaro mehnat standartlari) to'g'risidagi konvensiya (144-son).

Boshqa barcha konvensiyalar Xalqaro mehnat tashkilotining o'zi tomonidan texnik deb tasniflanadi, lekin bu ularning ahamiyatini kamaytirmaydi.

Xalqaro mehnat normalari milliy mehnat qonunchiligi va siyosatini ishlab chiqishda, sud amaliyotida, jamoaviy bitimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lum bir mamlakat u yoki bu konvensiyani ratifikatsiya qilganligidan qat'i nazar, ulardagi normalar milliy institutlar va tuzilmalar faoliyatida hamda mehnat masalalarini boshqarish amaliyotida qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro mehnat normalari milliy huquqni qo'llash amaliyotiga ham, qonunchilikka ham ta'sir qiladi, bunda ish faqat uni ratifikatsiya qilingan konvensiya qoidalariga muvofiqlashtirish bilan cheklanmaydi.

XMT doimiy ravishda xalqaro mehnat normalarining qo'llanilishi bo'yicha monitoring olib boradi. Har bir a'zo-davlat o'zi ratifikatsiya qilgan har bir konvensiya qoidalarining hayotga tatbiq etilishi bo'yicha ko'rilgan qonunchilik va amaliy choralar to'g'risida muntazam ravishda ma'ruza taqdim etib borishga majburdir.

Hozirgi zamonda, mehnat munosabatlari avtomatlashtirish, raqamlashtirish va mehnat bozoridagi o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda, XMTning mehnatkashlar huquqlarining xalqaro himoyachisi sifatidagi roli yanada kuchaydi. XMT konvensiyalari nafaqat minimal mehnat standartlarini, balki mehnat qonunchiligini yangi muammolarga moslashtirish bo'yicha rahbariy tamoyillarni ham belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi 73 ta konvensiyani imzolagan va Xalqaro mehnat tashkilotining milliy qonunchilikka muvaffaqiyatli implementatsiya qilinayotgan barcha fundamental va ustuvor konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan.

2022-yilda mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari mustahkamlangan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi tasdiqlandi, unda:

- mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;

- mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;

- mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;

- mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;

- xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi.

2022-yil 20-dekabr kuni mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”¹, deb ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartishlar munosabati bilan mehnat, ish bilan ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish, mehnatga adolatli haq to‘lash, mehnatni muhofaza qilish va mehnat sohasidagi ijtimoiy himoya masalalari siyosiy-huquqiy ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga ko‘ra, fuqarolar munosib mehnat qilish, qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. XMT tomonidan berilgan ta‘rifga muvofiq, “munosib mehnat” tushunchasi mavhum tushuncha emas, balki o‘ziga xos to‘rtta tarkibiy qism – bandlik, ijtimoiy himoya, xodimlar huquqlari va ijtimoiy muloqotni o‘z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qismlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan, xususan, fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish (43-modda), ijtimoiy himoya to‘g‘risidagi qoida (14, 46, 57-moddalar), majburiy va har qanday bolalar mehnatini taqiqlash (44-modda), mehnat xavfsizligi va gigienasi, shuningdek kamsitmaslik va teng qiymatli ish uchun teng haq to‘lash tamoyillari (42-modda)².

O‘zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o‘rtasida 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi uchun munosib mehnat bo‘yicha mamlakat dasturi imzolandi. Mazkur dastur doirasida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, yoshlar, xotin-qizlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun bandlik va munosib mehnat imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek ularning sifatli va inklyuziv ta‘lim hamda ijtimoiy muloqotni mustahkamlashga ko‘maklashadigan ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2024-yilda XMT Bosh direktori Jilber Ungbo rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi, tashrif davomida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan yangi Mamlakat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish masalalari muhokama qilindi.

Barqaror rivojlanishga erishish uchun munosib mehnatning ahamiyati izchil, keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o‘sishga, to‘liq va samarali bandlikka hamda barcha uchun munosib mehnatga ko‘maklashishga qaratilgan Barqaror rivojlanishning 8-maqsadida ta’kidlangan. Yangi O‘zbekistonda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Bosh kun tartibining BRMga erishishni davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Mehnat huquqlariga rioya qilish ham davlat, ham biznes uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak, chunki u inson qadr-qimmatini va tengligini hurmat qilishga asoslangan barqaror va adolatli iqtisodiyotni yaratishga ko‘maklashadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // Мирзиёев Ш. Халқчил ислохотлар халқимиз манфаатларига хизмат қилади. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 215.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Адолат, 2023. – 336 б.

³ Ushbu to‘plam Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining XMT hujjatlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha ishining davomi hisoblanadi. Qarang: Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konventionlari va tavsiyalari / Масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2008. – 240 б.

Mazkur nashr mamlakatimiz keng jamoatchiligining Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari, shuningdek, ushbu to'plamga kiritilgan inson huquq va erkinliklari standartlari to'g'risidagi bilimlarini yanada boyishiga xizmat qiladi. Umid qilamizki, bu ish tadqiqotchilar, yuristlar, kasaba uyushmalari xodimlari hamda barcha mehnat huquqi va inson huquqlariga qiziquvchilar uchun foydali vosita bo'ladi.

Akmal Saidov,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori, akademik

BIRINCHI BO'LIM. ASOSIY KONVENSIYALAR

ZO'RLAB ISHLATISH YOKI MAJBURIY MEHNAT TO'G'RISIDAGI 29-SONLI KONVENSIYA

*1930-yil 28-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 14-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
492-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1930-yilning 10-iyunida o'zining o'n to'rtinchi sessiyasiga yig'ilib,
sessiya kun tartibining birinchi bandi bo'lgan zo'raki yoki majburiy mehnatga oid
turli takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz o'ttizinchi yil iyun oyining yigirma sakkizinchi kunida quyida
1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya deb nomlanadigan va Xalqaro
mehnat tashkiloti Ustavi qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat tashkiloti a'zolari
tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi zo'raki yoki majburiy mehnatni uning barcha shakllarida qo'llashni imkon qadar qisqa muddatda bekor qilish majburiyatini oladi.

2. Bunday to'liq bekor qilinishiga ko'ra, zo'raki yoki majburiy mehnat o'tish davrida faqat jamoat maqsadlarida va istisno tariqasida quyidagi moddalarda belgilangan shart va kafolatlar bilan qo'llanilishi mumkin.

3. Ushbu Konvensiya kuchga kirgan sanadan boshlab besh yil o'tgandan so'ng va quyida 31-moddada nazarda tutilgan ma'ruzaga asosan Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi zo'raki yoki majburiy mehnatni uning barcha shakllarini yangi davrga uzaytirmasdan bekor qilish imkoniyati to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi hamda mazkur masalani Konferensiya kun tartibiga kiritilishi bo'yicha qaror qabul qiladi.

2-modda

1. Ushbu Konvensiya maqsadi uchun “zo‘raki yoki majburiy mehnat” atamasi o‘z xizmatlarini ixtiyoriy ravishda taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi.

2. Lekin “zo‘raki yoki majburiy mehnat” atamasi ushbu Konvensiya maqsadlari uchun quyidagilarni o‘z ichiga olmaydi:

a) majburiy harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunlarga asosan talab qilinadigan va haqiqiy harbiy tUSDagi ishlar uchun qo‘llaniladigan har qanday ish yoki xizmatni;

b) to‘la o‘zini-o‘zi boshqaradigan mamlakat fuqarolarining odatdagi fuqarolik burchlarining bir qismi bo‘lgan har qanday ish yoki xizmatni;

c) har qanday shaxsdan sud organining hukmi oqibatida talab qilinadigan faqat mazkur ish va xizmat davlat hokimiyat organlarining kuzatuv va nazorati ostida bajarilsa hamda ushbu shaxs alohida shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar tasarrufiga o‘tkazilmasligi yoki topshirilmasligi sharti bilan har qanday ish va xizmatni;

d) favqulodda holatlar sharoitida, ya‘ni urush yoki falokat yoxud falokat tahdidi holatlarida, masalan, yong‘inlar, suv toshqini, ocharchilik, zilzila, kuchli epidemiya yoki epizootik kasallik, zararli hayvonlar, hasharotlar yoki o‘simlik parazitlarining hujumi va umuman aholining butun yoki bir qismining hayoti yoki barqaror hayotiy sharoitini xavf ostiga qo‘yadigan yoki qo‘yishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni;

e) jamoaning mayda xizmatlari, ya‘ni ushbu jamoa a‘zolari tomonidan jamoaning bevosita foydasi uchun bajariladigan va shuning uchun faqat aholining o‘zi yoki uning bevosita vakillari bu ishlarning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega bo‘lishi sharti bilan, jamoa a‘zolarining odatdagi fuqarolik burchlari deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan ishlarni.

3-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun “vakolatli hokimiyatlar” atamasi metropoliya hokimiyatini yoki tegishli hududning oliy markaziy hokimiyat organini anglatadi.

4-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar manfaati uchun zo‘raki yoki majburiy mehnat tayinlamaydi yoki tayinlanishiga ruxsat bermaydi.

2. Agar Tashkilotning har qanday a‘zosining ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi hujjati Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktori tomonidan ro‘yxatga olingan paytda uning hududida shunga o‘xshash zo‘raki yoki majburiy mehnat shakli alohida shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar manfaati uchun mavjud bo‘lsa, unda mazkur Tashkilot a‘zosi uning uchun ushbu Konvensiya kuchga kirgan paytdan boshlab shunday zo‘raki yoki majburiy mehnatni to‘la bekor qiladi.

5-modda

1. Xususiy shaxslarga, kompaniyalarga yoki birlashmalarga berilgan hech bir konsessiya, shu xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar tomonidan foydalanishga yoki sotishga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki to‘plash maqsadida zo‘raki yoki majburiy mehnat shakli qo‘llanilishiga olib kelmaydi.

2. Agar shunga o'xshash zo'raki yoki majburiy mehnat shaklining qo'llanilishiga olib keluvchi konsessiya qoidalari mavjud bo'lsa, unda ushbu konsessiya qoidalari mazkur Konvensiyaning 1-moddasi ko'rsatmalarini bajarish maqsadida imkon qadar qisqa muddatda bekor qilinadi.

6-modda

Ma'muriyat amaldorlari, agar ularning vazifasi o'zlariga ishonib topshirilgan aholini mehnatning biror bir shakli bilan band qilishga undash bo'lsa ham, bu aholini yoki alohida shaxslarni xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar manfaati uchun ishlashga majbur qilmaydi.

7-modda

1. Ma'muriy majburiyatlarni bajarmayotgan rahbarlar zo'raki yoki majburiy mehnatga tayana olmaydilar.

2. Ma'muriy majburiyatlarini bajarayotgan rahbarlar vakolatli hokimiyat organining maxsus ruxsati bilan ushbu Konvensiyaning 10-moddasida nazarda tutilgan shartlar asosida zo'raki yoki majburiy mehnatni qo'llashlari mumkin.

3. Tegishli tarzda tan olingan va boshqa shakllarda munosib haq olmaydigan rahbarlar tegishli tartibga solish sharti bilan shaxsiy xizmatlardan foydalanishlari mumkin; bunday holda, suiiste'mollikning oldini olish uchun barcha zarur choralar ko'riladi.

8-modda

1. Zo'raki yoki majburiy mehnatni qo'llash haqidagi har qanday qaror uchun mazkur hududning yuqori fuqarolik hokimiyati mas'uldir.

2. Biroq, mazkur hokimiyat zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilish huquqini yuqori mahalliy hokimiyat organlariga, agar bunday mehnat ishchilarning odatdagi turar joylaridan ko'chirilishiga olib kelmasa, berishi mumkin. Mazkur hokimiyat, shuningdek ushbu Konvensiyaning 23-moddasida nazarda tutilgan tartib-qoidalar bilan belgilanadigan muddatlar va shartlar asosida yuqori mahalliy hokimiyat organlariga ishchilarni odatdagi turar joylaridan ko'chirgan holda zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilish huquqini, agar bunday mehnat ma'muriyat mansabdor shaxslarining o'z vazifalarini bajarishda ularning harakatlanishini yengillashtirishga va ma'muriyat yuklarini tashish uchun xizmat qilsa, berishi mumkin.

9-modda

Ushbu Konvensiyaning 10-moddasida nazarda tutilganidan boshqa holatlarni istisno qilgan holda, zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilish huquqiga ega hokimiyat organi bu mehnat shaklini qo'llashga ruxsat berishdan avval quyidagilarga ishonch hosil qiladi:

a) bajarilishi lozim bo'lgan xizmat yoki ish ularni bajarishi kerak bo'lgan jamoa uchun bevosita va muhim ahamiyatga ega bo'lishiga;

b) shu xizmat yoki ish hozir va yaqin vaqtlarda zarur bo'lishiga;

c) shu hududda amalga oshirilganlarga teng bo'lgan shunga o'xshash xizmat yoki ish uchun ish haqi va sharoitlari taklif qilinganiga qaramay, shu xizmat yoki ishni bajarish uchun ixtiyoriy ishchi kuchi olishning imkoni bo'lmaganligiga;

d) mavjud ishchi kuchi va uning mazkur ishni bajarish qobiliyatini e'tiborga olgan holda, bu ish yoki xizmat oqibati aholi uchun juda og'ir yuk bo'lmasligiga.

10-modda

1. Soliq sifatida talab qilinadigan zo‘raki yoki majburiy mehnat hamda jamoat ishlarini bajarish uchun ma‘muriy vazifalarni bajarayotgan rahbarlar murojaat qiladigan zo‘raki yoki majburiy mehnat asta-sekin bekor qilinadi.

2. Shu tugatilgunga qadar, zo‘raki yoki majburiy mehnat soliq sifatida talab qilinadigan hollarda hamda zo‘raki yoki majburiy mehnatga jamoat ishlarini bajarish uchun ma‘muriy vazifalarni bajarayotgan boshliqlar murojaat qilayotgan hollarda tegishli hokimiyat oldindan quyidagilarga ishonch hosil qiladi:

a) bajarilishi lozim bo‘lgan xizmat yoki ishga murojaat qilgan jamoa uchun ushbu xizmat yoki ish bevosita muhim ahamiyat kasb etishiga;

b) shu xizmat yoki ish hozir va yaqin vaqtlarda zarur bo‘lishiga;

c) mavjud ish kuchi hamda uning shu ishni bajarish qobiliyatini e‘tiborga olib, bu ish yoki xizmat oqibati aholi uchun juda og‘ir yuk bo‘lmasligiga;

d) shu ish yoki xizmatni bajarish mehnatkashlarni ularning odatdagi turar joylaridan ko‘chishga majbur etmasligiga;

e) shu ish yoki xizmat bajarilishiga rahbarlik din, jamoat hayoti va qishloq xo‘jalik talablariga muvofiq tarzda olib borilishiga.

11-modda

1. Zo‘raki yoki majburiy mehnatga faqat katta yoshli, mehnatga layoqatli hamda o‘n sakkiz yoshdan kichik va qirq besh yoshdan katta bo‘lmagan erkaklar jalb qilinishi mumkin. Ushbu Konvensiyaning 10-moddasida nazarda tutilgan toifadagi ishlardan tashqari quyidagi cheklashlar va shartlar qo‘llaniladi:

a) ma‘muriyat tomonidan tayinlangan vrachning mazkur shaxslarning yuqumli kasalliklar bilan og‘rimaganini hamda ular talab qilinayotgan ish va mehnat sharoitlari uchun jismonan yaroqliligini imkon qadar oldindan aniqlash;

b) maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilarni, shuningdek umuman, ma‘muriyat mehnatkashlarini ozod qilish;

c) har bir jamoada oilaviy va ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan katta yoshli mehnatga layoqatli erkaklar sonini qo‘llab-quvvatlash;

d) oilaviy va er-xotinlik aloqalarini hurmat qilish.

2. Mazkur moddaning 1-bandi “c” kichik bandida ko‘rsatilgan maqsadlarda ushbu Konvensiyaning 23-moddasida nazarda tutilgan qoidalar doimiy aholining katta yoshli mehnatga layoqatli erkaklar ulushini belgilaydi, biroq ular bu ulushning hech bir holda mazkur aholining 25 foizidan oshmasligi shart bilan zo‘raki yoki majburiy mehnatga jalb qilinishi kerak. Mazkur ulushni belgilashda vakolatli hokimiyat organi aholi zichligini, shu aholining ijtimoiy va jismoniy rivojini, yil faslini va ushbu shaxslar tomonidan ularning turar joylarida va ularning nomidan bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni hisobga oladi hamda umuman, mazkur jamoa normal turmushining iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini e‘tiborda tutishi lozim.

12-modda

1. Har qanday shaxsning turli shakldagi zo‘raki yoki majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan eng ko‘p muddat yiliga oltmish kundan oshmasligi kerak, ish joyiga borish va qaytish uchun zarur bo‘lgan vaqt shu oltmish kun ichiga kiritiladi.

2. Zo‘raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan har bir ishchiga u ishlagan shu mehnat davrlari ko‘rsatilgan guvohnoma beriladi.

13-modda

1. Zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan har bir shaxsning normal ish kunining davomiyligi erkin yollangan mehnat sharoitlarida qo'llaniladigan ish kunining davomiyligi bilan bir xil bo'lishi kerak va odatdagi me'yordan ortiq ishlangan vaqtga xuddi erkin yollangan mehnatkashga odatdagi ish vaqtidan tashqari ishga haq to'lanadigan miqdoridek haq to'lanadi.

2. Har qanday shakldagi zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan barcha shaxslarga haftada bir marta dam olish kuni beriladi hamda bu imkon qadar mazkur hudud yoki mintaqaning an'analari va odatlari bilan belgilanadigan kunga to'g'ri kelishi kerak.

14-modda

1. Ushbu Konvensiyaning 10-moddasida nazarda tutilgan zo'raki va majburiy ishlardan tashqari, barcha shakldagi zo'raki yoki majburiy mehnat uchun, mehnatga jalb qilingan yoki yollangan hududda shunday turdagi ishlarga nisbatan qo'llanilayotgan miqdordan kam bo'lmagan miqdorda, yuqori miqdor qanday bo'lishidan qat'i nazar, naqd pulda haq to'lanadi.

2. Ish ma'muriy vazifalarni bajaruvchi boshliqlar tomonidan tayinlangan bo'lsa, avvalgi bandning qoidalariga muvofiq shartlarda, imkon qadar qisqa muddatda haq to'lash joriy qilinadi.

3. Ish haqi har bir ishchiga shaxsan berilishi kerak, uning boshlig'iga yoki qandaydir boshqa hokimiyat organiga berilmaydi.

4. Ish haqini olish maqsadida ish joyiga borish va qaytib kelish uchun ketgan kunlar ishlangan kunlar deb hisoblanadi.

5. Ushbu modda ishchilarga odatdagi oziq-ovqat payoklarini ish haqining bir qismi sifatida berishni taqiqlamaydi, faqat bu payoklar qiymati kamida ularga taklif qilingan mablag' miqdoriga teng bo'lishi kerak. Lekin ish haqidan na soliq uchun, na ishchilarni alohida mehnat sharoitlarida ishni davom ettira oladigan holatda saqlash maqsadida alohida ovqatlantirish, kiyintirish uchun yoki turar joy bilan ta'minlash uchun, na ularga ish asboblari berganlik uchun hech qanday chegirmalar ushlab qolinmaydi.

15-modda

1. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari uchun kompensatsiya berishga oid har qanday qonun hujjatlari hamda shu hududda ishlagan yoki ishlaydigan, vafot etgan yoki mehnat layoqatini yo'qotgan ishchilarning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga nafaqalar to'lanishini nazarda tutuvchi har qanday qonun hujjatlari zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan shaxslarga nisbatan xuddi erkin yollangan ishchilarga qo'llanilgani kabi teng asosda qo'llaniladi.

2. Har qanday holatda ishchini zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilayotgan har bir hokimiyat organi zimmasiga, agar ushbu ishchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida hayotiy ehtiyojlar uchun ishlash qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan bo'lsa, ushbu ishchining hayot kechirishini ta'minlash, shuningdek vafot etgan yoki ish natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotgan bu ishchining haqiqatan qaramog'ida bo'lgan har qanday shaxsni boqishni ta'minlash choralarini ko'rish majburiyati yuklatiladi.

16-modda

1. Zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan shaxslar, favqulodda zarur holatlardan tashqari, ovqatlanish sharoiti va iqlim sharoiti odatdagi hayot sharoitidan sog'liqqa xavf soladigan darajada ajralib turadigan hududlarga o'tkazilmasligi kerak.

2. Ishchilarning sharoitga moslashishi va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan gigiyena va uy-joy sharoitiga nisbatan barcha choralar qat'iy amalga oshirilmagunicha ishchilarni bunday o'tkazishga hech qanday holda ruxsat berilmasligi kerak.

3. Agar bunday o'tkazishning oldini olish mumkin bo'lmasa, vakolatli tibbiyot muassasasi maslahati asosida ishchilarning yangi ovqatlanish va iqlim sharoitiga asta-sekin moslashuvini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ko'rilishi kerak.

4. Agar ishchilar o'zlari uchun odatiy bo'lmagan ishlarni muntazam ravishda bajarishga jalb qilinsa, ularni ishning bu turiga moslashuvini ta'minlash, xususan, bosqichma-bosqich o'qitish, ish vaqti, dam olish uchun tanaffuslar tashkil etish va, agar zarur bo'lsa, ovqat rasionini yaxshilash yoki ko'paytirish bo'yicha choralar ko'riladi.

17-modda

Ishchilarni qurilish yoki ta'mirlash ishlarini bajarish uchun, buning natijasida ishchilar uzoq vaqt davomida ish joyida qolib ketishiga olib keladigan zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilishga ruxsat berishdan oldin, vakolatli hokimiyat organlari quyidagilarga ishonch hosil qiladi:

1) ishchilarning sog'lig'ini saqlash uchun va zarur tibbiy yordamni ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko'rilishiga va jumladan:

a) ishchilar ish boshlangunga qadar tibbiy ko'rikdan o'tkazilishiga va ular ishda band bo'lgan butun muddat davomida muayyan vaqt oralig'ida tibbiy ko'rikdan o'tib turishiga;

b) yetarlicha tibbiy mehnatkashlar bilan ta'minlanishiga, shu bilan birga, har qanday ehtiyojlari uchun zarur dispanserlar, shifoxonalar, gospitalar bunyod qilinishiga va ular zarur jihozlar bilan ta'minlanishiga;

c) ish joyida qoniqarli gigiyenik sharoit bilan ta'minlanishiga, mehnatkashlarning ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlari va yoqilg'i, shuningdek oshxona asbob-uskunalari bilan ta'minlanishiga va zarurat bo'lgan holda qoniqarli kiyim-bosh va uy-joy berish ko'zda tutilishiga;

2) mehnatkash oilasining hayot sharoitini ta'minlash uchun tegishli tadbirlar ko'rilishiga, jumladan, mehnatkashlar ish haqining bir qismini ularning roziligi yoki iltimosi bilan ishonchli tarzda oilalariga yuborilishini yengillashtirish yo'li bilan;

3) mehnatkashlarning ish joyiga borishi va qaytib kelishi ma'muriyat tomonidan uning mas'uliyati ostida va uning hisobiga ta'minlanishiga. Ma'muriyat esa, o'z navbatida, transportning barcha mavjud vositalaridan imkon qadar kengroq foydalanilishini ta'minlash orqali shu borish-kelishlarni yengillashtiradi;

4) kasallik yoki baxtsiz hodisa tufayli mehnatkash mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan holda mehnatkash ma'muriyat hisobidan repatriatsiya qilinishiga;

5) zo'raki yoki majburiy mehnat muddati tugagan har qanday mehnatkash erkin yollanuvchi mehnatkash sifatida qolishni istasa, ikki yil davr mobaynida bepul repatriatsiya qilinish huquqidan mahrum bo'lmagan holda shunday qolishga ruxsat berilishiga.

18-modda

1. Shaxslar yoki yuklarni tashish maqsadidagi zo'raki yoki majburiy mehnat, masalan, yukchilar va eshkakchilar mehnati imkon qadar qisqaroq muddatda bekor qilinadi. Shunga qadar, vakolatli hokimiyat organi, jumladan, quyidagilarni belgilaydigan tartib-qoidalarni e'lon qiladi:

a) shu mehnat shaklidan faqat ma'muriyat amaldorlarining o'z vazifalarini bajarish paytida ko'chishini yengillashtirish maqsadida yoki ma'muriyat yuklarini tashish maqsadida, yoki amaldor bo'lmagan boshqa shaxslarni tashishga nihoyatda shoshilinch zarurat paydo bo'lganda, foydalanish majburiyatini;

b) shu ishlarga yollangan mehnatkashlarni, agar buning iloji bo'lsa, sog'lig'i mazkur ishlarga to'g'ri kelishi bo'yicha tibbiy tekshiruvdan o'tkazishni; agar buning iloji bo'lmasa, mazkur mehnatkashlarni yollagan shaxs shu mehnatkashlar sog'lig'i mazkur ishlarga to'g'ri kelishiga va ular yuqumli kasallik bilan og'rimasligiga ishonch hosil qilish mas'uliyatini olishini;

c) mehnatkash tashishi lozim bo'lgan yukning eng og'ir vaznini;

d) mehnatkashlar ularning uylaridan jalb qilinishi mumkin bo'lgan eng uzoq masofani;

e) oyning yoki boshqa muddatning mehnatkashlar mehnatga jalb qilinishlari mumkin bo'lgan eng ko'p kunlari miqdorini, jumladan, mehnatkashlar uylariga qaytishi uchun ketadigan kunlarni qo'shgan holda;

f) zo'raki yoki majburiy mehnatning mazkur shakliga jalb qilish huquqiga ega shaxslarni, shuningdek ular vakolatlarining chegaralarini.

2. Avvalgi bandning "c", "d" va "e" kichik bandlarida gap boradigan maksimumni aniqlashda vakolatli hokimiyat organlari bu masalaga taalluqli barcha tegishli omillarni, shu jumladan, mehnatkashlar jalb qilinayotgan aholining jismoniy layoqatini, mehnatkashlar tomonidan bosib o'tilishi lozim bo'lgan yo'nalish xususiyatini, shuningdek iqlim sharoitini hisobga oladi.

3. Bundan tashqari, vakolatli hokimiyat organi mazkur mehnatkashlarning kundalik normal yo'nalishi o'rtacha ish kunidek sakkiz soat davom etadigan masofadan oshmasligini ta'minlaydi, bunda shu masofani aniqlaganda nafaqat yuk vazni va yo'nalish uzunligi, balki yo'lning holati, yil fasli va shunga taalluqli boshqa barcha omillar ham hisobga olinadi, shu bilan birga, agar yo'nalish vaqti davomiyligi kundalik normal yo'nalish davomiyligidan oshsa, u holda oddiy miqdordan oshadigan miqdor bo'yicha haq to'lanadi.

19-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi yerga majburiy ishlov berishni qo'llashga faqat ochlik yoki oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligining oldini olish maqsadlarida va har doim buning natijasida olingan mahsulotlar yoki oziq-ovqatlar ularni yetishtirgan shaxslar va jamoaning o'ziniki bo'lishi sharti bilan ruxsat beradi.

2. Ushbu modda, jamoa a'zolarining majburiyatini, ya'ni qonunga yoki odatlarga muvofiq jamoada talab etilayotgan ishni bajarish majburiyatini, ishlab chiqarish qonun yoki odatlarga muvofiq jamoaviy asosida tashkil qilinsa va mahsulotlar yoki shu mahsulotlarni sotishdan kelgan foyda jamoaning o'ziniki bo'lib qolsa, bekor qilishga asos bo'la olmaydi.

20-modda

Jamoani uning har qanday aʼzosi tomonidan sodir etilgan jinoyatlari uchun jazolashni koʻzda tutuvchi jamoaviy jazolash qonunchiligi jamoaning zoʻraki yoki majburiy mehnatini jazo chorasi sifatida koʻzda tutuvchi qoidalarini oʻz ichiga olmasligi kerak.

21-modda

Zoʻraki yoki majburiy mehnat shaxtalarda yer osti ishlarini bajarish uchun qoʻllanilmaydi.

22-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilot aʼzolarining Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasi qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosiga mazkur Konvensiyaning amalga oshirilishi yuzasidan koʻrilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida har yili taqdim etiladigan maʼruzalari imkon qadar quyidagilar toʻgʻrisida toʻliqroq axborotlarni oʻz ichiga olishi kerak: har bir tegishli hudud toʻgʻrisida; shu hududda zoʻraki yoki majburiy mehnatni qoʻllashning barcha holatlari toʻgʻrisida; shu mehnat qaysi maqsadlarda qoʻllanilishi toʻgʻrisida; kasallanish va oʻlim darajalari toʻgʻrisida; ish vaqti toʻgʻrisida; ish haqi toʻlash usullari va ish haqi miqdorlari toʻgʻrisida; shuningdek, shunga doir boshqa maʼlumotlar toʻgʻrisida.

23-modda

1. Ushbu modda qoidalarini hayotga tatbiq qilish uchun vakolatli hokimiyat organi zoʻraki yoki majburiy mehnatning qoʻllanilishini boshqaruvchi toʻliq va aniq tartib-qoidalarini belgilaydi.

2. Bu tartib-qoidalar, jumladan, zoʻraki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan har bir shaxsga, unga taqdim etiladigan mehnat sharoitlariga nisbatan hokimiyat organlariga oʻz eʼtirozini bildirishga ruxsat etadigan va shu eʼtirozning koʻrib chiqilishi va eʼtiborga olinishini kafolatlaydigan qoidalarini oʻz ichiga oladi.

24-modda

Zoʻraki yoki majburiy mehnatning qoʻllanilishini boshqaruvchi tartib-qoidalar qatʼiy ravishda hayotga tatbiq etilishini taʼminlash uchun barcha hollarda tegishli chora-tadbirlar koʻriladi, xususan, oddiy mehnatni nazorat qilish uchun taʼsis etilgan har qanday mehnat inspeksiyasi organining majburiyatini zoʻraki yoki majburiy mehnatni nazorat qilish vazifasi bilan kengaytirish orqali yoki istalgan boshqa mos keladigan usul yordamida. Shuningdek, bu tartib-qoidalar haqida zoʻraki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan shaxslarni xabardor qilish choralari koʻriladi.

25-modda

Zoʻraki yoki majburiy mehnatga noqonuniy jalb qilish jinoiy tartibda taʼqib qilinadi hamda ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir aʼzosi qonunda koʻrsatilgan sanksiyalarning chinakam samaradorligini va ularga qatʼiy rioya qilinishini taʼminlashi shart.

26-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir aʼzosi uni oʻz suvereniteti, yurisdiksiyasi, himoyasi, syuzereniteti, vasiyligi yoki

boshqaruvi ostida turgan hududlarga nisbatan, u ichki yurisdiksiyasi masalalariga ta'sir etish huquqiga ega bo'lgan darajada qo'llash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Biroq Tashkilotning ushbu a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi qoidalaridan foydalanishni istasa, u o'zining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatiga quyidagilarni ko'rsatuvchi bayonotni ilova qiladi:

1) ushbu Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlarsiz qo'llashni mo'ljallagan hududlar to'g'risidagi ma'lumot;

2) ushbu Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlar bilan qo'llashni mo'ljallagan hududlar to'g'risidagi va shu o'zgarishlarning tafsilotlari to'g'risidagi ma'lumot;

3) o'z qarorini saqlab turishni mo'ljallagan hududlar to'g'risidagi ma'lumot.

2. Ko'rsatilgan bayonot ratifikatsiyaning ajralmas qismi deb hisoblanadi va ratifikatsiya kuchiga ega. Tashkilotning har qanday a'zosi navbatdagi deklaratsiyasi orqali ushbu modda 1-bandining 2 va 3-kichik bandlari qoidalari kuchiga ko'ra uning avvalgi deklaratsiyasida aytib o'tilgan barcha shartlardan yoki ularning bir qismidan voz kechishi mumkin.

27-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining qoidalariga binoan ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

28-modda

1. Ushbu Konvensiya faqatgina ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Xalqaro mehnat byurosi tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini bog'laydi.

2. Ushbu Konvensiya Xalqaro mehnat tashkiloti ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

29-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinishi bilan, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini bu haqida xabardor qiladi. Bosh direktor, shuningdek, a'zolari keyinchalik Tashkilotning boshqa a'zolari tomonidan yuboriladigan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi barcha hujjatlarni ro'yxatga olinganligi haqida xabardor qiladi.

30-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi akt orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr tugaganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, keyingi besh yil muddatni kutishga majbur bo'ladi va keyinchalik ushbu moddada belgilangan tartibda har besh yillik muddat tugashi bilan mazkur Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin.

31-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritilishi yoki kiritilmasligi yuzasidan qaror qabul qiladi.

32-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa, Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, muddatidan va 30-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak.

2. Yangi, qayta ko'rib chiqilgan konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

3. Har qanday holatda, mazkur Konvensiya, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

33-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

1930-YILGI MAJBURIY MEHNAT TO'G'RISIDAGI 29-SONLI KONVENSIYAGA BAYONNOMA

2014-yil 11-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 103-sessiyasida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-iyundagi
O'RQ-545-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 2014-yilning 28-mayida o'zining 103-sessiyasiga *to'planib*,

zo'raki yoki majburiy mehnatni taqiqlash barcha asosiy huquqlar yig'indisining bir qismi ekanligini hamda zo'raki yoki majburiy mehnat millionlab ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarning inson huquqlarining buzilishi va qadr-qimmatini poymol qilishga olib kelishini, qashshoqlikning surunkali tarzda saqlanib qolishiga yordam berishini va barchaning manfaati yo'lida munosib mehnat maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilishini *tan olib*,

zo'raki yoki majburiy mehnatning barcha shakllariga qarshi kurashda 1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya (29-son) va 1957-yilgi Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi konvensiya (105-son) hayotiy muhim rol o'ynashini, shuningdek ularga rioya qilish borasida bo'shliqlar qo'shimcha choralarni amalga oshirishni talab qilishini *tan olib*,

Konvensiyaning 2-moddasida qo'llanilgan zo'raki yoki majburiy mehnat tushunchasi zo'raki yoki majburiy mehnatning barcha shakl va ko'rinishlarini qamrab olishini va biror bir istisnosiz barcha insonlarga taalluqliligini *eslatib*,

zo'raki va majburiy mehnatning barcha shakl va ko'rinishlariga tezkorlik bilan chek qo'yishning zarurligini *ta'kidlab*,

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilot a'zolarining zo'raki yoki majburiy mehnatni jinoiy huquqbuzarlik sifatida belgilash va qonunda ko'zda tutilgan sanksiyalarning haqiqatdan ham samarali bo'lishini va ularga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash borasida majburiyatga ega ekanligini *eslatib*,

Konvensiyada nazarda tutilgan o'tish davri allaqachon tugaganligini va 1-moddaning 2 va 3-bandlari hamda 3-24-moddalari qoidalari ortiq qo'llanilmasligini *qayd etib*,

zo'raki yoki majburiy mehnatning mazmuni va shakllari o'zgarib borayotganini hamda shahvoniy foydalanishga olib kelishi mumkin bo'lgan zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilish maqsadini ko'zlovchi odam savdosi xalqaro hamjamiyatni tobora

ko'proq tashvishga solayotganini va uni butunlay tugatish uchun tezkor choralar ko'rish zarurligini *tan olib*,

zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan ishchilar soni iqtisodiyotning xususiy sektoriga tobora ko'proq to'g'ri kelayotgani, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari esa bu borada ayniqsa zaif ekanligini va ishchilarning ayrim guruhlari, birinchi navbatda migrantlarning boshqalarga nisbatan zo'raki yoki majburiy mehnatning jabrlanuvchisi bo'lishi xavfi yuqori ekanligini *qayd etib*,

uzoq muddatli istiqbol uchun zo'raki yoki majburiy mehnatni tugatishning ta'sirchanligini oshirish ish beruvchilar o'rtasida adolatli raqobatni va ishchilarning kafolatlangan himoyasini ta'minlashga yordam berishini *qayd etib*,

1948-yilgi Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (87-son), 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini tashkil etish va olib borish huquqi to'g'risidagi konvensiya (98-son), 1951-yilgi Teng haq to'lash to'g'risidagi konvensiya (100-son), 1958-yilgi Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiya (111-son), 1973-yilgi Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya (138-son), 1999-yilgi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiya (182-son), 1949-yilgi Mehnatkash-migrantlar to'g'risidagi konvensiya (qayta ko'rib chiqilgan) (97-son), 1975-yilgi Mehnatkash-migrantlar to'g'risidagi konvensiya (qo'shimcha qoidalar) (143-son), 2011-yilgi Uy ishchilarining munosib mehnati to'g'risidagi konvensiya (189-son), 1997-yilgi Xususiy bandlik agentliklari to'g'risidagi konvensiya (181-son), 1947-yilgi Mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya (81-son), 1969-yilgi Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya (129-son), shuningdek Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiya (1998-yil) va XMTning Adolatli globallashuv maqsadlarida ijtimoiy adolat to'g'risidagi deklaratsiyasi (2008-yil) kabi tegishli xalqaro mehnat normalarini *eslatib*,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil), Qullik to'g'risidagi konvensiya (1926-yil), Qullik, qul savdosi va qullikka o'xshash institut va amaliyotlarni tugatish to'g'risidagi qo'shimcha konvensiya (1956-yil), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000-yil), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash to'g'risidagi bayonnomasi (2000-yil), Migrantlarni quruqlik, dengiz va havo orqali noqonuniy tashishga qarshi bayonnoma (2000-yil), Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1990-yil), Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya (1984-yil), Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979-yil) va Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006-yil) kabi boshqa muhim xalqaro hujjatlarni *qayd etib*,

Konvensiyaga rioya qilish nuqtai nazaridan mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish uchun bir qator takliflarni qabul qilishga qaror qilib hamda sessiya kun tartibining to'rtinchi bandiga muvofiq zararni qoplash va rehabilitatsiya qilish kabi oldini olish, muhofaza choralari va huquqiy himoya vositalari zo'raki yoki majburiy mehnatga samarali chek qo'yishni ta'minlash uchun zarur ekanligini *tasdiqlab*,

mazkur takliflarga bayonnoma va konvensiya shaklini berishga qaror qilgan holda, ikki ming oʻn toʻrtinchi yil iyun oyining oʻn birinchi kunida 1930-yilgi Majburiy mehnat toʻgʻrisidagi konvensiyaga 2014-yilgi bayonnoma deb nomlash mumkin boʻlgan quyidagi Bayonnomani qabul qildi:

1-modda

1. Zoʻraki yoki majburiy mehnatga chek qoʻyish yuzasidan Konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarishda Tashkilotning har bir aʼzosi undan foydalanishni oldini olish va toʻxtatish, jabrlanganlarga huquqiy himoyaning zararni qoplash hamda zoʻraki va majburiy mehnatga yoʻl qoʻygan huquqbuzarlarga nisbatan sanksiyalar belgilash kabi tegishli va samarali vositalaridan foydalanish imkoniyatini taʼminlash boʻyicha taʼsirchan choralar koʻradi.

2. Tashkilotning har bir aʼzosi uzoq muddatli istiqbol uchun zoʻraki yoki majburiy mehnatga samarali barham berish maqsadida ish beruvchilar va xodimlar tashkilotlari bilan maslahatlashgan holda milliy siyosat va harakat rejalarini ishlab chiqadi. Bu esa vakolatli organlar tomonidan tizimli harakatlarni amalga oshirishni va, zarur hollarda, boshqa manfaatdor guruhlar bilan harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qiladi.

3. Konvensiyada keltirilgan zoʻraki yoki majburiy mehnatning taʼrifi yana bir bor tasdiqlanadi va, shunday qilib, ushbu Bayonnomada nazarda tutilgan chora-tadbirlar zoʻraki yoki majburiy mehnat maqsadlarida odam savdosiga qarshi kurash boʻyicha aniq harakatlarni oʻz ichiga oladi.

2-modda

Zoʻraki yoki majburiy mehnatni oldini olish maqsadida qabul qilinadigan chora-tadbirlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

a) shaxslarni, xususan, nisbatan zaif hisoblanuvchi shaxslarni zoʻraki yoki majburiy mehnatning jarblanuvchisiga aylanib qolishiga yoʻl qoʻymaslik uchun oʻqitish va axborot bilan taʼminlash;

b) ish beruvchilarni zoʻraki yoki majburiy mehnat amaliyotida ishtirok etishga yoʻl qoʻymaslik maqsadida oʻqitish va axborot bilan taʼminlash;

c) quyidagilarni taʼminlashga saʼy-harakatlarni kuchaytirish:

i) zoʻraki yoki majburiy mehnatga taalluqli qonunchilikning, shu jumladan mehnat toʻgʻrisidagi qonunlarning qamrab olish sohasi va unga amal qilishni taʼminlash, tegishli holatlarda, barcha ishchilar va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tarqalishini;

ii) mehnat inspeksiyasi organlari va ushbu qonunchilikni amalga oshirish uchun masʼul boʻlgan boshqa xizmatlarni mustahkamlashni;

d) shaxslarni, birinchi navbatda mehnat migrantlarini ishga jalb qilish va yollash jarayonida sodir etilishi mumkin boʻlgan suiisteʼmollik va fribgarlik amaliyotlaridan himoya qilish;

e) davlat va xususiy sektorning zoʻraki yoki majburiy mehnat bilan bogʻliq xatarlarni oldini olish va tegishli javob choralarni koʻrishga yoʻnaltirilgan faol saʼy-harakatlarini qoʻllab-quvvatlash;

f) zoʻraki yoki majburiy mehnat bilan bogʻliq xatarlarni kuchaytiruvchi asosiy sabablar va omillarni aniqlash.

3-modda

Tashkilotning har bir a'zosi zo'raki yoki majburiy mehnatning barcha jabrlanuvchilarini aniqlash, ozod qilish, himoya qilish, tiklash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha samarali choralarni ko'radi, shuningdek yordam va qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllarini ko'zda tutadi.

4-modda

1. Tashkilotning har bir a'zosi o'z hududida zo'raki yoki majburiy mehnatning barcha jabrlanuvchilari jismonan mavjudligi yoki ularning huquqiy maqomidan qat'i nazar, zararni qoplash kabi huquqiy himoyaning mutanosib va samarali himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

2. Tashkilotning har bir a'zosi, o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, ixtiyoriga zid ravishda, zo'raki yoki majburiy mehnatda zo'rlik bilan ishtirok etganliklari sababli huquqqa zid harakatlarni sodir etganliklari uchun zo'raki yoki majburiy mehnatning jabrlanuvchilarini jinoiy javobgarlikka tortmaslik va ularga nisbatan jazo choralarni qo'llamaslik borasida vakolatli organlar tegishli huquqqa ega bo'lishini ta'minlash maqsadida zarur choralarni ko'radi.

5-modda

Tashkilot a'zolari zo'raki yoki majburiy mehnatning barcha shakllariga yo'l qo'yimaslik va ularni oldini olish maqsadida bir-birlari bilan hamkorlik qiladilar.

6-modda

Ushbu Bayonnoma va Konvensiya qoidalarini amalga oshirish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar milliy qonunchilik yoki normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq yoki tegishli ish beruvchilar va ishchilar tashkilotlari bilan maslahatlashuvlardan so'ng vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

7-modda

Konvensiyaning 1-moddasi 2 va 3-bandlari va 3-24-moddalarining vaqtinchalik qoidalari chiqarib tashlandi.

8-modda

1. Tashkilot a'zosi ushbu Bayonnomani Konvensiyani ratifikatsiya qilish bilan bir vaqtda yoki u ratifikatsiya qilinganidan keyin istalgan vaqtda Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ushbu Bayonnomani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy yorliqni ro'yxatdan o'tkazish uchun yuborish orqali ratifikatsiya qilishi mumkin.

2. Bayonnoma Tashkilot ikkita a'zosining ratifikatsiya yorliqlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan boshlab 12 oy o'tgach kuchga kiradi. Keyinchalik ushbu Bayonnoma Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin 12 oy o'tgach kuchga kiradi va Konvensiya tegishli a'zo uchun ushbu Bayonnomaning 1-7-moddalari qo'shilgan holda majburiy kuchga ega bo'ladi.

9-modda

1. Ushbu Bayonnomani ratifikatsiya qilgan Tashkilot a'zosi, agar Konvensiya uning 30-moddasi qoidalariga muvofiq denonsatsiya qilish uchun ochiq bo'lsa, Xalqaro mehnat

byurosi Bosh direktoriga denonsatsiya qilish to'g'risidagi arizani ro'yxatdan o'tkazish uchun yuborgan holda denonsatsiya qilishi mumkin.

2. Konvensiyaning 30 yoki 32-moddalari qoidalariga muvofiq Konvensiyani denonsatsiya qilish o'z-o'zidan ushbu Bayonnomani denonsatsiya qilishga olib keladi.

3. Mazkur Bayonnomani ushbu moddaning 1 va 2-bandlari qoidalariga muvofiq denonsatsiya qilish denonsatsiya qilish to'g'risidagi ariza ro'yxatga olingan sanadan boshlab bir yil o'tgach kuchga kiradi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Bayonnomaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Ushbu Bayonnomaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

BIRLASHMALAR ERKINLIGI VA KASABA UYUSHMALARIGA BIRLASHISH HUQUQINI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDAGI 87-SONLI KONVENSIYA

*1948-yil 9-iyul, San-Fransiskoda
XMT Bosh konferensiyasining 31-sessiyasida qabul qilingan,*

*O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-oktyabrdagi
O'RQ-412-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferensiyasi Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan San-Fransiskoda chaqirilib va 1948-yilning 17-iyunida o'zining o'ttiz birinchi sessiyasiga *to'planib,*

sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi bir qancha takliflarni konvensiya shaklida qabul qilishga *qaror qilib,*

Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining muqaddimasi "birlashish erkinligi prinsipining tan olinishi" mehnat sharoitlarini yaxshilashga va tinchlikni ta'minlash vositalari sifatida e'lon qilayotganini *e'tiborga olib,*

Filadelfiya deklaratsiyasida "so'z va birlashish erkinligi taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shartlar" deb ta'kidlanganini *e'tiborga olib,*

Xalqaro mehnat konferensiyasi, o'zining o'ttizinchi sessiyasida xalqaro miqyosda tartibga soluvchi asosni shakllantiruvchi prinsiplarni yakdillik bilan qabul qilganini *e'tiborga olib,*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi o'zining ikkinchi sessiyasida mazkur prinsiplarni ma'qullaganini va Xalqaro mehnat tashkilotidan, xalqaro konvensiyalarning bir nechtasini qabul qilish imkoniyatini vujudga keltirish uchun har qanday faoliyatni davom ettirish taklifini *e'tiborga olib,*

bir ming to'qqiz yuz qirq sakkizinchi yil iyul oyining to'qqizinchi kunida quyidagi 1948-yilgi Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. BIRLASHISH ERKINLIGI

1-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi, ushbu Konvensiya unga nisbatan kuchga kirgan bo'lsa, quyida keltirilgan qoidalarni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2-modda

Mehnatkashlar va ish beruvchilar, hech bir cheklashlarsiz, tashkilot ta'sis etish va faqat ushbu tashkilotning qoidalariga bo'ysungan holda, o'zlari tanlagan tashkilotga oldindan ruxsat olmasdan ko'shilish huquqiga egadir.

3-modda

1. Mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari o'zlarining nizomlari va qoidalarini tuzish, o'zlarining vakillarini mutlaq erkin saylash, o'zlarining ma'muriyatini va faoliyatini tashkil qilish, o'zlarining dasturlarini bayon etish huquqiga egadir.

2. Davlat organlari mazkur huquqni cheklovchi yoki uning qonuniy amalga oshirilishiga qarshilik qiluvchi har qanday aralashuvdan tiyilishi kerak.

4-modda

Mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari ma'muriy organ tomonidan asossiz tarqatib yuborilishi yoki vaqtinchalik taqiqlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

5-modda

Mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari federatsiyalar va konfederatsiyalar tuzish huquqiga, shuningdek ularga qo'shilish huquqiga ega hamda har bir shunday tashkilot, federatsiya yoki konfederatsiya mehnatkashlar va ish beruvchilarning xalqaro tashkilotlariga qo'shilish huquqiga egadir.

6-modda

2, 3 va 4-moddalar qoidalari mehnatkashlar va ish beruvchilar birlashmalarining federatsiyalari va konfederatsiyalariga nisbatan ham qo'llaniladi.

7-modda

Mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari, federatsiyalari va konfederatsiyalari tomonidan yuridik shaxs maqomi olinishi, 2, 3 va 4-moddalarning qoidalari qo'llanilishini cheklovchi xarakterdagi shartlarga bo'ysundirilishi mumkin emas.

8-modda

1. Ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan huquqlarini amalga oshirishda mehnatkashlar, ish beruvchilar va ularning tegishli tashkilotlari, boshqa shaxslar yoki birlashgan jamoalar singari, milliy qonunchilikni hurmat qiladilar.

2. Milliy qonunchilik ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan kafolatlarga putur yetkazuvchi shaklda bo'lmasligi kerak hamda ushbu kafolatlarning qo'llanilishini cheklamasligi lozim.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan kafolatlar Qurolli Kuchlarga va politsiyaga nisbatan qay darajada qo'llanilishini milliy qonun hujjatlari tomonidan belgilanadi.

2. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 19-modda 8-bandida bayon etilgan qoidalarga muvofiq Xalqaro mehnat tashkilotining har qanday a'zosi tomonidan ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, mavjud qonunlarga, sud qarorlariga, an'analarga yoki shartnomalarga salbiy ta'sir qilishi mumkin deb va buning oqibatida mazkur Konvensiyada kafolatlangan har qanday huquqdan qurolli kuchlar yoki politsiya shaxsiy tarkibi foydalanishi mumkin deb qaralmaydi.

10-modda

Ushbu Konvensiyada "tashkilot" atamasi mehnatkashlar yoki ish beruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va olg'a surishni maqsad qilib qo'ygan har qanday mehnatkashlar yoki ish beruvchilarning tashkilotlarini anglatadi.

II BO'LIM. BIRLASHISH HUQUQINI HIMOYA QILISH

11-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi, ushbu Konvensiya unga nisba-tan kuchga kirgan bo'lsa, mehnatkashlar va ish beruvchilar birlashish huquqini erkin amalga oshirishini kafolatlash maqsadida barcha zarur va kerakli chora-tadbirlar ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

III BO'LIM. TURLI QOIDALAR

12-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga, ratifikatsiya hujjatlari bilan birga yoki ratifikatsiyadan keyin imkoni boricha qisqa muddatda, Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 1946-yilgi O'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi akti bilan o'zgartirishlar kiritilgan Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasida ko'zda tutilgan hududlarga nisbatan (ushbu Ustavning 35-moddasi 4 va 5-bandlarida ko'zda tutilgan hududlardan tashqari) quyidagilarni bildiradigan deklaratsiyani yuboradi:

a) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarining o'zgartirishlarsiz qo'llanilishini zimmasiga olishi;

b) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishini zimmasiga olishi va o'zgartirishlarning tafsiloti;

c) qaysi hududlarga nisbatan Konvensiya qo'llanilmasligi va bu holda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi o'z qarorini saq-lab turishi.

2. Ushbu modda 1-bandining "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiyaning ajralmas qismi deb hisoblanadi va ratifikatsiya kuchiga ega.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi navbatdagi deklaratsiya orqali ushbu modda 1-bandining "b", "c" yoki "d" kichik bandlari asosida avvalgi deklaratsiyada aytib o'tilgan har qanday shartlardan yoki ularning bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davr mobaynida 16-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga istalgan avvalgi deklaratsiyaning har qanday shartiga o'zgartirishlar kiritadigan hamda belgilangan hududlaridagi hozirgi ahvolni ifoda etadigan navbatdagi deklaratsiyani yuborishi mumkin.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan masalalar har qanday metropoliyadan tashqaridagi avtonom hokimiyatlarga tegishli bo'lganda, shunday hududning xalqaro munosabatlari uchun javobgar bo'lgan Tashkilot a'zosi, shu hududning hukumati bilan kelishib, Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga shu hudud nomidan mazkur Konvensiya majburiyatlarini qabul qilish to'g'risidagi deklaratsiyani yuborishi mumkin.

2. Ushbu Konvensiya majburiyatlarini qabul qilish to'g'risidagi deklaratsiya Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuborilishi mumkin:

a) Tashkilotning ikki yoki undan ko'p a'zosi tomonidan ularning birgalikdagi boshqaruvi ostida bo'lgan har qanday hududlar bo'yicha;

b) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga muvofiq har qanday hududni boshqarishga yoki boshqa shunga o'xshash hududni boshqarishga javobgar bo'lgan har qanday xalqaro darajadagi mas'ul tomonidan.

3. Ushbu moddaning aytib o'tilgan bandlariga muvofiq, Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuboriladigan deklaratsiyalarda Konvensiya qoidalari tegishli hududga nisbatan qanday qo'llanilishi, ya'ni o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishsiz qo'llanilishi ko'rsatiladi; agar deklaratsiyada Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilsa, unda o'zgartirishlarning tafsiloti ham beriladi.

4. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul istalgan paytda, keyingi deklaratsiyasi orqali, tegishli huquqidan foydalanib, har qanday avvalgi deklaratsiyasida ko'zda tutilgan har qaysi o'zgartirishlardan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

5. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan muddat mobaynida, 16-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga har qanday avvalgi deklaratsiyaning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda mazkur Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan hozirgi ahvolni ifoda etuvchi deklaratsiya yuborishi mumkin.

IV BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

14-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

15-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

16-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi hamda shunga muvofiq, u mazkur modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

17-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcharatifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olinganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

18-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

19-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

20-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 16-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur

Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

21-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

JAMOA MUZOKARALARINI TASHKIL ETISH VA YURITISH HUQUQI TAMOYILLARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI 98-SONLI KONVENSIYA

*1949-yil 1-iyul, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida qabul qilingan*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
496-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma‘muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1949-yilning 8-iyunida o‘zining o‘ttiz ikkinchi sessiyasiga *to‘planib*,
sessiya kun tartibining to‘rtinchi bandi hisoblangan jamoaviy kelishuv va birlashish
huquqi tamoyillarining qo‘llanilishiga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to‘qqiz yuz qirq to‘qqizinchi yil iyul oyining birinchi kunida quyidagi
1949-yilgi Jamoa muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi to‘g‘risidagi konvensiya
deb nomlanishi mumkin bo‘lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

1. Mehnatkashlar ish bilan ta‘minlanishida birlashmalar erkinligini cheklashga
qaratilgan har qanday kamsitish harakatlariga qarshi tegishli himoyadan foydalanadilar.
2. Bunday himoya quyida ko‘zlangan harakatlarga nisbatan yanada mas‘uliyatliroq
qo‘llaniladi:

a) mehnatkashni ish bilan ta‘minlashda jamoat birlashmasiga qo‘shilmaslik yoki
kasaba uyushmasi a‘zosi huquqidan voz kechish shartini qo‘yish;

b) mehnatkashni birlashmaga a‘zo bo‘lgani uchun va birlashma faoliyatida ish
vaqtidan tashqari yoki ish beruvchi roziligi bilan ish vaqtida ishtirok etganligi tufayli
unga ziyon yetkazish yoki bo‘shatish.

2-modda

1. Mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari o‘z tashkilotlarini tuzishda,
ularning faoliyatida va boshqarishda bir-biri tomonidan yoki bir-birining agentlari
yoki a‘zolari tomonidan amalga oshiriladigan har qanday aralashuvga qarshi tegishli
himoyadan foydalanadilar.

2. Xususan, ushbu moddaning mazmun-mohiyatiga ko‘ra ish beruvchilar yoki ish
beruvchilarning tashkilotlari hukmronligi ostida mehnatkashlarning tashkilotlari

ta'sis etilishiga ko'maklashishga mo'ljallangan yoki mehnatkashlarning tashkilotlarini mablag' ajratish yoxud boshqa yo'l bilan ish beruvchilar yoki ish beruvchilar tashkilotlari nazorati ostiga qo'yish maqsadida qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan harakatlar aralashuv harakatlari sifatida qaraladi.

3-modda

Zarur hollarda, birlashish huquqining hurmat qilinishini ta'minlash maqsadida, xuddi oldingi moddalarda ta'riflanganidek, milliy sharoitga mos keladigan mexanizm tuziladi.

4-modda

Jamoa shartnomalari orqali ish bilan ta'minlanish sohasidagi shart-sharoitlarni tartibga solish maqsadida, zarur hollarda, ish beruvchilar yoki ish beruvchilarning tashkilotlari va mehnatkashlarning tashkilotlari o'rtasidagi ixtiyoriy muzokaralar mexanizmining to'la rivojlanishiga va undan samarali foydalanishga ko'maklashish va rag'batlantirish uchun milliy sharoitga mos keladigan chora-tadbirlar ko'riladi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan kafolatlar qurolli kuchlarga va politsiyaga nisbatan qay darajada qo'llanilishi milliy qonun hujjatlari tomonidan belgilanadi.

2. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 19-moddasi 8-bandida bayon etilgan qoidalarga muvofiq Xalqaro mehnat tashkilotining har qanday a'zosi tomonidan ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mavjud qonunlarga, sud qarorlariga, an'analarga yoki shartnomalarga salbiy ta'sir qilishi mumkin hamda buning oqibatida mazkur Konvensiyada kafolatlangan har qanday huquqdan qurolli kuchlar yoki politsiya shaxsiy tarkibi foydalanishi mumkin, deb qaralmaydi.

6-modda

Ushbu Konvensiyaning ta'siri davlat boshqaruvida mashg'ul bo'lgan davlat xizmatchilariga nisbatan qo'llanilmaydi hamda ularning huquqlari va mavqelariga ziyon yetkazadigan mazmunda sharhlanmaydi.

7-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandiga muvofiq Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan bayonotlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarining o'zgartirishlarsiz qo'llanilishini zimmasiga olishi;

b) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarining o'zgartirishlar bilan qo'llanilishini zimmasiga olishi va shu o'zgartirishlarning tafsiloti;

c) qaysi hududlarga nisbatan Konvensiya qo'llanilmasligi va bu holda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi o'z qarorini, bu holat kelgusida ko'rib chiqilgunga qadar saqlab turishi.

2. Ushbu modda 1-bandining "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiyaning ajralmas qismi deb hisoblanadi hamda ratifikatsiya qilinishi kerak.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi navbatdagi bayonot orqali ushbu modda 1-bandining "b", "c" yoki "d" kichik bandlari asosida avvalgi bayonotda aytib o'tilgan har qanday shartlardan yoki ularning bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davr mobaynida 11-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga istalgan avvalgi bayonotning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda belgilangan hududlaridagi hozirgi ahvolni ifoda etuvchi navbatdagi bayonotni yuborishi mumkin.

10-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4 va 5-bandlariga muvofiq, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan deklaratsiyalarda Konvensiya qoidalari tegishli hududga nisbatan qanday qo'llanilishi, ya'ni o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishlarsiz qo'llanilishi ko'rsatib o'tiladi; agar deklaratsiyada Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilsa, unda o'zgartirishlarning tafsiloti ham beriladi.

2. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul istalgan paytda, keyingi deklaratsiyasi orqali, tegishli huquqidan foydalanib, har qanday avvalgi deklaratsiyasida ko'zda tutilgan har qaysi o'zgartirishlardan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan muddat mobaynida, 11-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga har qanday avvalgi deklaratsiyaning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda mazkur Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan hozirgi ahvolni ifoda etuvchi deklaratsiya yuborishi mumkin.

11-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga muvofiq, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

12-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

13-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar, deklaratsiyalar va denonsatsiya aktlarining barchasiga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

15-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi qonunga ko'ra, 11-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qolaveradi.

16-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

TENG QIYMATLI MEHNAT UCHUN ERKAKLAR VA AYOLLARGA TENG HAQ TO‘LASH TO‘G‘RISIDAGI 100-SONLI KONVENSIYA

*1951-yil 29-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 34-sessiyasida qabul qilingan*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
493-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma‘muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1951-yilning 6-iyunida o‘zining o‘ttiz to‘rtinchi sessiyasiga *to‘planib*,

sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to‘lash tamoyili to‘g‘risida bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to‘qqiz yuz ellik birinchi yil iyun oyining yigirma to‘qqizinchi kunida quyidagi 1951-yilgi Teng haq to‘lash to‘g‘risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo‘lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Ushbu Konvensiya maqsadi uchun:

a) “haq to‘lash” atamasi ish beruvchining xodimga qaysidir ishni oxirigacha bajarganligi sababli odatdagi, asosiy yoki eng kam ish haqi yoxud to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, naqd yoxud real taqdim etadigan, odatdagi, asosiy yoki eng kam oylik va boshqa har qanday haqlarni o‘z ichiga oladi;

b) “teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to‘lash” atamasi jins bo‘yicha kamsitishsiz belgilanadigan haq to‘lash miqdori ma‘nosini anglatadi.

2-modda

1. Tashkilotning har bir a‘zosi haq to‘lash miqdorini belgilashning amaldagi usullariga munosib vositalar yordamida belgilangan usullarga mos keladigan darajada rag‘batlantiradi hamda barcha xodimlarga nisbatan teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to‘lash tamoyilining qo‘llanilishini ta‘minlaydi.

2. Ushbu tamoyil quyidagi tarzda qo‘llanilishi mumkin:

a) milliy qonunchilik;

b) qonunchilik bilan belgilangan yoki tan olingan ish haqini aniqlash tizimi;

- c) ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi jamoa shartnomalari;
- d) ushbu turli usullarni qo'shib ishlatish.

3-modda

1. Bunday harakatlar ushbu Konvensiya qoidalarining qo'llanilishiga yordam beradigan holatlarda, bajariladigan ishlar asosida turli vazifalarni xolis baholash choralari ko'riladi.

2. Bunday baholashning usullari haq to'lash miqdorlarini belgilash sohasidagi vakolatli organlar yoki agar haq to'lash miqdorlari jamoa shartnomalari bilan belgilanadigan bo'lsa, ushbu shartnomalarda ishtirok etuvchi tomonlarning qarorlari obyekt bo'lishi mumkin.

3. Jinsidan qat'i nazar, bajarilgan ishni bunday obyektiv baholashdan kelib chiqadigan farqqa mos keladigan haq to'lash miqdorlaridagi farq teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to'lash tamoyiliga zid sifatida qaralmaydi.

4-modda

Tashkilotning har bir a'zosi ushbu Konvensiyaning qoidalarini hayotga tatbiq etish maqsadida ish beruvchilar va xodimlarning tegishli tashkilotlari bilan tegishli tartibda hamkorlik qiladi.

5-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

6-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

7-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandi qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuborilgan arizada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

a) Tashkilotning manfaatdor a'zosi ushbu Konvensiya qoidalarini o'zgartirmasdan qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

b) u mazkur Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlar bilan qo'llash majburiyatini olgan hududlar va bu o'zgartirishlarning tafsilotlari;

c) Konvensiya qo'llanilmaydigan hududlar va bu holatda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) o'zining qarorini bundan keyin ham qoidalarni ko'rib chiqilgunga qadar saqlab turishiga nisbatan hududlar.

2. Ushbu moddaning 1-bandi “a” va “b” kichik bandlarida qayd qilingan majburiyatlar ratifikatsiya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi va u bilan bir xil oqibatlarga olib keladi.

3. Tashkilotning har qanday a’zosi yangi bayonot orqali mazkur moddaning 1-bandi “b”, “c” va “d” kichik bandlariga asosan avvalgi bayonotda keltirilgan qo’shimcha shartlarning barchasi yoki bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a’zosi ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo’lgan davri mobaynida 9-modda qoidalariga muvofiq Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlarda istalgan avvalgi bayonotning shartini o’zgartiradigan va muayyan hududlardagi mavjud holatni bildiradigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

8-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4 va 5-bandlari qoidalariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yo’llangan bayonotlar ushbu Konvensiya qoidalari mazkur hududga o’zgartirishlar bilan yoki o’zgartirishsiz qo’llanilishi mumkinligi ko’rsatiladi; agar bayonotda Konvensiya qoidalari o’zgartirilishi sharti bilan qo’llanilishi ko’rsatilgan bo’lsa, u holda bu o’zgartirishlar aynan nimadan iborat ekanligi aniqlanadi.

2. Tashkilotning tegishli a’zosi yoki a’zolari yoxud xalqaro hokimiyat yangi bayonot orqali har qanday avvalgi arizalarda nazarda tutilgan o’zgarishlardan foydalanish huquqidan to’liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a’zosi yoki a’zolari yoxud xalqaro hokimiyat 9-modda qoidalariga muvofiq Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo’lgan davrlarda Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlarda istalgan avvalgi bayonotning shartini o’zgartiradigan va ushbu Konvensiyaning qo’llanilishiga nisbatan mavjud holat to’g’risida bildiradigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a’zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o’n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro’yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to’g’risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to’g’risidagi hujjat ro’yxatga olinganidan keyin bir yil o’tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a’zosi, yuqoridagi badda qayd etilgan o’n yillik muddat o’tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko’zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo’lsa, navbatdagi o’n yillik muddatni kutishga majbur bo’ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o’n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a’zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish to’g’risidagi hujjatlar va denonsatsiya qilish to’g’risidagi hujjatlarini ro’yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a’zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zlari tomonidan ro'yxatga olingan barcha ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatlarga, denonsatsiya qilish to'g'risidagi bayonot va hujjatlariga nisbatan to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, u Bosh Konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uning to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqilishi to'g'risidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilgan holatlarda va, agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 9-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

MAJBURIY MEHNATNI TUGATISH TO'G'RISIDAGI 105-SONLI KONVENSIYA

*1957-yil 25-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 40-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
498-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1957-yilning 5-iyunida o'zining qirqinchi sessiyasiga *to'planib*,
sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan majburiy mehnat to'g'risidagi
masalani *ko'rib chiqib*,

1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya qoidalarini *hisobga olib*,

1926-yilgi Qullik to'g'risidagi konvensiya zaruriy yoki majburiy mehnat qullikka
o'xshash sharoitga olib kelmasligi uchun barcha zarur choralar ko'rishni nazarda tutishini
va 1956-yilgi Qullikni, qul savdosi hamda qullikka o'xshash institutlar va odatlarni
tugatish to'g'risidagi Qo'shimcha konvensiya qarz asorati va krepostnoy qaramlikni
to'liq bekor qilishini ko'zda tutishini *e'tiborga olib*,

1949-yilgi Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya ish haqi o'z vaqtida
to'lanishi kerakligini va ishchilarning ishdan ketishining haqiqiy imkonidan mahrum
qiladigan har qanday mehnatga haq to'lash tizimini qo'llash taqiqlanganligini nazarda
tutishini *e'tiborga olib*,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida qayd etilgan va Inson huquqlari
umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan inson huquqlarini buzuvchi majburiy yoki
zaruriy mehnatning ayrim turlarini bekor qilish yuzasidan qo'shimcha takliflarni qabul
qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz ellik yettinchi yil iyun oyining yigirma beshinchi kunida quyidagi
1957-yilgi Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin
bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi
majburiy yoki zaruriy mehnatni tugatish va uning har qanday shaklini ishlatmaslik
majburiyatini oladi:

a) belgilangan siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy tizimga zid siyosiy qarashlar yoki mafkuraviy e'tiqodlarning mavjudligi yoxud ifodalanishi uchun siyosiy ta'sir yoki tarbiya vositasi yoki jazo chorasi sifatida;

b) iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari uchun ishchi kuchini safarbar etish va undan foydalanish usuli sifatida;

c) mehnat intizomini saqlash chorasi sifatida;

d) ish tashlash harakatlarida qatnashganlik uchun jazo chorasi sifatida;

e) irqiy, ijtimoiy va milliy mansublik yoki diniy e'tiqod belgilari bo'yicha kamsitish choralari sifatida.

2-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi mazkur Konvensiyaning 1-moddasida keltirilgan zo'raki yoki majburiy mehnat shakllarining zudlik bilan va to'liq bekor qilinishi uchun samarali choralar ko'rish majburiyatini oladi.

3-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuboriladi.

4-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor tomonidan Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

6-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining

ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

7-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

8-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

9-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 5-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

10-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

MEHNAT VA ISH TURLARI SOHASIDA KAMSITISH TO'G'RISIDAGI 111-SONLI KONVENSIYA

*1958-yil 25-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 42-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
499-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1958-yilning 4-iyunida o'zining qirq ikkinchi sessiyasiga *to'planib*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

Filadelfiya deklaratsiyasida barcha odamlar irqi, e'tiqodi yoki jinsidan qat'i nazar, erkinlik va qadr-qimmat, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyatlar sharoitida o'zining moddiy farovonligi va ma'naviy rivojlanishini amalga oshirish huquqiga ega ekanligi e'lon qilinganligini *e'tiborga olib*,

kamsitish Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan huquqlarning buzilishi ekanligini *hisobga olib*,

bir ming to'qqiz yuz ellik sakkizinchi yil iyun oyining yigirma beshinchi kunida quyidagi 1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya maqsadlarida "kamsitish" atamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) mehnat va ish turlari sohasidagi imkoniyatlar yoki muomala tengligining yo'q qilinishi yoki buzilishiga olib keladigan irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy e'tiqodi, xorijiy mansublik yoki ijtimoiy kelib chiqishi belgilari bo'yicha amalga oshiriladigan yo'l qo'ymaslik, ustun qo'yish yoki har qanday farqlash;

b) ish beruvchi va ishchilarning vakillik tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa va boshqa tegishli organlar bilan maslahatlashgan holda tegishli A'zo tomonidan belgilanadigan mehnat va ish turlari sohasidagi imkoniyatlar yoki muomala tengligining yo'q qilinishi yoki buzilishiga olib keladigan har qanday farqlash, yo'l qo'ymaslik yoki ustun qo'yish.

2. O'ziga xos talablarga asoslangan muayyan ishlarga nisbatan yo'l qo'yimaslik, ustun qo'yish yoki har qanday farqlash kamsitish deb hisoblanmaydi.

3. Ushbu Konvensiya maqsadida "mehnat" va "ish turlari" atamalari kasbiy o'rganish imkoniga ega bo'lishni, mehnat va turli ish turlariga ega bo'lishni, shuningdek mehnatning haq va sharoitlarini o'z ichiga oladi.

2-modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan Tashkilotning har bir a'zosi mehnat va ish turlariga nisbatan shu sohadagi har qanday kamsitishni tugatish maqsadida milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan usullar, imkoniyat va muomala tengligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan milliy siyosatni belgilash va amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3-modda

Ushbu Konvensiya kuchda bo'lgan Tashkilotning har bir a'zosi milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan usullar orqali quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) ushbu siyosatning qabul qilinishi va unga rioya qilinishiga ko'maklashish ishida ish beruvchilar va ishchilar tashkilotlari, shuningdek boshqa tegishli organlar hamkorligini ta'minlashga intilish;

b) ushbu siyosatning qabul qilinishi va unga rioya qilinishini ta'minlaydigan bunday qonunchilikni kiritish va shunday ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatlash;

c) ushbu siyosatga mos kelmaydigan har qanday qonunchilik qoidalarini bekor qilish va har qanday ma'muriy qo'llanmalarni yoki amaliyotni o'zgartirish;

d) mehnat sohasida belgilangan siyosatni davlat hokimiyatining bevosita nazorati ostida amalga oshirish;

e) davlat hokimiyati boshqaruvi ostida kasb tanlash, kasbga o'qitish va ishga joylashtirish bo'yicha muassasalar faoliyatida belgilangan siyosatga rioya qilinishini ta'minlash;

f) aytib o'tilgan siyosatga muvofiq o'tkazilgan tadbirlarda va mazkur tadbirlar tufayli erishilgan natijalarini o'zining Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi har yilgi ma'ruzalarida ko'rsatishi.

4-modda

Davlat xavfsizligiga putur yetkazish faoliyati bilan shug'ullanashida asosli shubhalar mavjud bo'lgan yoki isbotlangan shaxsga qarshi qaratilgan har qanday choralar, manfaatdor shaxs milliy amaliyotga muvofiq tashkil etilgan vakolatli organga murojaat qilish huquqiga ega bo'lsa, kamsitish deb hisoblanmaydi.

5-modda

1. Xalqaro mehnat konferensiyasi tomonidan qabul qilingan boshqa konvensiyalar va tavsiyalarda nazarda tutilgan himoya qilish yoki yordam berish bo'yicha alohida choralar kamsitish deb hisoblanmaydi.

2. Tashkilotning har bir a'zosi ish beruvchi va ishchilarning vakillik tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashgan holda, jinsi, yoshi, jismoniy nuqsonlari, oilaviy ahvoli yoki ijtimoiy yoxud madaniy darajada idrok qilishiga ko'ra, odatda alohida himoya yoki yordamga muhtoj deb topilgan shaxslarning o'ziga xos

ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har qanday boshqa alohida choralar kamsitish deb hisoblanmasligini belgilashi mumkin.

6-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavi qoidalariga muvofiq, uni metropoliyadan tashqari hududlarda qo'llash majburiyatini oladi.

7-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor tomonidan Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan

barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 5-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

ISHGA QABUL QILISH UCHUN ENG KICHIK YOSH TO'G'RISIDAGI 138-SONLI KONVENSIYA

*1973-yil 26-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 58-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 4-apreldagi
O'RQ-140-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1973-yilning 6-iyunida o'zining ellik sakkizinchi sessiyasiga *to'planib*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

1919-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1920-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1921-yilgi Qishloq xo'jaligida eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1921-yilgi Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchi uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1932-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1936-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1959-yilgi Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya hamda 1965-yilgi Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya qoidalarini *e'tiborga olib*,

bolalar mehnatini to'liq bekor qilishga erishish maqsadida cheklangan iqtisodiy sektorlarda qo'llaniladigan mavjud shartnomalarni bosqichma-bosqich almashtiruvchi umumiy shartnoma ishlab chiqish vaqti kelganini *e'tiborga olib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz yetmish uchinchi yil iyun oyining yigirma oltinchi kunida quyidagi 1973-yilgi Eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi, bolalar mehnatini batamom bekor qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan va ishlashga yoki yollanishga ruxsat etilgan eng kichik yoshni o'smirlarning to'la jismoniy va aqliy rivojlanish darajasiga mos keladigan yoshgacha bosqichma-bosqich oshirishga yo'naltirilgan milliy siyosatni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatga ilova qilinadigan bayonotida, o'z hududi doirasida va hududida ro'yxatga olingan transport vositalarida ishga qabul qilinishga yoki yollanishga ruxsat etilgan eng kichik yoshni ko'rsatadi; mazkur Konvensiyaning 4–8-moddalari shartiga binoan, ushbu eng kichik yoshdan kichik bo'lgan shaxslarga har qanday ish turida ishlashga yoki yollanishiga yo'l qo'yilmaydi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, keyinchalik, keyingi bayonoti orqali mamlakatda o'rnatilgan eng kichik yoshni avval o'rnatilgan eng kichik yoshidan kattaroq yosh belgilaganligi haqida Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktorini xabardor qilishi mumkin.

3. Mazkur moddaning 1-bandi asosida belgilanadigan eng kichik yosh majburiy maktab ta'limini tugallash uchun zarur bo'lgan yoshdan kam bo'lmasligi kerak va har qanday holda o'n besh yoshdan kichik bo'lmasligi zarur.

4. Iqtisodiyoti va ta'lim imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmagan Tashkilot a'zosi mazkur moddaning 3-bandi qoidalaridan qat'i nazar, ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng dastavval eng kichik yosh deb o'n to'rt yoshni belgilashi mumkin.

5. Yuqoridagi band qoidalariga muvofiq eng kichik yosh deb o'n to'rt yoshni belgilagan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq o'zining mazkur Konvensiya ijrosi to'g'risidagi ma'ruzasiga quyidagi bayonotlarni kiritadi:

a) ushbu qaror qabul qilinishi sabablari o'zgarmaganligi; yoki

b) u muayyan sanadan e'tiboran o'zining mazkur qoidalardan foydalanish huquqidan voz kechishini.

3-modda

1. O'z xususiyati yoki amalga oshiriladigan sharoitiga ko'ra o'smir sog'lig'i, xavfsizligi yoki ma'naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ish yoki yollanma ish turiga qabul qilish uchun eng kichik yosh o'n sakkiz yoshdan kam bo'lmasligi kerak.

2. Ushbu moddaning 1-bandi qo'llaniladigan ish turlari yoki yollanma ish turlari milliy qonunchilik yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng belgilanadi.

3. Ushbu moddaning 1-bandi qoidalaridan qat'i nazar, milliy qonunchilik yoki vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng o'n olti yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga ishlashga yoki yollanib ishlashga, ularning sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviyati to'la muhofaza etilishi hamda ular yetarlicha maxsus ta'lim va faoliyatning tegishli sohasi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik olishlari sharti bilan ruxsat berishlari mumkin.

4-modda

1. Zaruratga ko'ra, vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng, mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi doirasidan ishlarning yoki yollanma

ishlarning cheklangan toifalarini, ya'ni ularning qo'llanilishida alohida va muhim muammolar vujudga keladigan toifalarini chiqarib tashlashlari mumkin.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi, Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga binoan taqdim etiladigan, mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi o'zining birinchi ma'ruzasida, ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq istisno qilinishi mumkin bo'lgan barcha toifalarni istisno qilish sabablarini ko'rsatgan holda qayd etadi hamda navbatdagi ma'ruzalarda chiqarib tashlangan mazkur toifalarga nisbatan milliy qonunchiligi va amaliyotining ahvoli to'g'risida va Konvensiya qoidalari ushbu toifalarga nisbatan qanday qo'llanilayotganligi yoki qo'llanilishi mo'ljallanayotganligi to'g'risida ma'lum qiladi.

3. Ushbu Konvensiya 3-moddasi bilan qamrab olinadigan ish turi yoki yollanma ish turi, mazkur modda bajarilishidan kelib chiqib, ushbu Konvensiya qo'llanishi doirasidan chiqarib tashlanmasligi kerak.

5-modda

1. Iqtisodiyoti va ma'muriy imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmagan Tashkilot a'zosi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng, dastavval mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

2. Mazkur moddaning 1-bandi qoidalarini qo'llayotgan Tashkilotning har bir a'zosi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatiga ilova qilinadigan bayonotida ushbu Konvensiya qoidalarini u qo'llaydigan iqtisodiy faoliyat tarmoqlari yoki korxonalar turlarini ko'rsatishi lozim.

3. Konvensiya qoidalari hech bo'lmaganda, quyidagi sohalarda qo'llanilishi lozim: shaxta va karyerlarda; ishlov berish sanoatida; qurilishda; elektr, gaz va suv ta'minotida; sanitariya xizmatlarida; transport, omborlar va aloqa xizmatida; ekinzorlar va tijorat maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridagi ishlarda, shu jumladan, mahalliy iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan, doimiy ravishda yollanma mehnatkashlardan foydalanmaydigan oilaviy va kichik xo'jaliklarda.

4. Mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasini ushbu modda qoidalariga muvofiq cheklaydigan Tashkilotning har bir a'zosi:

a) Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzasida mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasidan chiqarilgan faoliyat sohalarida o'smirlar va bolalarning ishlashi yoki yollanib ishlashining umumiy ahvoli to'g'risidagi va ushbu Konvensiya qoidalari kengroq qo'llanilishi yo'lida amalga oshirilgan har qanday ijobiy o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim;

b) xohlagan vaqtda Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan bayonoti orqali Konvensiya qo'llanilishi doirasini rasman kengaytirishi mumkin.

6-modda

Ushbu Konvensiya bolalar va o'smirlar tomonidan umumta'lim maktablari, kasb-hunar va texnika ta'limi yoki boshqa o'quv muassasalarida bajariladigan ishlarga yoki kamida o'n to'rt yoshda bo'lgan shaxslar tomonidan vakolatli hokimiyat organlari – ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng belgilab qo'yilgan shartlarga muvofiq korxonalarda bajariladigan ishlarga nisbatan va quyidagilarning tarkibiy qismi hisoblanadigan ishlarga nisbatan qo'llanilmaydi:

- a) asosiy mas'uliyat maktab yoki kasbiy tayyorgarlik muassasasi zimmasida bo'lgan ta'lim yoki tayyorgarlik kursining;
- b) asosan yoki butunlay korxonada amalga oshiriladigan, vakolatli hokimiyat organi tomonidan ma'qullangan kasbiy tayyorgarlik dasturining;
- c) kasbiy yoki kasbiy tayyorgarlik turini tanlashni yengillashtirishga qaratilgan kasbga yo'naltirish dasturlari.

7-modda

1. Milliy qonun hujjatlari o'n uch yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan shaxslarga yengil ishlarda ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etishi mumkin, agar bu:

- a) ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun zararli bo'lmasa;
- b) ularning maktabga qatnashiga, ularning vakolatli hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan kasbga yo'naltirish yoki kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etishlariga, yoki ularning olgan o'quvlaridan foydalanish layoqatiga zarar yetkazmaydigan bo'lsa.

2. Milliy qonunchilik kamida o'n besh yoshda bo'lgan, lekin majburiy maktab ta'limini tugallamagan shaxslarga, mazkur moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlari talablariga rioya etish sharti bilan, ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etishi mumkin.

3. Vakolatli hokimiyat organi ishlashga yoki yollanib ishlashga mazkur moddaning 1 va 2-bandlariga muvofiq ruxsat etilgan faoliyat sohaslarini aniqlaydi hamda bunday ishning yoki yollanma ishning bajarish mumkin bo'lgan ish vaqti davomiyligi va sharoitini belgilaydi.

4. Mazkur moddaning 1 va 2-bandlari qoidalaridan qat'i nazar, 2-moddaning 4-bandi qoidalarini qo'llayotgan Tashkilot a'zosi, u uchun zarur bo'lgan muddatda, ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan o'n ikki va o'n to'rt yoshlarni – o'n uch va o'n besh yoshlar bilan, 2-bandida esa o'n to'rt yoshni – o'n besh yosh bilan almashtirishi mumkin.

8-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng, ruxsatnomalar berish orqali mazkur Konvensiyaning 2-moddasida ko'zda tutilgan ishga yoki yollanma ishga qabul qilishni man etish qoidasini ayrim hollarda, badiiy tadbirlarda ishtirok etish kabi maqsadda istisno qilishi mumkin.

2. Shu tartibda beriladigan ruxsatnoma ishlash yoki yollanib ishlash mumkin bo'lgan sharoitni belgilaydi va ish vaqti davomiyligini cheklaydi.

9-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi tomonidan mazkur Konvensiya qoidalarini hayotga samarali tatbiq etishni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'riladi, shu jumladan, tegishli jazolarni belgilash choralari ko'riladi.

2. Milliy qonunchilik yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan Konvensiya ijrosini ta'minlovchi qoidalarning rioya etilishiga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

3. Milliy qonunchilik yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan ish beruvchi tasarrufida va xizmatida bo'ladigan ro'yxatlar yoki boshqa hujjatlar tayinlanadi: bunday ro'yxatlar yoki hujjatlarda ish beruvchi tomonidan yollangan yoki u uchun ishlaydigan va o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslar ism-sharifi, yoshi yoki tug'ilgan sanasiga doir ma'lumotlar zarur darajada tasdiqlangan holda ko'rsatiladi.

10-modda

1. Mazkur Konvensiya, ushbu moddada ko'zda tutilgan shartlar asosida 1919-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1920-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1921-yilgi Qishloq xo'jaligidagi eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1921-yilgi Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchi uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1932-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1936-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1959-yilgi Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya hamda 1965-yilgi Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani qayta ko'rib chiqadi.

2. Mazkur Konvensiyaning kuchga kirishi 1936-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1937-yilgi Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya, 1959-yilgi Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya hamda 1965-yilgi Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning keyinchalik ratifikatsiya qilish uchun yopilishiga olib kelmaydi.

3. Agar 1919-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1920-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya, 1921-yilgi Qishloq xo'jaligida eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya hamda 1921-yilgi Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning barcha ishtirokchilari ularni ratifikatsiya qilish uchun yopishga rozi bo'lib, mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilsa yoki bu haqda Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga bayonot yuborsa, ushbu konvensiyalar bundan keyingi ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

4. Agar mazkur Konvensiya majburiyatlari:

a) 1937-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa, u holda qonunga binoan 1937-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

b) 1932-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan nosanoat ishlariga nisbatan qabul qilinsa, u holda qonunga binoan 1932-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

c) 1937-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan nosanoat ishlariga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa, u holda qonunga binoan 1937-yilgi Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

d) 1936-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan dengizdagi

ishlarga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa yoki Tashkilotning a'zosi ushbu Konvensiyaning 3-moddasi dengizdagi ishlarga nisbatan qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunga binoan 1936-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

e) 1959-yilgi Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan dengizda baliqchilik sohasidagi ishlarga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa yoki Tashkilotning a'zosi ushbu Konvensiyaning 3-moddasi dengizda baliqchilik sohasidagi ishlarga nisbatan qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunga binoan 1959-yilgi Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

f) 1965-yilgi Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yoshni yuqorida ko'rsatilgan 1965-yilgi Konvensiyaga muvofiq belgilangan eng kichik yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa yoki Tashkilotning a'zosi bu yosh ushbu Konvensiyaning 3-moddasiga ko'ra shaxtalardagi yer osti ishlariga ruxsat berish uchun qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunga binoan 1965-yilgi Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi, faqat mazkur Konvensiya kuchga kirgan bo'lsa.

5. Mazkur Konvensiya majburiyatlarining qabul qilinishi:

a) ushbu Konvensiyaning 12-moddasiga muvofiq, 1919-yilgi Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

b) qishloq xo'jaligiga nisbatan, ushbu Konvensiyaning 9-moddasiga muvofiq, 1921-yilgi Qishloq xo'jaligida eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

c) dengizdagi ishlarga nisbatan, ushbu Konvensiyaning 10-moddasiga muvofiq, 1920-yilgi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya va mazkur Konvensiyaning 12-moddasiga muvofiq, 1921-yilgi Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi, faqat ushbu Konvensiya kuchga kirgan bo'lsa.

11-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

12-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi hamda shunga muvofiq, u bu modda shartlariga binoan bu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

14-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

15-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining barchasiga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

16-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

17-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 13-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qolaveradi.

18-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

MEHNAT XAVFSIZLIGI VA GIGIENASI HAMDA ISHLAB CHIQRISH MUHITI TO'G'RISIDAGI 155-SONLI KONVENSIYA

*1981-yil 22-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 67-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-oktyabrdagi
O'RQ-969-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1981-yilning 3-iyunida oltinchi sessiyasiga *to'planib*,
sessiya kun tartibining oltinchi bandi bo'lgan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda
ishlab chiqarish muhiti bo'yicha bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil iyun oyining yigirma ikkinchi kunida quyida
1981-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti to'g'risidagi
konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. QO'LLANISH SOHASI VA TUSHUNCHALAR

1-modda

1. Mazkur Konvensiya iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga qo'llaniladi.
2. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilot a'zosi, ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan imkon qadar tezroq maslahatlashuvlardan so'ng, iqtisodiy faoliyatning dengizda kemachilik yoki baliqchilik kabi sohalarga nisbatan alohida muammolar paydo bo'ladigan ayrim tarmoqlarini ushbu Konvensiyani qisman yoki to'liq qo'llanish doirasidan chiqarib tashlashi mumkin.
3. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a'zosi o'zining Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasida mazkur moddaning 2-bandiga binoan istisno qilinishi mumkin bo'lgan xodimlarning ayrim toifalarini bunday istisno sabablarini va istisno qilingan tarmoqlarda xodimlarni yetarli darajada himoya qilishni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni ko'rsatib sanab o'tadi

hamda keyingi ma’ruzalarda qo’llanish sohasining har qanday kengayishi haqida xabar beradi.

2-modda

1. Mazkur Konvensiya uning qoidalari qo’llaniladigan iqtisodiy faoliyat sohaslarida ishlaydigan barcha xodimlarga nisbatan qo’llaniladi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilot a’zosi, ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan imkon qadar tezroq maslahatlashuvlardan so’ng, uni qo’llanish doirasidan alohida qiyinchiliklar yuzaga keladigan ayrim toifadagi xodimlarni qisman yoki to’liq istisno qilishi mumkin.

3. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a’zosi o’zining Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan Konvensiyaning qo’llanilishi to’g’risidagi birinchi ma’ruzasida mazkur moddaning 2-bandiga binoan istisno qilinishi mumkin bo’lgan xodimlarning ayrim toifalarini bunday istisnoning sabablarini bayon qilib sanab o’tadi hamda o’zining keyingi ma’ruzalarida qo’llanish sohasining har qanday kengayishi haqida xabar beradi.

3-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlari uchun:

a) “iqtisodiy faoliyat tarmoqlari” atamasi xodimlar yollanib ishlaydigan barcha tarmoqlarni, shu jumladan davlat xizmatini o’z ichiga oladi;

b) “xodimlar” atamasi barcha yollanib ishlaydiganlarga, shu jumladan davlat sektorida ishlaydiganlarga ham tatbiq etiladi;

c) “ish joyi” atamasi xodimlar bo’lishi kerak bo’lgan yoki ishi bilan bog’liq holda borishi kerak bo’lgan va bevosita yoki bilvosita ish beruvchining nazorati ostida bo’lgan barcha joylarni anglatadi;

d) “qoidalar” atamasi vakolatli organ yoki organlar qonun kuchiga ega barcha qoidalarni o’z ichiga oladi;

e) mehnatga nisbatan “sog’liq” atamasi nafaqat kasallik yoki xastalikning yo’qligini anglatadi, shuningdek mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bilan bevosita bog’liq bo’lgan sog’liqqa ta’sir qiluvchi jismoniy va ruhiy elementlarni o’z ichiga oladi.

II BO’LIM. MILLIY SIYOSAT TAMOYILLARI

4-modda

1. Tashkilotning har bir a’zosi milliy sharoit va amaliyotga muvofiq va ish beruvchilar va xodimlarning vakolatli tashkilotlari bilan maslahatlashuvdan so’ng mehnat xavfsizligi, mehnat gigiyenasi va ishlab chiqarish muhiti sohasidagi kelishilgan milliy siyosatni ishlab chiqadi, amalga oshiradi va vaqti-vaqti bilan qayta ko’rib chiqadi.

2. Bunday siyosatning maqsadi – ish paytida yoki u bilan bog’liq bo’lgan baxtsiz hodisalar va sog’liqqa yetkazilishi mumkin bo’lgan zararni oldini olish, ishlab chiqarish muhitiga xos bo’lgan xavf-xatarlarning sabablarini qanchalik asosli va amaliy kamaytirilishi.

5-modda

Ushbu Konvensiyaning 4-moddasida nazarda tutilgan siyosatni amalga oshirishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhitiga ta'sir ko'rsatadigan darajada quyidagi asosiy faoliyat sohalari hisobga olinadi:

a) mehnatning moddiy elementlarini (ish joylari, ishlab chiqarish muhiti, asboblari, mexanizmlar va uskunalari, kimyoviy, jismoniy va biologik moddalar va omillar, mehnat jarayonlari) ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish, tanlash, almashtirish, o'rnatish, joylashtirish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish;

b) mehnatning moddiy elementlari va ishni bajaradigan yoki uni nazorat qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, mexanizmlarni, jihozlarni, ish soatlarini, mehnat va mehnat jarayonlarini tashkil etishni xodimlarning jismoniy va ruhiy xususiyatlariga moslashtirish;

c) kasbiy ta'lim, shu jumladan, mehnat xavfsizligi va gigiyenasining tegishli darajasini ta'minlash uchun u yoki bu lavozimda ishlaydigan shaxslar uchun zaruriy keyingi tayyorgarlik, malaka va rag'batlantirish;

d) xodim guruh va korxonada darajasida va boshqa har qanday tegishli darajada milliy darajagacha bo'lgan aloqa va hamkorlik;

e) ushbu Konvensiyaning 4-moddasida ko'rsatilgan siyosatga muvofiq, ular tomonidan tegishli tarzda amalga oshirilgan harakatlar natijasida xodimlar va ularning vakillarini intizomiy choralaridan himoya qilish.

6-modda

Ushbu Konvensiyaning 4-moddasida nazarda tutilgan siyosatni ishlab chiqishda davlat organlari, ish beruvchilar, xodimlar va boshqa shaxslarning mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi tegishli vazifalari va majburiyatlari ko'rsatiladi, shu bilan birga, bunday majburiyatlarning yordamchi xususiyati ham, milliy sharoit va amaliyot ham hisobga olinadi.

7-modda

Asosiy muammolarni aniqlash, ularni hal qilishning samarali usullarini va chora-tadbirlar tartibini aniqlash, shuningdek, natijalarni baholash maqsadida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi va ishlab chiqarish muhiti to'liq yoki faqat alohida jihatlari tegishli muddatlarda qayta ko'rib chiqiladi.

III BO'LIM. MILLIY DARAJADAGI TADBIRLAR

8-modda

Tashkilotning har bir a'zosi qonunchilik yoki qoidalar yoki milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan boshqa usullar orqali va ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvdan so'ng, ushbu Konvensiyaning 4-moddasi qoidalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'radi.

9-modda

1. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti bo'yicha qonun hujjatlari va qoidalarning hayotga tatbiq etilishi inspeksiyaning zarur va tegishli tizimi bilan ta'minlanadi.

2. Qonun va qoidalar buzilgan taqdirda hayotga tatbiq etishni nazorat qilish tizimi tegishli sanksiyalarni qabul qilishni nazarda tutadi.

10-modda

Ish beruvchilar va xodimlarga yuridik majburiyatlarini bajarishda yordam berish uchun maslahat berish choralari ko'riladi.

11-modda

Ushbu Konvensiyaning 4-moddasida nazarda tutilgan siyosatni amalga oshirish uchun vakolatli organ yoki organlar quyidagi funksiyalarning bosqichma-bosqich bajarilishini ta'minlaydi:

a) agar xavf-xatarlarning tabiati va darajasi talab qilinsa, korxonalarni loyihalash, qurish va rejalashtirish, ularni ishga tushirish, ularni sezilarli darajada qayta jihozlash va maqsadini o'zgartirish, shuningdek, bu jarayonda foydalaniladigan texnik jihozlarning xavfsizligini tartibga soluvchi shartlarni aniqlash, ishni bajarish va vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartib-taomillarini qo'llash;

b) munosabatlarni taqiqlash, cheklash yoxud vakolatli organ yoki organlarning ruxsatiga yoki nazoratiga bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari, buyumlar va vositalarni aniqlash; bir vaqtning o'zida bir nechta moddalar yoki vositalar bilan aloqa qilish natijasida yuzaga keladigan sog'liq uchun xavflar hisobga olinadi;

c) ish beruvchilar tomonidan e'lon qilish tartib-taomillarini belgilash va qo'llash, zarur hollarda sug'urta muassasalari va boshqa bevosita manfaatdor organlar yoki shaxslar tomonidan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risida, shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar to'g'risidagi yillik statistik ma'lumotlarni taqdim etish;

d) ish joyidagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklar yoxud ish paytida yoki u bilan bog'liq holda sog'liqqa har qanday yetkazilgan zarar jiddiy vaziyatni ko'rsatganda tekshiruvlar o'tkazish;

e) ushbu Konvensiyaning 4-moddasida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklar va ish paytida yoki u bilan bog'liq holda sog'liqqa yetkazilgan barcha boshqa zararlari bo'yicha ko'rsatilgan siyosatga muvofiq qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotni har yili e'lon qilish;

f) milliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, kimyoviy, jismoniy yoki biologik vositalarni o'rganish tizimlarini xodimlar salomatligi xavfi nuqtai nazaridan qo'llash yoki kengaytirish.

12-modda

Milliy qonunchilik va amaliyotga muvofiq, kasbiy foydalanish uchun mexanizmlar, asbob-uskunalar yoki buyumlarni yaratadigan, ishlab chiqaradigan, import qiladigan yoki yetkazib beradigan shaxslar uchun quyidagilarni ta'minlash maqsadida choralar ko'riladi:

a) mexanizmlar, uskunalar yoki buyumlar ulardan to'g'ri foydalanadigan shaxslarning xavfsizligi va sog'lig'iga tahdid solmasligi qanchalik asosli va amalda mumkin ekanligiga ishonch hosil qiladi;

b) mexanizm va asbob-uskunalarni to'g'ri o'rnatish va ulardan foydalanish, shuningdek, moddalardan to'g'ri foydalanish, mexanizm va uskunalardan foydalanish

bilan bog‘liq xavflar, kimyoviy moddalar, fizik va biologik vositalar yoki mahsulotlarning zararli xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot, shuningdek, ma‘lum xavf-xatarlardan qanday qochish kerakligi haqida ko‘rsatma beriladi;

c) ushbu moddaning a) va b) bandlari qoidalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘rganish va tadqiqotlar olib boriladi yoki boshqa yo‘l bilan ilmiy-texnik bilimlarning rivojlanishi kuzatib boriladi.

13-modda

O‘zining hayoti yoki sog‘lig‘i uchun bevosita va jiddiy xavf tug‘dirishini taxmin qilish uchun yetarli asoslarga ega bo‘lgan ishni tashlab ketgan xodim milliy shart-sharoitlar va amaliyotga muvofiq asossiz oqibatlardan himoya qilish ta‘minlanadi.

14-modda

Milliy shart-sharoitlar va amaliyotga muvofiq barcha xodimlarning kasbiy tayyorgarlik sohasidagi ehtiyojlarini qondirish uchun barcha darajadagi ta‘lim va o‘qitish dasturlariga, shu jumladan oliy texnik, tibbiy va kasb-hunar ta‘limi dasturlariga mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti masalalarini kiritishga ko‘maklashish choralari ko‘riladi.

15-modda

1. 4-moddada ko‘rsatilgan siyosat va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning muvofiqligini ta‘minlash maqsadida tashkilotning har bir a‘zosi ish beruvchilar va xodimlarning vakillik tashkilotlari bilan imkon qadar tezroq maslahatlashuvdan so‘ng va kerak bo‘lganda, boshqa organlar bilan ushbu Konvensiyaning II va III bo‘limlari qoidalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan turli organlar va tashkilotlar o‘rtasida zarur muvofiqlashtirishni ta‘minlash uchun milliy sharoit va amaliyotga mos choralarni ko‘radi.

2. Ushbu chora-tadbirlar, agar sharoitlar talab qilsa va milliy shart-sharoitlar va amaliyot imkon bo‘lsa, markaziy organni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

IV BO‘LIM. KORXONALAR DARAJASIDAGI TADBIRLAR

16-modda

1. Ish beruvchilar o‘z nazorati ostidagi ish joylari, mexanizmlar, uskunalar va jarayonlar xavfsiz va sog‘liq uchun xavf tug‘dirmasligini asoslanganva amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta‘minlashi kerak.

2. Ish beruvchilar tegishli himoya choralari ko‘rilganda, o‘z nazorati ostidagi kimyoviy, biologik va fizik moddalar va vositalar sog‘liq uchun xavf tug‘dirmasligini asoslanganva amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta‘minlashi kerak.

3. Ish beruvchilar zarur hollarda, baxtsiz hodisalar yoki sog‘liq uchun zararli ta‘sirlarning oldini olish uchun asoslangan va imkoni boricha tegishli himoya kiyimlari va vositalarini taqdim etishlari kerak.

17-modda

Ikki yoki undan ortiq korxonalar bir vaqtning o‘zida bir joyda faoliyat yuritadigan hollarda, ular ushbu Konvensiya qoidalarini qo‘llashda hamkorlik qiladilar.

18-modda

Ish beruvchilar, zarur hollarda, favqulodda vaziyatlar va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jumladan birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha tegishli choralar ko'rishlari kerak.

19-modda

Korxonada quyidagi choralar ko'riladi:

a) ishni bajarish jarayonida xodimlar ish beruvchining majburiyatlarini bajarishda u bilan hamkorlik qiladilar;

b) korxonadagi xodimlarning vakillik organlari ish beruvchi bilan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida hamkorlik qiladilar;

c) korxonadagi xodimlarning vakillari ish beruvchi tomonidan ularning xavfsizligi va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli ma'lumotga ega bo'ladilar va tijorat sirlarini oshkor qilmaslik sharti bilan bunday ma'lumotlar bo'yicha o'zlarining vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashishlari mumkin;

d) korxonada xodimlar va ularning vakillari mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida tegishli tayyorgarlikdan o'tadilar;

e) korxonadagi xodimlar yoki ularning vakillari yoxud ularning vakillik tashkilotlari milliy qonunchilik va amaliyotga muvofiq ularning mehnati bilan bog'liq mehnat xavfsizligi va sog'lig'ining barcha jihatlarini ko'rib chiqish xuquqiga ega hamda ish beruvchilar tomonidan ushbu jihatlar bo'yicha tavsiyalar beriladi, shu maqsadda o'zaro kelishuv asosida korxonaga mustaqil texnik maslahatchilar taklif qilinishi mumkin;

f) xodim zudlik bilan o'zining bevosita rahbarini hayoti yoki sog'lig'iga bevosita va jiddiy tahdid solayotganligiga taxmin qilish uchun yetarli asosga ega bo'lgan har qanday vaziyat haqida xabardor qiladi; ish beruvchi, agar kerak bo'lsa, uni bartaraf etish choralarini ko'rmagunga qadar, u xodimlarning hayoti yoki sog'lig'i uchun bevosita va jiddiy xavf mavjud bo'lgan yerda ishlarni davom ettirishni talab qila olmaydi.

20-modda

Korxonada ish beruvchilar va xodimlar va/yoki ularning vakillari o'rtasidagi hamkorlik ushbu Konvensiyaning 16–19-moddalari qoidalarini bajarish uchun qabul qilingan tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarning asosiy elementi hisoblanadi.

21-modda

Xodimlar mehnat xavfsizlik texnikasi va gigiyenasi bo'yicha choralar bilan bog'liq hech qanday xarajatlarni o'z zimmalariga olmaydilar.

V BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

22-modda

Ushbu Konvensiya mehnat bo'yicha biror bir mavjud bo'lgan xalqaro konvensiyalarni yoki tavsiyalarni qayta ko'rib chiqmaydi.

23-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

24-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

25-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjati orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi hamda u ushbu modda shartlariga binoan bu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

26-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

27-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olinishi uchun yuboradi.

28-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

29-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 25-moddaning qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

30-modda

Ushbu Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

BOLALAR MEHNATINING ENG YOMON SHAKLLARINI TAQIQLASH VA TUGATISH BO'YICHA SHOSHILINCH CHORALAR KO'RISH TO'G'RISIDAGI 182-SONLI KONVENSIYA

*1999-yil 17-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 87-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-apreldagi
O'RQ-144-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1999-yilning 1-iyunida o'zining 87-sessiyasiga *to'planib*,

milliy va xalqaro sa'y-harakatlarning, shu jumladan, xalqaro hamkorlik va xalqaro yordam uchun ustuvor vazifa sifatida bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatish uchun bolalar mehnati bo'yicha asosiy hujjat bo'lib qoladigan 1973-yilgi Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya va tavsiyani to'ldiradigan yangi hujjatlarni qabul qilishni zarur deb *hisoblab*,

bolalar mehnatining eng yomon shakllarini samarali tugatish bepul asosiy ta'limning ahamiyati va bolalarni shu turdagi har qanday ishlardan ozod etish zarurati, shuningdek ularning oilalari ehtiyojlarini hisobga olib, ularning rehabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyalashuvini e'tiborga olgan holda shoshilinch va har tomonlama harakatlarni talab qilishini *hisobga olib*,

1996-yilda Xalqaro mehnat konferensiyasining 83-sessiyasida qabul qilingan bolalar mehnatiga barham berish haqidagi rezolyutsiya to'g'risida *eslatib*,

bolalar mehnati ko'p jihatdan qashshoqlik oqibatida vujudga kelishini va bu masalaning uzoq muddatli yechimi ijtimoiy taraqqiyotga, xususan, qashshoqlikni tugatish va universal ta'limga olib boradigan barqaror iqtisodiy o'sishda ekanligini *e'tirof etib*,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani *eslatib*,

1998-yilda Xalqaro mehnat konferensiyasining 86-sessiyasida qabul qilingan XMTning Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar hamda uni amalga oshirish mexanizmi to'g'risidagi deklaratsiyasini *eslatib*,

bolalar mehnatining ayrim eng yomon shakllari boshqa xalqaro hujjatlar, xususan, 1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya hamda Birlashgan Millatlar

Tashkilotining 1956-yilgi Qullik va qul savdosi, qullikka o'xshash institut va urf-odatlariga barham berish to'g'risidagi qo'shimcha konvensiyasi bilan qamrab olinishini *eslatib*, sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan bolalar mehnati to'g'risida bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib, bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizinchi yil iyun oyining o'n yettinchi kunida quyida 1999-yilgi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiya deb nomlash mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan har bir a'zo-davlatlar zudlik bilan bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatishni shoshilinch tarzda ta'minlaydigan samarali choralar ko'radi.

2-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlari uchun "bola" atamasi 18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarga qo'llaniladi.

3-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlari uchun "bolalar mehnatining eng yomon shakllari" atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

a) qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyot, masalan, bolalarni sotish va ularning savdosi, qarz asosidagi qaramlik va krepostnoy tobelik, shuningdek zo'raki yoki majburiy mehnat, shu jumladan, bolalardan qurolli mojaralarda foydalanish uchun ularni zo'rlab yoki majburlab jalb qilish;

b) boladan fohishalik bilan shug'ullanish, pornografiya mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki pornografik tomoshalar uchun foydalanish, uni yollash yoki taklif qilish;

c) boladan qonunga xilof faoliyat bilan shug'ullanish, xususan, tegishli xalqaro shartnomalarda belgilanganidek, giyohvand moddalarni tayyorlash va sotish uchun foydalanish, uni yollash yoki taklif qilish;

d) bajarish xususiyatlari yoki sharoitiga ko'ra bolalarning sog'lig'i, xavfsizligi va axloqiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar.

4-modda

1. Milliy qonunchilik yoki vakolatli organ ish beruvchilar va ishchilarning manfaatdor tashkilotlari bilan maslahatlashgandan so'ng, tegishli xalqaro normalarni, xususan, 1999-yilgi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi tavsiyaning 3 va 4-bandlari qoidalarini e'tiborga olgan holda, 3-moddaning "d" kichik bandida ko'rsatilgan ish turlarini belgilaydi.

2. Vakolatli organi ish beruvchilar va ishchilarning manfaatdor tashkilotlari bilan maslahatlashgandan so'ng, shu tarzda belgilangan ish turlari amalga oshirilganligini aniqlaydi.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq belgilangan ish turlari ro'yxati muntazam tahlil qilib boriladi hamda zaruratga qarab, ish beruvchilar va ishchilarning manfaatdor tashkilotlari bilan maslahatlashgandan so'ng qayta ko'rib chiqiladi.

5-modda

Har bir a'zo-davlat ish beruvchilar va ishchilarning tashkilotlari bilan maslahatlashgandan so'ng, mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalarning qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun tegishli mexanizmlarni yaratadi yoki ko'rsatadi.

6-modda

1. Har bir a'zo-davlat ustuvor tartibda bolalar mehnatining eng yomon shakllarini tugatish bo'yicha harakat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

2. Bunday harakat dasturlari tegishli hukumat idoralari hamda ish beruvchilar va ishchilarning tashkilotlari bilan maslahatlashgandan so'ng, zarur hollarda, boshqa manfaatdor guruhlarining fikrlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

7-modda

1. Har bir a'zo-davlat mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalarning samarali qo'llanilishi va ularga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, shu jumladan, jinoiy yoki vaziyatdan kelib chiqib boshqa jazolarni joriy etish va qo'llash orqali barcha choralarni ko'radi.

2. Har bir a'zo-davlat, bolalar mehnatini tugatishda ta'limning muhimligini e'tiborga olgan holda, belgilangan muddatlarda quyidagilarga yo'naltirilgan choralarni ko'radi:

a) bolalarni bolalar mehnatining eng yomon shakllariga jalb etilishiga yo'l qo'ymaslik;

b) bolalarni bolalar mehnatining eng yomon shakllari bilan mashg'ul bo'lishini to'xtatish, shuningdek ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy integratsiyalash uchun zarur va talab darajasida bevosita ko'maklashish;

c) bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan ozod qilingan barcha bolalarga bepul umumiy ta'lim olishlari, shuningdek imkon darajasida va zaruratga qarab kasbiy-texnik tayyorgarlik imkoniyatini yaratilishi;

d) alohida xavfli ahvolda bo'lgan bolalarni aniqlash va qamrab olish;

e) qizlar ahvolining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

3. Har bir a'zo-davlat mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalarning qo'llanilishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organi tayinlaydi.

8-modda

A'zo-davlatlar mazkur Konvensiya qoidalarini hayotga tatbiq etishda mukammal xalqaro hamkorlik va/yoki yordam, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, qashshoqlikka qarshi kurashish bo'yicha dasturlar va universal ta'lim orqali bir-biriga yordam berish maqsadida zarur choralarni ko'radilar.

9-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olinishi uchun yuboriladi.

10-modda

1. Mazkur Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Tashkilot a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotni har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

11-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga ko'ra, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

12-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

13-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

15-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 11-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik

bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qoladi.

16-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

MEHNAT XAVFSIZLIGI VA GIGIYENASIGA KO'MAKLASHUVCHI ASOSLAR TO'G'RISIDAGI 187-SONLI KONVENSIYA

2006-yil 15-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 95-sessiyasida qabul qilingan

*O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-iyundagi
O'RQ-693-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 2006-yilning 31-mayida to'qson beshinchi sessiyasiga *to'planib*,

ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, kasb kasalliklari va ishlab chiqarishda odamlar o'limining qamrovi kengligini va ularni qisqartirish maqsadida kelgusida choralar ko'rish zarurligini *e'tirof etib*,

umumiy va kasbiy kasalliklar hamda ishlab chiqarishdagi shikastlanish holatlarida ishchilarni himoya qilish Xalqaro mehnat tashkilotining Ustavida nazarda tutilgan vazifalardan biri ekanligini *eslatib*,

ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, kasbiy kasalliklar va ishlab chiqarishda odamlar o'limi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish samaradorligi va jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini *e'tirof etib*,

Filadelfiya deklaratsiyasining III-bo'limi "g" bandiga muvofiq Xalqaro mehnat tashkiloti barcha kasb egalari hayoti va sog'lig'ining zarur darajada himoyasini ta'minlashga qaratilgan dasturlar dunyo mamlakatlari tomonidan qabul qilinishiga ko'maklashish majburiyatini rasman o'z zimmasiga olganini *ta'kidlab*,

XMTning 1998-yilgi Mehnat sohasida asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasi va uni amalga oshirish mexanizmi haqida *eslatib*,

Xalqaro mehnat tashkilotining 1981-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi konvensiya (155), 1981-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi tavsiyasi (164) hamda mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslarga taalluqli boshqa hujjatlarini *ta'kidlab*,

Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish Xalqaro mehnat tashkilotining Barcha uchun munosib mehnat dasturining bir qismi ekanligini *eslatib*,

Xalqaro mehnat konferensiyasining 91-sessiyasida (2003 y.) qabul qilingan global strategiya – XMTning mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida normativ hujjatlarni ishlab chiqish faoliyati to'g'risidagi xulosa, xususan, milliy dasturlarda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalariga ustuvor ahamiyat berilishini ta'minlash haqida *eslatib*,

mehnat xavfsizligi va gigenasi sohasida profilaktika milliy madaniyatini doimiy ravishda rivojlantirish muhimligini *ta'kidlab,*

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bilan bog'liq bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib,*

ushbu takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib,*

ikki ming oltinchi yil iyun oyining o'n beshinchi kunida quyida 2006-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslar to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. TA'RIFLAR

1-modda

Ushbu Konvensiyaga nisbatan:

a) "milliy siyosat" atamasi 1981-yilgi Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi konvensiyaning (155) 4-moddasida belgilangan tamoyillarga muvofiq ishlab chiqilgan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti sohasidagi milliy siyosatni anglatadi;

b) "mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy tizimi" yoki "milliy tizim" atamasi mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi milliy siyosat va milliy dasturlarni amalga oshirish uchun asosiy doirasini nazarda tutadigan infratuzilmani anglatadi;

c) "mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha milliy dasturi" yoki "milliy dastur" atamasi belgilangan muddatlarda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar, mehnat xavfsizligi va gigiyenasini takomillashtirish maqsadida shakllantirilgan ustuvorliklar va harakatlar vositalaridan, shuningdek erishilgan natijalarni baholash vositalaridan iborat bo'lgan har qanday milliy dasturni anglatadi;

d) "mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida profilaktika milliy madaniyati" atamasi belgilangan huquqlar, mas'uliyat va majburiyatlar tizimi orqali xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhitini ta'minlashda hukumatlar, ish beruvchilar va ishchilar faol ishtirok etganda va profilaktika tamoyillariga eng yuqori ustuvorlik berilganda barcha darajalarda xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhiti huquqiga rioya etiladigan madaniyat tushuniladi.

II BO'LIM. MAQSAD

2-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan har bir a'zo-davlat ish beruvchilar va ishchilarning eng vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar asosida milliy siyosat, milliy tizim va milliy dastur ishlab chiqish orqali ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, kasb kasalliklari va ishlab chiqarishda odamlar o'limning oldini olish maqsadida mehnat xavfsizligi va gigiyenasini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

2. Har bir a'zo-davlat Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida belgilangan, mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslar bilan bog'liq tamoyillarni e'tiborga olgan holda, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi milliy tizimlar va milliy dasturlar orqali xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhitini bosqichma-bosqich yaratish bo'yicha izchil choralarni ko'radi.

3. Har bir a'zo-davlat ish beruvchilar va ishchilarning eng vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar asosida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha XMTning tegishli konvensiyalarini ratifikatsiya qilish maqsadida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqadi.

III BO'LIM. MILLIY SIYOSAT

3-modda

1. Har bir a'zo-davlat milliy siyosatni ishlab chiqish yo'li bilan xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhitini yaratishga ko'maklashadi.

2. Har bir a'zo-davlat barcha tegishli darajalarda ishchilarning xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhitiga bo'lgan huquqini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi va intiladi.

3. O'z milliy siyosatini ishlab chiqishda har bir a'zo-davlat o'zining milliy shart-sharoitlari va amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, ish beruvchilar va ishchilarning eng vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar asosida kasbiy xavf yoki tahlikalarni baholash; kasbiy xavf yoki tahlikalarning yuzaga kelishi bilan kurashish; axborotlar, tavsiyalar va tayyorgarlikni o'z ichiga olgan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi milliy profilaktika madaniyatini rivojlantirish kabi asosiy prinsiplarga ko'maklashadi.

IV BO'LIM. MILLIY TIZIM

4-modda

1. Har bir a'zo-davlat ish beruvchilar va ishchilarning eng vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar asosida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy tizimini yaratadi, qo'llab-quvvatlaydi, bosqichma-bosqich rivojlantiradi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqadi.

2. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy tizimi boshqa jihatlar bilan bir qatorda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar, jamoa shartnomalari, tegishli hollarda, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha tegishli boshqa har qanday hujjatlar;

b) milliy qonun hujjatlari va amaliyotga muvofiq tashkil etilgan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha mas'ul bo'lgan organ yoki idora yoxud organlar yoki idoralar;

c) milliy qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinishini ta'minlash mexanizmlari, shu jumladan inspeksiya tizimlari;

d) ishlab chiqarishda profilaktika choralarining asosiy elementi sifatida korxonalar darajasida uning rahbariyati, xodimlar va ularning vakillari o'rtasida hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

3. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy tizimi tegishli hollarda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bilan shug'ullanadigan milliy uch tomonlama maslahat organi yoki organlari;

b) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha axborot va maslahat xizmatlari;

- c) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik;
- d) milliy qonun hujjatlari va amaliyotga muvofiq mehnat gigiyenasi xizmatlari;
- e) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari;
- f) XMTning tegishli hujjatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va kasbiy kasalliklar holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga imkon beradigan mexanizm;
- g) ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va kasbiy kasalliklar holatlarini qamrab oladigan sug'urtalash yoki ijtimoiy ta'minotga doir tegishli tizimlar bilan hamkorlik qilishni nazarda tutuvchi qoidalar;
- h) mikrokorxonalarda, shuningdek, kichik va o'rta korxonalarda va norasmiy iqtisodiyotda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida sharoitlarni bosqichma-bosqich yaxshilashga qaratilgan yordamchi mexanizmlar.

V BO'LIM. MILLIY DASTUR

5-modda

1. Har bir a'zo-davlat ish beruvchilar va ishchilarning eng vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish yo'li bilan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy dasturini ishlab chiqadi, amalga oshiradi, amalga oshirilishini kuzatadi, baholaydi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqadi.

2. Milliy dastur:

a) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida profilaktika milliy madaniyatining rivojlanishiga ko'maklashadi;

b) ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar, kasbiy kasalliklar va ishlab chiqarishda odamlar o'limining oldini olish hamda ish joyida mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish maqsadida milliy qonun hujjatlari va amaliyotga muvofiq ishlab chiqarishdagi xavf-xatarlarni amaliy jihatdan imkon qadar bartaraf etish yoki kamaytirish orqali ishchilarni himoya qilishga hissa qo'shadi;

c) mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi milliy vaziyatni, shu jumladan mehnat xavfsizligi va gigiyenasi milliy tizimini tahlil qilish asosida ishlab chiqiladi va qayta ko'rib chiqiladi;

d) vazifalar, maqsadlar va unumdorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi;

e) xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhitini bosqichma-bosqich ta'minlashga ko'maklashadigan boshqa qo'shimcha milliy dasturlar va rejalar bilan imkon qadar mustahkamlanadi.

3. Milliy dastur keng miqyosda e'lon qilinadi va iloji boricha davlat hokimiyatining yuqori turuvchi organlari tomonidan tasdiqlanadi va amalga tatbiq etiladi.

VI BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

6-modda

Ushbu Konvensiya boshqa hech qanday xalqaro mehnat konvensiyasi va tavsiyasini qayta ko'rib chiqmaydi.

7-modda

Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Mazkur Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Tashkilot a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotni har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga ko'ra, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 9-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qoladi.

13-modda

Ushbu Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

IKKINCHI BO'LIM. USTUVOR KONVENSIYALAR

SANOAT VA SAVDODA MEHNAT INSPEKSIYASI TO'G'RISIDAGI 81-SONLI KONVENSIYA

*1947-yil 11-iyul, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 30-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 27-avgustdagi
O'RQ-556-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1947-yilning 19-iyunida o'zining o'ttizinchi sessiyasiga *to'planib*,
sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan Sanoat va savdoda mehnat
inspeksiyasi to'g'risida bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz qirq yettinchi yil iyul oyining o'n birinchi kunida quyidagi
1947-yilgi Mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan
Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. SANOATDA MEHNAT INSPEKSIYASI

1-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi, ushbu Konvensiya unga nisbatan kuchga
kirgan bo'lsa, sanoat ish joylarida mehnat inspeksiyasi tizimiga ega bo'lish majburiyatini
o'z zimmasiga oladi.

2-modda

1. Sanoat korxonalaridagi mehnat inspeksiyasi tizimi mehnat inspektorlari
tomonidan ishchilarni mehnat sharoitlari va ish jarayonida muhofaza qilish bilan bog'liq
qonun hujjatlari qoidalari qo'llanilishini ta'minlanishi shart bo'lgan barcha korxonalarga
nisbatan joriy etiladi.

2. Milliy qonun hujjatlari tog'-kon sanoati va transport korxonalarini yoki mazkur
korxonalarining bir qismini ushbu Konvensiya qo'llanilishidan chetlatishi mumkin.

3-modda

1. Mehnat inspeksiyasi tizimi vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) mehnat sharoitlariga va ish jarayonida mehnatkashlar xavfsizligini ta'minlashga doir qonun-qoidalar, ya'ni ish vaqti, ish haqi, mehnat xavfsizligi, sog'liqni saqlash, farovonlikni ta'minlash, bolalar va o'smirlarni ishga yollash hamda boshqa shu kabi masalalar sohasiga doir qonun-qoidalar, qanchalik mehnat inspektorlari tomonidan qo'llanilishi ta'minlansa, shu darajada bu qonun-qoidalarining tatbiq qilinishini muhofaza qilish;

b) ish beruvchilar va mehnatkashlarni qonun-qoidalariga rioya etishning eng samarali vositalari to'g'risidagi texnik axborot va tavsiyalar bilan ta'minlash;

c) vakolatli hokimiyat organi e'tiboriga mavjud qonun-qoidalar qamrovi doirasiga alohida kirmaydigan kamchiliklar va huquqbuzarliklar hollarini yetkazish.

2. Agar mehnat inspektorlariga boshqa vazifa topshirilsa, bu ularning asosiy vazifalarini amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi kerak yoki inspektorlar obro'yi va ularning ish beruvchilar va mehnatkashlar bilan munosabatlarida talab etiladigan xolisligiga ta'sir qilmasligi kerak.

4-modda

1. Mehnat inspeksiyasi Tashkilot a'zosining ma'muriy amaliyotiga to'g'ri keladigan darajada markaziy hokimiyat organining kuzatuvi va nazorati ostida bo'ladi.

2. Federativ davlat bo'lgan hollarda "markaziy organi" iborasi federatsiyaning markaziy organini yoki federatsiyaning tarkibiy qismlaridan birining markaziy organini anglatishi mumkin.

5-modda

Vakolatli hokimiyat organi quyidagilarga ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'radi:

a) bir tomondan, inspeksiya xizmatlari, ikkinchi tomondan boshqa hukumat xizmatlari, shuningdek mazkur turdagi faoliyatni amalga oshirayotgan davlat va xususiy muassasalar o'rtasida samarali hamkorlikka;

b) mehnat inspeksiyasi xizmatchilari hamda ish beruvchilar va mehnatkashlar yoki ularning tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikka.

6-modda

Inspeksiya shtati davlat xizmatchilaridan, ya'ni maqomi va xizmat sharoiti lavozimini barqaror egallab turishga kafolat beradigan hamda hukumatdagi har qanday o'zgarishlar ta'siridan yoki har qanday tashqi ta'sirdan holi bo'lishni talab etadigan davlat xizmatchilaridan iborat bo'ladi.

7-modda

1. Davlat xizmatchilarini ishga jalb qilish sohasidagi shartlarga rioya etgan holda, xususan, shu sohada milliy qonun hujjatlari tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan shartlarga rioya etgan holda, mehnat inspektorlari lavozimiga mazkur lavozim vazifasini bajarish uchun talab etiladigan yetarli malakaga ega bo'lgan nomzodlar jalb qilinadi.

2. Mazkur malakani tekshirish uslublari vakolatli hokimiyat organi tomonidan belgilanadi.

3. Mehnat inspektorlari o'z vazifalarini amalga oshirish uchun tegishli tayyorgarlikdan o'tadilar.

8-modda

Inspeksiya xodimlari tarkibiga erkaklar ham, xotin-qizlar ham tayinlanishi mumkin; zarur hollarda erkak va ayol inspektorlar zimmasiga tegishli ravishda alohida vazifalar yuklatilishi mumkin.

9-modda

Tashkilotning har bir a'zosi, mehnatkashlarning ish jarayonida sog'lig'ini saqlashga va xavfsizligiga oid qonun-qoidalar hayotga tatbiq qilinishini ta'minlash maqsadida hamda mehnatkashlar salomatligi va xavfsizligiga ishlash uslublari, uskunalari va jarayonlarining ta'sirini aniqlash maqsadida, inspeksiya ishiga tegishli malakali ekspertlar va mutaxassislar, shu jumladan, tibbiyot, mexanika, elektr va kimyo bo'yicha mutaxassislar, milliy sharoitga eng maqbul deb e'tirof etiladigan tarzda jalb etilishini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'radi.

10-modda

Mehnat inspektorlari soni inspeksiya xizmatining vazifalari samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi kerak va ular soni quyidagilarni hisobga olgan holda belgilanishi kerak:

- a) inspektorlar bajarishi zarur bo'lgan vazifalar muhimligini, xususan:
 - inspeksiya nazorati ostidagi ish joylari soni, ularning xususiyati, ko'lami va joylashishini;
 - ushbu ish joylarida band bo'lgan mehnatkashlar soni va toifalarini;
 - hayotga tatbiq qilinishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar miqdori va murakkabligini;
- b) inspektorlar ixtiyoriga berilgan moddiy vositalarni;
- c) inspeksiya tashriflari amalga oshirilishi samarali bo'lishi uchun maqsadga muvofiq bo'lgan amaliy sharoitni.

11-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi mehnat inspektorlari tasarrufida quyidagilar bo'lishi uchun zarur choralarni ko'radi:

- a) inspeksiya xizmati ehtiyojlariga mos ravishda jihozlangan va barcha tegishli shaxslar uchun ochiq bo'lgan mahalliy byuro;
- b) kerakli jamoat transport vositalari yo'q bo'lgan hollarda ularning o'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan transport vositalari.

2. Vakolatli hokimiyat organi mehnat inspektorlari o'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun ularga zarur bo'lgan har qanday safar va qo'shimcha xarajatlarini qoplash maqsadida zarur choralarni ko'radi.

12-modda

1. Mehnat inspektorlari o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat bilan ta'minlangan holda quyidagi huquqlarga ega:

- a) inspeksiya nazorati bilan qamrab olingan har qanday ish joyiga oldindan ogohlantirmasdan va xohlagan vaqtda hech bir to'siqsiz kirish;

b) ular tomonidan barcha binolarga, ya'ni inspeksiya qilish uchun yetarli asos bor deb hisoblangan barcha binolarga kunduzgi vaqtda kirish;

c) qonun-qoidalarga to'g'ri rioya etilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun ular zarur deb hisoblaydigan har qanday tekshirish va surishtirishlar o'tkazish, xususan:

i) yakkama-yakka yoki guvohlar ishtirokida ish beruvchilar yoki korxonalar xodimiga qonun-qoidalar qo'llanilishiga doir har qanday savol berish;

ii) mehnat sharoitlariga oid milliy qonun hujjatlarida saqlanishi ko'zda tutilgan har qanday kitoblar, ro'yxatlar yoki hujjatlar yordamida ularning qonun-qoidalarga muvofiq ekanligini ko'rish va ulardan nusxa olish yoki ayrim joylarini ko'chirish maqsadida ish olib borilishini talab qilish;

iii) qonun-qoidalarda talab qilinganidek e'lonlar osilishini talab qilish;

iv) ish beruvchini yoki uning vakilini tekshirish maqsadlari haqida ogoh qilgan holda, foydalanilayotgan yoki ishlov berilayotgan materiallar va moddalar namunalari tekshirish uchun olish.

2. Tekshiruv tashrifi hollarida inspektorlar, agar faqat u bunday xabar nazorat samaradorligiga zarar etkazishi mumkin deb hisoblamasa, ish beruvchi yoki uning vakilini bu tashrif haqida xabardor qiladilar.

13-modda

1. Mehnat inspektorlariga inshoot, uskuna yoki ishlash usullarida aniqlangan va mehnatkashlar sog'lig'i yoki xavfsizligiga xavf soluvchi deb hisoblanishiga yetarli asos tug'diruvchi nuqsonlarni to'g'rilash maqsadida chora ko'rish uchun vakolat beriladi.

2. Mehnat inspektorlari shunday choralar ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun qonunda ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan sud yoki ma'muriy hokimiyat organlariga shikoyat qilish huquqiga rioya etilgan holda, ularga quyidagilar bo'yicha farmoyishlar chiqarish yoki chiqarilishini talab qilish vakolati beriladi:

a) muayyan vaqt chegarasida qurilma yoki inshootga mehnatkashlar sog'lig'i yoki xavfsizligini muhofaza qilish sohasidagi qonun-qoidalarga mos bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zgartirish kiritish bo'yicha;

b) mehnatkashlar sog'ligi yoki xavfsizligiga bevosita xavf tug'ilgan holatda darhol ijro etilishi shart bo'lgan choralar bo'yicha.

3. Agar 2-bandda belgilangan tartib Tashkilot a'zosining ma'muriy va sud amaliyotiga muvofiq kelmasa, inspektorlar vakolatli hokimiyat organiga darhol ijro etilishi shart bo'lgan farmoyishlar chiqarilishi yoki choralar ko'rilishi uchun murojaat qilish huquqiga ega bo'ladilar.

14-modda

Mehnat inspeksiyasiga milliy qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan holda va tartibda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risidagi axborotlar yuboriladi.

15-modda

Milliy qonun hujjatlarida nazarda tutilishi mumkin bo'lgan istisnolarga rioya etilgan holda mehnat inspektorlariga:

a) o'z nazoratida bo'lgan korxonalardan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lish man etiladi;

b) tegishli jazoga tortilishi yoki ma'muriy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilgan holda, o'z vazifalarini bajarish paytida tanishishlari mumkin bo'lgan ishlab chiqarish yoki tijorat sirlarini, yoki ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni, hatto lavozimidan ketgandan so'ng ham, oshkor qilmaslik majburiyati yuklatiladi;

c) kamchiliklar yoki qonun-qoidalar buzilishi yuzasidan har qanday shikoyat manbasini mutlaqo sir tutish majburiyati hamda ish beruvchi yoki uning vakiliga inspeksiya tashrifi ana shunday shikoyat kelib tushishi munosabati bilan o'tkazilganligi to'g'risida aslo xabar bermaslik majburiyati yuklatiladi.

16-modda

Ish joylari tegishli qonun-qoidalarining samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajada tez-tez va sinchkovlik bilan tekshiriladi.

17-modda

1. Qo'llanilishi mehnat inspektorlari tomonidan ta'minlanadigan qonun-qoidalarini buzayotgan yoki ularga rioya etishdan bosh tortayotgan shaxslar oldindan ogohlantirilmasdan darhol sud ta'qibiga olinadi. Lekin milliy qonun hujjatlarida sud himoyasini yoki profilaktika choralarini amalga oshirish uchun oldindan ogohlantiruvchi hollarga nisbatan istisnolar nazarda tutilishi mumkin.

2. Mehnat inspektorlari sud ta'qibini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni tavsiya qilish o'rniga ogohlantirish yoki maslahat berish kerakligi to'g'risidagi masalani o'zlari hal qilish huquqiga ega.

18-modda

Milliy qonun hujjatlarida mehnat qo'llanilishi inspektorlari tomonidan nazorat qilinishi kerak bo'lgan qonunchilik qoidalarini buzganlik uchun hamda mehnat inspektorlariga o'z vazifalarini amalga oshirishda qarshilik ko'rsatganlik uchun tegishli jazo choralari nazarda tutilgan va samarali qo'llaniladi.

19-modda

1. Mehnat inspektorlari yoki mahalliy inspeksiya byurolari inspeksiya xizmatining markaziy organiga o'z faoliyati natijalari to'g'risidagi umumiy tUSDagi davriy ma'ruzalarni taqdim etadilar.

2. Ushbu ma'ruzalar markaziy organing ko'rsatmasiga muvofiq tuziladi va vaqti-vaqti bilan mazkur organ tomonidan ko'rsatiladigan masalalarni qamrab oladi; ular hech bo'lmaganda markaziy organ talab qilganidek tez-tez, lekin har qanday holatda ham yiliga kamida bir marta taqdim etiladi.

20-modda

1. Markaziy inspeksiya organi o'z nazorati ostidagi inspeksiya xizmatlari faoliyati to'g'risida umumiy xususiyatdagi har yilgi ma'ruzalarini e'lon qilib boradi.

2. Ushbu ma'ruzalar ular taalluqli bo'lgan yildan keyin hech bir holatda o'n ikki oydan oshmaydigan maqbul muddatda chop etiladi.

3. Har yilgi ma'ruzalarning nusxalari chop etilganidan so'ng maqbul muddatda va har qanday holatda uch oydan kechiktirmay Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

21-modda

Markaziy inspeksiya organi tomonidan chop etiladigan har yilgi ma'ruzalarda mazkur organ nazorati doirasi chegarasida quyidagi va boshqa muhim masalalar to'g'risidagi ma'lumotlar qamrab olinadi:

- a) inspeksiya xizmati faoliyatiga doir qonun hujjatlari;
- b) mehnat inspeksiyasi xizmatidagi mehnatkashlar shtati;
- c) inspeksiya nazorati bilan qamrab olingan ish joylari to'g'risida va ushbu ish joylarida yollangan mehnatkashlar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- d) inspeksiya tashriflari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- e) sodir etilgan huquqbuzarliklar va qo'llanilgan jazo choralari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- f) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- g) kasb kasalliklari bilan og'rish to'g'risidagi statistik ma'lumotlar.

II BO'LIM. SAVDODA MEHNAT INSPEKSIYASI

22-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi, ushbu Konvensiyaning mazkur bo'limi unga nisbatan kuchga kirgan bo'lsa, savdo bilan bog'liq ish joylarida mehnat inspeksiyasi tizimiga ega bo'lish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

23-modda

Savdo bilan bog'liq ish joylaridagi mehnat inspeksiyasi tizimi qo'llanilishi mehnat inspektorlari tomonidan ta'minlanadigan mehnat sharoitlariga doir va ish jarayonida mehnatkashlarni muhofaza qilishga doir qonun-qoidalar qo'llaniladigan ish joylarini qamrab oladi.

24-modda

Savdo bilan bog'liq joylardagi mehnat inspeksiyasi tizimi, ushbu Konvensiyaning 3–21-moddalari talablariga, ular qo'llanilishi mumkin bo'lgan darajada mos bo'lishi kerak.

III BO'LIM. TURLI QOIDALAR

25-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatiga ilova qilingan bayonoti orqali II bo'limni mazkur Konvensiyaning qabul qilishidan chiqarib tashlashi mumkin.

2. Tashkilotning har qanday a'zosi, shunga o'xshash bayonot qilgan bo'lsa, istalgan paytida navbatdagi bayonoti orqali uni bekor qilishi mumkin.

3. Tashkilotning har bir a'zosi, unga nisbatan ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq tayyorlangan bayonoti kuchda bo'lsa, har yili, mazkur Konvensiyaning qo'llanishi to'g'risidagi o'zining har yilgi ma'ruzalarida ushbu Konvensiyaning II bo'limi qoidalariga nisbatan o'z qonun hujjatlari va amaliyotining holatini hamda bu qoidalar qay darajada qo'llanilayotgani yoki ularni qo'llash ko'zda tutilayotganini ko'rsatadi.

26-modda

Ushbu Konvensiya qaysidir korxonada, korxonada bo'limi yoki xizmati yoxud ish joyiga nisbatan qo'llanilishi bo'yicha shubha tug'ilyotgan har qanday holda, mazkur masala vakolatli hokimiyat organi tomonidan hal qilinadi.

27-modda

Mazkur Konvensiyada "qonun-qoidalar" atamasi qonun hujjatlaridan tashqari qonun kuchiga ega, qo'llanilishi mehnat inspektorlari tomonidan ta'minlanishi kerak bo'lgan arbitraj sud qarorlari va jamoa shartnomalarini ham o'z ichiga oladi.

28-modda

Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasi qoidalariga muvofiq taqdim etiladigan har yilgi ma'ruzalarga ushbu Konvensiyaning qoidalarini hayotga tatbiq qiluvchi qonun hujjatlari to'g'risida to'la ma'lumotlar kiritiladi.

29-modda

1. Agar Tashkilot a'zosi hududida aholining tarqoq joylashganligi yoki hududning rivojlanish darajasi tufayli yirik hududlar mavjud bo'lsa, vakolatli hokimiyat organi mazkur hududlarda ushbu Konvensiya qoidalarini amalda qo'llashning imkoni yo'q deb hisoblasa, mazkur hokimiyat organi bunday hududlarni Konvensiya qo'llanilishi doirasidan to'liq yoxud ba'zi tashkilotlar yoki o'zi maqsadga muvofiq deb hisoblagan ayrim kasblarga nisbatan istisnolar bilan chiqarib tashlashi mumkin.

2. Tashkilotning har bir a'zosi, Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga binoan taqdim etiladigan, ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi o'zining birinchi yillik ma'ruzasida mazkur moddaning qoidalaridan foydalanmoqchi bo'lgan barcha hududlar to'g'risida, shuningdek u bu qoidalardan foydalanishni mo'ljallagani sabablarini ko'rsatadi. Tashkilotning hech bir a'zosi o'zining birinchi yillik ma'ruzasini taqdim etganidan so'ng, mazkur modda qoidalaridan shu ma'ruzada ko'rsatilgan hududlarga nisbatan foydalanishdan tashqari boshqalarda foydalana olmaydi.

3. Ushbu modda qoidalaridan foydalanadigan Tashkilotning har bir a'zosi o'zining keyingi yillik ma'ruzalarida belgilangan modda qoidalaridan foydalanish huquqidan voz kechadigan hududlarni ko'rsatadi.

30-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi 1946-yildagi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustaviga O'zgartirish kiritish to'g'risidagi aktiga muvofiq o'zgartirish kiritilgan Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasida keltirilgan hududlarga nisbatan mazkur moddaning 4 va 5-bandlarida qayd etilgan hududlarni istisno qilgan holda, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ratifikatsiyadan keyin imkon qadar qisqa muddatda quyidagilarni ko'rsatib bayonot yuboradi:

a) manfaatdor A'zo Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlarsiz qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

b) manfaatdor A'zo hududlarga Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlar bilan qo'llash majburiyatini olgan hududlar va bu o'zgartirishlarning tafsiloti;

c) Konvensiya qo'llanilmaydigan hududlar va bunday hollarda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) u o'z qarorini saqlab qoladigan hududlar.

2. Ushbu moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi va ratifikatsiya kuchiga ega.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi navbatdagi deklaratsiya orqali ushbu moddaning 1-bandi "b", "c" yoki "d" kichik bandlari asosida avvalgi deklaratsiyada aytib o'tilgan har qanday shartlardan yoki ularning bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davr mobaynida, 34-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga istalgan avvalgi deklaratsiyaning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda belgilangan hududlaridagi hozirgi ahvolni ifoda etuvchi navbatdagi deklaratsiyani yuborishi mumkin.

31-modda

1. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan masalalar har qanday metropoliyadan tashqaridagi avtonom hokimiyatlarga tegishli bo'lganda, shunday hududning xalqaro munosabatlari uchun javobgar bo'lgan Tashkilot a'zosi, shu hududning hukumati bilan kelishib, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga shu hudud nomidan mazkur Konvensiya majburiyatlarini qabul qilish to'g'risidagi bayonotni yuborishi mumkin.

2. Ushbu Konvensiya bo'yicha majburiyatlarni qabul qilish to'g'risidagi bayonot Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuborilishi mumkin:

a) tashkilotning ikki yoki undan ko'p a'zosi tomonidan ularning birgalikdagi boshqaruvi ostida bo'lgan har qanday hududlar bo'yicha; yoki

b) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga muvofiq har qanday hududni boshqarishga yoki boshqa shunga o'xshash hududni boshqarishga javobgar bo'lgan har qanday xalqaro darajadagi mas'ul tomonidan.

3. Ushbu moddaning aytib o'tilgan bandlariga muvofiq, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan bayonotlarda Konvensiya qoidalari tegishli hududga nisbatan o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishlarsiz qo'llanilishi ko'rsatiladi; agar bayonotda Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilsa, u holda o'zgartirishlarning tafsiloti ham beriladi.

4. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul istalgan paytda keyingi bayonoti orqali tegishli huquqidan foydalanib, har qanday avvalgi bayonotida ko'zda tutilgan har qaysi o'zgartirishlardan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

5. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan muddat mobaynida, 34-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga har qanday avvalgi bayonotning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda ushbu Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan hozirgi ahvolni ifoda etuvchi bayonotni yuborishi mumkin.

IV BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

32-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

33-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Tashkilot a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotni har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

34-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga ko'ra, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

35-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

36-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

37-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

38-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi qonunga muvofiq 34-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

39-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

ISH BILAN TA'MINLASH SOHASIDAGI SIYOSAT TO'G'RISIDAGI 122-SONLI KONVENSIYA

1964-yil 9-iyul, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 48-sessiyasida qabul qilingan

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
86-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1964-yilning 17-iyunida o'zining qirq sakkizinchi sessiyasiga *to'planib*,

Filadelfiya deklaratsiyasi, jahon mamlakatlari tomonidan to'la ish bilan ta'minlanishga erishishni va turmush darajasini oshirishni ko'zlagan dasturlarni qo'llab-quvvatlanishi maqsadida, Xalqaro mehnat tashkilotining muhim majburiyatini tan olishini, shuningdek Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavi Muqaddimasida ko'zda tutilgan ishsizlik bartaraf etilishi va qoniqarli turmush sharoitini qoplaydigan ish haqi ta'minlanilishini tan olishini *e'tiborga olib*,

Filadelfiya deklaratsiyasi qoidalariga muvofiq iqtisodiy va moliyaviy siyosatning ish bilan ta'minlash sohadagi siyosatta ta'sirini, quyidagi fundamental maqsad – “barcha insonlar irqi, e'tiqodi yoki jinsidan qat'i nazar, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyat, erkinlik va qadr-qimmatlari ta'minlangan sharoitda o'z moddiy farovonligiga va ma'naviy rivojiga erishish huquqiga ega” – jabhasida o'rganish va ko'rib chiqish Xalqaro mehnat tashkiloti vazifasiga kirishini *e'tiborga olib*,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega” ekanligini *e'tiborga olib*,

ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosatga bevosita aloqador bo'lgan xalqaro mehnat konvensiyalarini va tavsiyalarini, xususan, 1948-yilgi Ish bilan ta'minlash xizmati to'g'risidagi konvensiya va tavsiya; 1949-yilgi Kasbga yo'naltirish to'g'risidagi tavsiya; 1962-yilgi Kasbiy ta'lim to'g'risidagi tavsiya hamda 1958-yilgi Mehnat va mashg'ulot sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya va tavsiya shartlarini *hisobga olib*,

ushbu hujjatlar, to'la, samarali va erkin tanlangan ish asosidagi iqtisodiy rivojlanishga mo'ljallangan xalqaro dasturlarning keng doirasiga kiritilishi kerakligini *e'tiborga olib*,

sessiya kun tartibining sakkizinchi bandi hisoblangan ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosatga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz oltmish to'rtinchi yil iyul oyining to'qqizinchi kunida quyidagi 1964-yilgi Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

1. Tashkilotning har bir a'zosi, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish, turmush darajasini oshirish, ish kuchi ehtiyojini qondirishni hamda ishsizlik va kerakli darajada ish bilan ta'minlanmaslik muammolarini hal etish maqsadida to'la, samarali va erkin tanlangan ish bilan ta'minlanishga qaratilgan faol siyosatni asosiy vazifa sifatida e'lon qiladi va amalga oshiradi.

2. Bu siyosat quyidagilarni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi:

a) ishga yaroqli va ish izlayotganlarning barchasi uchun ish bo'lishini;

b) bunday ish imkon qadar samarali bo'lishini;

c) ish tanlash erkinligini va har bir mehnatkash, irqi, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, milliy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, o'ziga mos ishni olishi uchun va unda o'zining mahorati va qobiliyatini ishlatishi uchun imkonini.

3. Ushbu siyosat, iqtisodiy rivojlanishning bosqichi va darajasini, bandlik sohasidagi maqsadlar bilan boshqa iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tegishlicha hisobga oladi hamda milliy sharoit va amaliyotga mos keladigan usullar orqali amalga oshiriladi.

2-modda

Tashkilotning har bir a'zosi milliy sharoitga mos keladigan shunday usullar va choralar yordamida:

a) 1-moddada ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun ko'rilishi kerak bo'lgan choralarni muvofiqlashtirilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat doirasida belgilaydi hamda o'z nazoratida ushlab turadi;

b) ushbu choralarni qo'llash uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi, shu jumladan, maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda dasturlar ishlab chiqadi.

3-modda

Mazkur Konvensiyani qo'llashda qabul qilinadigan choralarga jalb qilinadigan vakillar, xususan, ish beruvchilar va mehnatkashlarning vakillari ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat bo'yicha, ularning tajribasi va fikrini to'liq hisobga olish hamda ushbu siyosatni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda ular to'la hamkorlik qilishining himoyasini tashkil qilish maqsadida maslahatlashuvga jalb qilinadi.

4-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

6-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

7-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

8-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

9-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

10-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 22-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

11-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT INSPEKSIYASI TO'G'RISIDAGI 129-SONLI KONVENSIYA

*1969-yil 25-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 53-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 27-avgustdagi
O'RQ-555-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1969-yilning 4-iyunida o'zining ellik uchinchi sessiyasiga *to'planib*,

Mehnat inspeksiyasi sohasidagi mavjud xalqaro mehnat konvensiyalari qoidalarini, xususan, sanoat va savdoda qo'llaniladigan Mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi 1947-yilgi Konvensiya hamda qishloq xo'jalik korxonalarining cheklangan toifalarini qamrab oladigan Ekinzorlar to'g'risidagi 1958-yilgi Konvensiya qoidalarini *e'tiborga olib*,

qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasini ko'zda tutuvchi xalqaro standartlar bo'lishi maqsadga muvofiqligini *hisobga olib*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasiga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz oltmish to'qqizinchi yil iyun oyining yigirma beshinchi kunida quyidagi 1969-yilgi Qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

1. Mazkur Konvensiyada "qishloq xo'jalik korxonasi" atamasi yerga ishlov berish, chorvachilik, shu jumladan, mol boqish va parvarish qilish, o'rmon xo'jaligi, bog'dorchilikni, dehqonlarning o'zlari tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash yoki qishloq xo'jalik faoliyatining boshqa har qanday turlari bilan shug'ullanadigan korxonalarni yoki korxonalar bo'limlarini anglatadi.

2. Zarur bo'lgan hollarda, vakolatli hokimiyat organi tegishli ish beruvchilar va mehnatkashlarning eng vakolatli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashuvdan so'ng, birorta ham qishloq xo'jalik korxonasi milliy mehnat inspeksiyasi tizimi qamrovidan chetlatilishiga yo'l qo'yilmasdan, qishloq xo'jaligini sanoat va savdodan ajratuvchi chegarani belgilaydi.

3. Ushbu Konvensiya qaysidir bir korxonaga yoki korxonaga bir qismiga qo'llanilishi bo'yicha shubha tug'ilyotgan har qanday holda, mazkur masala vakolatli hokimiyat organi tomonidan hal qilinadi.

2-modda

Mazkur Konvensiyada “qonun-qoidalar” atamasi qonun hujjatlaridan tashqari qonun kuchiga ega, qo‘llanilishi mehnat inspektorlari tomonidan ta‘minlanishi kerak bo‘lgan arbitraj sud qarorlari va jamoa shartnomalarini ham o‘z ichiga oladi.

3-modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan Tashkilotning har bir a‘zosi, qishloq xo‘jaligida mehnat inspeksiyasi tizimiga ega bo‘lish majburiyatini oladi.

4-modda

Qishloq xo‘jaligidagi mehnat inspeksiyasi tizimi, mehnatkashlarni yollaydigan yoki shogirdlik usulida jalb qiladigan qishloq xo‘jalik korxonalariga nisbatan, ularning mehnatkashlariga haq to‘lanishi, shartnoma turi, shakli va davomiyligi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, qo‘llaniladi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a‘zosi o‘zining ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi hujjatiga ilova qilinadigan deklaratsiyada o‘z zimmasiga qishloq xo‘jaligidagi mehnat inspeksiyasi tizimini qishloq xo‘jaligi korxonalarida mehnat qilayotgan shaxslarning quyidagi bir yoki bir necha toifalarga nisbatan ham qo‘llash majburiyatini olishi mumkin:

a) yollanma mehnatdan foydalanmaydigan ijarachilar, paychilar va shu kabi toifalardagi qishloq xo‘jalik mehnatkashlariga;

b) jamoa xo‘jaligida ishtirok etuvchi shaxslar, masalan, kooperativ a‘zolariga;

c) milliy qonun hujjatlarida belgilangani kabi qishloq xo‘jaligi korxonasi rahbari oilasining a‘zolariga.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a‘zosi keyinchalik, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga avvalgi bayonotiga muvofiq hali qamrab olinmagan, ushbu moddaning yuqoridagi bandida qayd etilgan shaxslarning bir yoki bir necha toifalariga nisbatan qishloq xo‘jaligidagi mehnat inspeksiyasi tizimini qo‘llash majburiyatini olish bo‘yicha bayonot yuborishi mumkin.

3. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a‘zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etadigan ma‘ruzalarida 1-bandda ko‘rsatilgan va avvalgi bayonotga binoan qamrab olinmagan shaxslar toifalariga nisbatan Konvensiya qoidalarini qay darajada qo‘llayotgani yoki qo‘llashni mo‘ljallayotgani to‘g‘risida ma‘lum qiladi.

6-modda

1. Qishloq xo‘jaligidagi mehnat inspeksiyasi tizimi vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) mehnat sharoitlariga va ish jarayonida mehnatkashlar xavfsizligini ta‘minlashga doir qonun-qoidalar, ya‘ni ish vaqti, ish haqi, har haftalik dam olish kunlari, ta‘tillar, mehnat xavfsizligi, sog‘liqni saqlash, farovonlikni ta‘minlash, xotin-qizlar, bolalar va o‘smirlarni ishga yollash va boshqa shu kabi masalalar sohasiga doir qonun-qoidalar, qanchalik mehnat inspektorlari tomonidan qo‘llanilishi ta‘minlansa, shu darajada bu qoidalarning tatbiq qilinishini muhofaza qilish;

b) ish beruvchilar va mehnatkashlarni qonun-qoidalarga rioya etishning eng samarali vositalari to‘g‘risidagi texnik axborot va tavsiyalar bilan ta‘minlash;

c) vakolatli hokimiyat organi e'tiboriga mavjud qonun-qoidalar qamrovi doirasiga alohida kirmaydigan kamchiliklar va huquqbuzarliklar hollarini yetkazish hamda ularga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdim etish.

2. Milliy qonun hujjatlari qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari zimmasiga mehnatkashlar va ularning oilalari turmush sharoitiga taalluqli qonun-qoidalarini qo'llash bo'yicha funksiyalarni va maslahat berish funksiyalarini yuklashi mumkin.

3. Agar qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlariga boshqa vazifa topshirilsa, bu ularning asosiy vazifalarini amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi kerak yoki inspektorlar obro'yi va ularning ish beruvchilar va mehnatkashlar bilan munosabatlarida talab etiladigan xolisligiga ta'sir qilmasligi kerak.

7-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi Tashkilot a'zosining ma'muriy amaliyoti qay darajada imkon bersa, shu darajada markaziy organning kuzatuvi va nazorati ostida bo'ladi.

2. Federativ davlat bo'lgan holda "markaziy organ" atamasi federatsiyaning markaziy organini yoki federatsiya biror tarkibiy qismining markaziy organi anglatishi mumkin.

3. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi, jumladan, quyidagilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin:

a) xo'jalik faoliyatining barcha tomonlari uchun mas'ul bo'lgan mehnat inspeksiyasining maxsus mehnat inspeksiyasi bo'limi tomonidan;

b) qishloq xo'jaligida o'z funksiyalarini bajaruvchi inspektorlarning tegishli tayyorgarligi orqali ichki funksiyaviy ixtisoslashuvni tashkil etadigan maxsus mehnat inspeksiyasi bo'limi tomonidan;

c) qishloq xo'jaligida o'z funksiyalarini bajaruvchi xizmatchilarga ega bo'lgan texnik jihatdan malakali xizmatning ta'sis etilishi orqali ichki tarkibiy ixtisoslashuvni tashkil etadigan maxsus mehnat inspeksiyasi bo'limi tomonidan;

d) yoki ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi inspeksiya xizmati tomonidan, bu holda ushbu inspeksiya xizmati faoliyati boshqa sohalarda, masalan, sanoatda, transportda va savdodagi mehnat inspeksiyasi kabi vakolatlarga ega bo'ladigan markaziy organ tomonidan nazorat qilinadi.

8-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi shtati davlat xizmatchilaridan, ya'ni maqomi va xizmat sharoiti lavozimini barqaror egallab turishga kafolat beradigan hamda hukumatdagi har qanday o'zgarishlar ta'siridan yoki har qanday tashqi ta'sirdan xoli bo'lishni talab etadigan davlat xizmatchilaridan iborat bo'ladi.

2. Tashkilot a'zolari, milliy qonunchilik yoki amaliyotga qay darajada muvofiqligiga qarab, qishloq xo'jaligidagi o'z mehnat inspeksiyasi tizimiga, faoliyati davlat inspeksiya shtati faoliyatini to'ldiradigan, kasaba tashkilotlarning mehnatkashlari yoki vakillarini kiritishlari mumkin; mazkur mehnatkashlar va vakillarga lavozimini barqaror egallab turishga kafolat beriladi hamda ular tashqi ta'sirdan mustaqil bo'ladi.

9-modda

1. Davlat xizmatchilarini ishga jalb qilish sohasidagi shartlarga, xususan, shu sohada milliy qonun hujjatlari tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan shartlarga rioya etgan

holda, qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari lavozimiga mazkur lavozim vazifasini bajarish uchun talab etiladigan yetarli malakaga ega bo'lgan nomzodlar jalb qilinadi.

2. Mazkur malakani tekshirish uslublari vakolatli hokimiyat organi tomonidan belgilanadi.

3. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari o'z vazifalarini amalga oshirish uchun tegishli tayyorgarlikdan o'tadilar.

10-modda

Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi shtati tarkibiga erkaklar ham, xotin-qizlar ham tayinlanishi mumkin; zarur hollarda erkak va ayol inspektorlar zimmasiga alohida vazifalar yuklatilishi mumkin.

11-modda

Tashkilotning har bir a'zosi, qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi ishiga tegishli malakali, texnik bilimlarni talab etuvchi muammolarni hal etishda yordam bera oladigan ekspertlar va mutaxassislar, milliy sharoitga eng maqbul deb e'tirof etiladigan tarzda jalb etilishini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'radi.

12-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi, bir tomondan, qishloq xo'jaligidagi inspeksiya xizmatlari, ikkinchi tomondan, boshqa hukumat xizmatlari va mazkur turdagi faoliyatni amalga oshirayotgan jamoat muassasalari yoki tan olingan muassasalar o'rtasida samarali hamkorlikka ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'radi.

2. Zarur hollarda, vakolatli hokimiyat organi inspeksiyaning ayrim funksiyalarini tegishli hukumat xizmatlari yoki jamoat muassasalariga mintaqaviy yoki mahalliy darajada yordam ko'rsatish asosida topshirishi mumkin yoki ushbu xizmat yoki muassasalarni mazkur funksiyalarni bajarishga jalb etishi mumkin. Lekin bunda mazkur Konvensiyaning prinsiplari qo'llanilishiga zarar yetmasligi kerak.

13-modda

Vakolatli hokimiyat organi qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi xodimlari hamda ish beruvchilar va mehnatkashlar yoki ularning tashkilotlari, agar ular mavjud bo'lsa, o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'radi.

14-modda

Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari soni inspeksiya xizmatining vazifalari samarali amalga oshirilishiga erishish uchun yetarli bo'lishini ta'minlash maqsadida choralar ko'riladi hamda ular soni quyidagilarni hisobga olgan holda belgilanadi:

- a) inspektorlar bajarishi zarur bo'lgan vazifalar muhimligini, xususan:
 - i) inspeksiya nazorati ostidagi qishloq xo'jaligi korxonalari soni, ularning xususiyati, ko'lami va joylashishini;
 - ii) ushbu ish joylarida band bo'lgan shaxslar soni va toifalarini;
 - iii) hayotga tatbiq qilinishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar miqdori va murakkabligini;
- b) inspektorlar ixtiyoriga berilgan moddiy vositalarni;
- c) inspeksiya tashriflari amalga oshirilishi samarali bo'lishi uchun maqsadga muvofiq bo'lgan amaliy sharoitni.

15-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari tasarrufida quyidagilar bo'lishi uchun zarur choralarni ko'radi:

a) qishloq xo'jaligi korxonalarining jug'rofiy joylashishi va mavjud aloqa vositasi hisobga olingan holda joylashtirilgan, inspeksiya xizmati ehtiyojlariga mos ravishda jihozlangan va imkon qadar barcha tegishli shaxslar uchun ochiq bo'lgan mahalliy byuro;

b) kerakli jamoat transport vositalari yo'q bo'lgan hollarda ularning o'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan transport vositalari.

2. Vakolatli hokimiyat organi qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari o'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun ularga zarur bo'lgan har qanday safar va qo'shimcha xarajatlarini qoplash maqsadida zarur choralarni ko'radi.

16-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat bilan ta'minlangan holda quyidagi huquqlarga ega:

a) inspeksiya nazorati bilan qamrab olingan har qanday ish joyiga oldindan ogohlantirmasdan va xohlagan vaqtda hech bir to'siqsiz kirish;

b) ular tomonidan barcha binolarga, ya'ni inspeksiya qilish uchun yetarli asos bor deb hisoblangan barcha binolarga kunduzgi vaqtda kirish;

c) qonun-qoidalariga to'g'ri rioya etilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun ular zarur deb hisoblaydigan har qanday tekshirish va surishtirishlar o'tkazish, xususan:

i) yakkama-yakka yoki guvohlar ishtirokida, ish beruvchilar, korxonalar personaliga yoki korxonadagi har qanday shaxs qonun-qoidalar qo'llanilishiga doir har qanday savol bo'yicha suhbat o'tkazish;

ii) mehnat sharoitlariga oid milliy qonun hujjatlarida yuritilishi ko'zda tutilgan har qanday kitoblar, ro'yxatlar yoki hujjatlar yordamida ish olib borilishini, ularni qonun-qoidalariga muvofiq ekanligini ko'rish va ulardan nusxa olish yoki ayrim joylarini ko'chirish maqsadida milliy qonun hujjatlarida belgilanishi mumkin bo'lgan tartibda talab qilish;

iii) ish beruvchini yoki uning vakilini tekshirish maqsadlari haqida ogoh qilgan holda, foydalanilayotgan yoki ishlov berilayotgan mahsulotlar, materiallar va moddalar namunalari tekshirish uchun olish.

2. Mehnat inspektorlari mazkur moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlariga muvofiq qishloq xo'jaligi korxonasi rahbarining xususiy turar joyiga kirishga haqli emas, agar mazkur rahbarning o'zi rozilik bermasa yoki vakolatli hokimiyat organining alohida ruxsati mavjud bo'lmasa.

3. Inspeksiya tashrifi hollarida inspektorlar, agar bu nazorat ishiga ziyon yetkazmaydi deb hisoblasalar, ish beruvchi yoki uning vakilini, mehnatkashlarni yoki ularning vakillarini bu tashrif haqida ogohlantiradilar.

17-modda

Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiya xizmati, vakolatli hokimiyat organi belgilashi mumkin bo'lgan tarzda va hollarda, salomatlikka yoki xavfsizlikka xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan mahsulotni qayta ishlash yoki qayta ishlashning yangi usullari va yangi qurilmalar, yangi materiallar yoki moddalarning profilaktik nazoratida ishtirok etadilar.

18-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlariga, inshoot, uskuna yoki qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlash usullarida aniqlangan, jumladan, xavfli materiallar va moddalardan foydalanish kabi kamchiliklarni va mehnatkashlar sog'lig'i yoki xavfsizligiga xavf soladigan deb hisoblanishiga yetarli asos tug'diruvchi nuqsonlarni to'g'rilash maqsadida chora ko'rish uchun vakolat beriladi.

2. Mehnat inspektorlari shunday choralar ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun, qonunda ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan sud yoki ma'muriy hokimiyat organlariga shikoyat qilish huquqiga rioya etilgan holda, ularga quyidagilar bo'yicha farmoyishlar chiqarish yoki chiqarilishini talab qilish vakolati beriladi:

a) muayyan vaqt chegarasida qurilma, inshoot, binolar, asboblari, uskunalar yoki mexanizmlarga, salomatlik yoki xavfsizlikni muhofaza qilish sohasidagi qonun-qoidalarga mos bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zgartirish kiritish to'g'risida;

b) salomatlik yoki xavfsizlikka bevosita xavf tug'ilgan holatda, darhol ijro etilishi shart bo'lgan, ish to'xtagunicha davom etadigan choralar to'g'risida.

3. Agar 2-bandda belgilangan tartib Tashkilot a'zosining ma'muriy va sud amaliyotiga muvofiq kelmasa, inspektorlar vakolatli hokimiyat organiga darhol ijro etilishi shart bo'lgan farmoyishlar chiqarilishi uchun yoki choralar ko'rilishi uchun murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

4. Inspektor tomonidan korxonaga tashrifi davomida aniqlangan kamchiliklar, shuningdek 2-bandga muvofiq u chiqaradigan farmoyishlar yoki 3-bandga muvofiq u chiqarilishini so'raydigan farmoyishlar darhol ish beruvchi hamda mehnatkashlar vakillari e'tiboriga yetkaziladi.

19-modda

1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasiga milliy qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda va tartibda, qishloq xo'jalik tarmog'ida ro'y beradigan ishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risida ma'lum qilinadi.

2. Imkoni boricha, mehnat inspektorlari ishlab chiqarishdagi eng jiddiy baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalliklari, xususan, bir necha mehnatkashlarga ta'siri bo'lgan yoki o'lim bilan yakunlangan baxtsiz hodisalarni sabablarini aniqlash bo'yicha har qanday surishtirishlarda ishtirok etadilar.

20-modda

Milliy qonunchilikda ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan istisnolarga rioya etilgan holda qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlariga:

a) o'z nazoratida bo'lgan korxonalardan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lish man etiladi;

b) tegishli jazoga tortilishi yoki ma'muriy choralar ko'rilishi haqida ogohlantirilgan holda, o'z vazifalarini bajarish paytida tanishishlari mumkin bo'lgan ishlab chiqarish yoki tijorat sirlarini yoki ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni, hatto lavozimidan ketgandan so'ng ham oshkor qilmaslik majburiyati yuklatiladi;

c) kamchiliklar, ish jarayonidagi xavflar yoki qonun-qoidalar buzilishi yuzasidan har qanday shikoyat manbasini mutlaqo sir tutish majburiyati hamda ish beruvchi yoki uning vakiliga inspeksiya tashrifi ana shunday shikoyat tushishi munosabati bilan o'tkazilganligi to'g'risida aslo bildirmaslik majburiyati yuklatiladi.

21-modda

Qishloq xo'jalik korxonasi tegishli qonun-qoidalarining samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda va sinchkovlik bilan inspeksiya qilinadi.

22-modda

1. Qo'llanilishi qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari tomonidan ta'minlanadigan qonun-qoidalarini buzayotgan yoki ularga rioya etishdan bosh tortayotgan shaxslar, oldindan ogohlantirilmagan, darhol sud yoki ma'muriy ta'qib ostiga olinadi. Lekin milliy qonun hujjatlarida sud himoyasini yoki profilaktika choralarini amalga oshirish uchun oldindan ogohlantiruvchi hollarga nisbatan istisnolar ko'zda tutilishi mumkin.

2. Mehnat inspektorlari sud ta'qibini boshlash yoki tavsiya qilish o'rniga ogohlantirish va maslahat berish kerakligini o'zlari hal qiladilar.

23-modda

Agar qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari ish qo'zg'atish huquqiga ega bo'lmasalar, ular qonun-qoidalarining buzilishi to'g'risidagi hisobotlarni bevosita ish qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan hokimiyat organiga taqdim etish vakolatiga ega bo'lishi kerak.

24-modda

Milliy qonunchilikda qo'llanilishi qishloq xo'jaligidagi mehnat inspektorlari tomonidan ta'minlanadigan qonun-qoidalarini buzganlik uchun hamda mehnat inspektorlariga ularning vazifalarini amalga oshirishda to'sqinlik qilinishiga qarshi tegishli jazo choralari ko'zda tutiladi, shu bilan birga, ular samarali hayotga tatbiq qilinadi.

25-modda

1. Mehnat inspektorlaridan yoki mahalliy inspeksiya byurolaridan, vaziyatga qarab, markaziy inspeksiya organiga qishloq xo'jaligidagi o'z faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'ruzalarni muntazam taqdim etish talab etiladi.

2. Ushbu ma'ruzalar markaziy inspeksiya organi ko'rsatmasiga muvofiq tuziladi va vaqti-vaqti bilan ushbu organ tomonidan ko'rsatiladigan masalalarni qamrab oladi; ushbu ma'ruzalar markaziy organ talab qilgan muddatlarda va har qanday holda yiliga kamida bir marta taqdim etiladi.

26-modda

1. Markaziy inspeksiya organi qishloq xo'jaligidagi inspeksiya xizmatlarining faoliyati to'g'risida har yilgi ma'ruzalarini alohida ma'ruza holida yoki o'zining umumiy har yilgi ma'ruzasining qismi shaklida chop etib boradi.

2. Ushbu ma'ruzalar maqbul muddatlarda, ma'ruzalarga taalluqli yil yakunida va har qanday holda o'n ikki oy ichida chop etiladi.

3. Har yilgi ma'ruzalarning nusxalari chop etilgandan so'ng uch oy ichida Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

27-modda

Markaziy inspeksiya organi tomonidan chop etiladigan har yilgi ma'ruzalarda mazkur organ nazorati doirasi chegarasida, quyidagi masalalar to'g'risidagi ma'lumotlar qamrab olinadi:

- a) qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi faoliyatiga doir qonun hujjatlari;
- b) qishloq xo'jaligidagi mehnat inspeksiyasi xizmatidagi mehnatkashlar shtati;
- c) inspeksiya nazorati bilan qamrab olingan qishloq xo'jaligi korxonalari to'g'risida hamda ushbu korxonalarda band bo'lgan shaxslar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- d) inspeksiya tashriflari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- e) sodir etilgan huquqbuzarliklar va qo'llanilgan jazo choralari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;
- f) ishdagi baxtsiz hodisalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, ularning sabablarini ko'rsatgan holda;
- g) kasb kasalliklari bilan og'rish to'g'risidagi statistik ma'lumotlar.

28-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

29-modda

1. Ushbu Konvensiya faqatgina ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarinigina birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

30-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

31-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

32-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

33-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

34-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan yangi, qayta ko'rib chiqilayotgan Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 30-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi sharti bilan darhol denonsatsiya qilishga olib keladi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

35-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

XALQARO MEHNAT NORMALARI QO‘LLANILISHIGA KO‘MAKLASHISH UCHUN UCH TOMONLAMA MASLAHATLASHUVLAR TO‘G‘RISIDAGI 144-SONLI KONVENSIYA

*1976-yil 21-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 61-sessiyasida qabul qilingan*

*O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagi
O‘RQ-525-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma‘muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1976-yilning 2-iyunida o‘zining oltinchi sessiyasiga *to‘planib*,

mehnat sohasidagi mavjud xalqaro konvensiyalar va tavsiyalar, jumladan, ish beruvchilar va mehnatkashlarning erkin va mustaqil tashkilotlar ta‘sis etish huquqlarini tasdiqlovchi hamda davlat hokimiyat organlari bilan ish beruvchilar va mehnatkashlar tashkilotlari o‘rtasida milliy darajadagi maslahatlashuvlar samaradorligini oshirish choralarini ko‘rishni talab etadigan 1948-yilgi Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya, 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini olib borish va birlashish huquqi to‘g‘risidagi konvensiya hamda 1960-yilgi Sanoatda va milliy darajada maslahatlashuvlar to‘g‘risidagi tavsiya qoidalarini e‘tirof etib, shuningdek ushbu konvensiyalar va tavsiyalarni qo‘llash uchun ish beruvchilar va mehnatkashlar tashkilotlari o‘rtasida maslahatlashuvlar o‘tkazishni ko‘zda tutadigan ko‘plab xalqaro mehnat konvensiyalari va tavsiyalari qoidalarini *e‘tirof etib*,

sessiya kun tartibidagi to‘rtinchi bandi bo‘lgan “Xalqaro mehnat standartlarini qo‘llashga ko‘maklashish uchun uch tomonlama mexanizmni yaratish” masalasini e‘tiborga olib hamda xalqaro mehnat standartlarini qo‘llashga ko‘maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to‘g‘risida bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to‘qqiz yuz yetmish oltinchi yil iyun oyining yigirma birinchi kunida quyidagi 1976-yilgi Uch tomonlama maslahatlashuvlar (xalqaro mehnat standartlari) to‘g‘risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo‘lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Ushbu Konvensiyada “vakolatli tashkilotlar” atamasi birlashish erkinligi huquqidan foydalanadigan ish beruvchilar va mehnatkashlarning eng vakolatli tashkilotlarini anglatadi.

2-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti faoliyatiga taalluqli bo'lgan quyidagi 5-moddaning 1-bandida qayd etilgan masalalar bo'yicha hukumat, ish beruvchilar va mehnatkashlar vakillari o'rtasida samarali maslahatlashuvlarni ta'minlaydigan tartibni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. Har bir mamlakat, mazkur moddaning 1-bandida ko'zda tutilgan tartib-mohiyati va shaklini vakolatli tashkilotlar bilan maslahatlashuvlardan so'ng, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa va bunday tartiblar hali o'rnatilmagan bo'lsa, milliy amaliyotga muvofiq belgilanadi.

3-modda

1. Ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan tartiblarni amalga oshirish maqsadlari uchun ish beruvchilar va mehnatkashlar vakillari o'z vakolatli tashkilotlari tomonidan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, erkin saylanadi.

2. Ish beruvchilar va mehnatkashlar maslahatlashuvlar amalga oshiriladigan har qanday organlarda tenglik asosida vakillik qiladilar.

4-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi mazkur Konvensiyada ko'zda tutilgan tartiblarni ma'muriy jihatdan ta'minlash uchun mas'ul bo'ladi.

2. Ushbu tartib ishtirokchilarini har qanday zarur bo'lgan o'qitish jarayonini moliyalashtirish uchun vakolatli hokimiyat organi bilan vakolatli tashkilotlar o'rtasida, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, tegishli tadbirlar o'tkaziladi.

5-modda

1. Mazkur Konvensiyada ko'zda tutilgan tartib maqsadi quyidagi sohalarida maslahatlashuvlar o'tkazishni ko'zda tutadi:

a) hukumatning Xalqaro mehnat konferensiyasi kun tartibiga taalluqli savolnomalarga javoblari bo'yicha hamda hukumatning Konferensiyada muhokama etish uchun taqdim etilgan matnlarga mulohazalari bo'yicha;

b) Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 19-moddasiga muvofiq vakolatli hokimiyat organiga yoki organlariga konvensiyalar va tavsiyalar taqdim etish munosabati bilan takliflar bilan chiqish bo'yicha;

c) hali ratifikatsiya qilinmagan va qo'llanilmayotgan konvensiyalar va tavsiyalarni qo'llashga hamda ratifikatsiya qilishga tegishlicha ko'maklashish uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan choralarni aniqlash maqsadida muayyan vaqt oralig'ida ushbu konvensiyalar va tavsiyalarni qaytadan ko'rib chiqish bo'yicha;

d) Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq Xalqaro mehnat byurosiga taqdim etiladigan ma'ruzalar munosabati bilan yuzaga chiqayotgan masalalar bo'yicha;

e) ratifikatsiya qilingan konvensiyalarni denonsatsiya qilish yuzasidan takliflar bo'yicha.

2. Mazkur moddaning 1-bandida qayd etilgan masalalarning zarur darajada ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun maslahatlashuvlar o'zaro kelishuvga muvofiq belgilangan tegishli vaqt oralig'ida, lekin kamida yiliga bir marta o'tkaziladi.

6-modda

Zarur deb topilgan hollarda, vakolatli hokimiyat organi mazkur Konvensiyada koʻzda tutilgan tartibni amalga oshirish toʻgʻrisidagi yillik maʼruzani vakolatli tashkilotlar bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud boʻlsa, maslahatlashuvlardan soʻng chop etadi.

7-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi rasmiy hujjatlar roʻyxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan roʻyxatga olingan Tashkilot aʼzolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki aʼzosining ratifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan roʻyxatga olingan sanadan oʻn ikki oy oʻtgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir aʼzosi uchun uning ratifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjati roʻyxatga olingan sanadan oʻn ikki oy oʻtgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir aʼzosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab oʻn yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga roʻyxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjat roʻyxatga olinganidan keyin bir yil oʻtgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir aʼzosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan oʻn yillik muddat oʻtganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada koʻzda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan boʻlsa, navbatdagi oʻn yillik muddatni kutishga majbur boʻladi hamda unga koʻra, u bu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har oʻn yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin boʻladi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot aʼzolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjatlarning roʻyxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha aʼzolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot aʼzolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya toʻgʻrisidagi hujjat roʻyxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning eʼtiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan oʻzi roʻyxatga olgan ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish toʻgʻrisidagi hujjatlarning barchasiga oid toʻla maʼlumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga roʻyxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy Kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

13-modda

1. AAgar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va, agar yangi konvensiyada buning aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan yangi, qayta ko'rib chiqilayotgan Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 11-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi sharti bilan darhol denonsatsiya qilishga olib keladi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

UCHINCHI BO'LIM. TEXNIK KONVENSIYALAR

ISH VAQTINI HAFTASIGA QIRQ SOATGACHA QISQARTIRISH TO'G'RISIDAGI 47-SONLI KONVENSIYA

*1935-yil 22-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 19-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
83-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Jenevada 1935-yilning 4-iyunida o'zining o'n to'qqizinchi sessiyasiga *to'planib*,
ish vaqtini qisqartirish to'g'risidagi masala sessiya kun tartibining oltinchi bandi
bo'lganini *e'tiborga olib*,

ishsizlik shu qadar keng miqyos olganligini va shunchalik uzoq vaqt davom
etmoqdaki, hozirgi vaqtda jahon bo'yicha millionlab mehnatkashlar qiyinchilik va
qashshoqlikdan azob chekayotganini va buning uchun ular javobgar emasliklarini hamda
ular bu azoblardan xalos bo'lish uchun qonuniy huquqqa ega ekanini *e'tiborga olib*,

mehnatkashlar zamonaviy sanoatni tavsiflovchi jadal rivojlanishning texnik
taraqqiyoti samarasidan imkon boricha amalda foydalana olishi maqsadga muvofiqligini
hisobga olib,

Xalqaro mehnat konferensiyasining o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi sessiyalarida
qabul qilingan rezolyutsiyalarning amalga oshirilishida bandlikning barcha toifalarida
ish vaqti davomiyligini imkon qadar qisqartirish uchun sa'y-harakatlarni ko'rish
zarurligini *hisobga olib*,

bir ming to'qqiz yuz o'ttiz beshinchi yil iyun oyining yigirma ikkinchi kunida quyidagi
1935-yilgi Qirq soatlik ish haftasi to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin
bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir
a'zosi quyidagilar bo'yicha ma'qullashini bildiradi:

a) xodimlar turmush darajasining pasayishiga olib kelmaydigan tarzda qo'llaniladigan qirq soatlik ish haftasi prinsipini;

b) shu maqsadga erishish uchun maqbul hisoblanadigan chora-tadbirlar ko'rilishini yoki choralar ko'rilishiga ko'maklashishni;

va ushbu prinsipni Tashkilotning mazkur a'zosi ratifikatsiya qilishi mumkin bo'lgan ayrim konvensiyalarda belgilangan batafsil qoidalarga muvofiq bandlikning turli toifalariga nisbatan qo'llash majburiyatini oladi.

2-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

3-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor ro'yxatga olganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

4-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinishi bilan, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori bu haqda Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi. Bosh direktor ularga, shuningdek keyinchalik Tashkilotning boshqa a'zolaridan olingan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi barcha hujjatlarning ro'yxatga olinganligi haqida xabar beradi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat tugaganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutadi va keyinchalik ushbu modda bilan belgilangan tartibda mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

6-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

7-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va, agar yangi konvensiyada buning aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan yangi, qayta ko'rib chiqilayotgan Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 5-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi sharti bilan darhol denonsatsiya qilishga olib keladi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qolaveradi.

8-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

HAQ TO‘LANADIGAN YILLIK TA‘TIL TO‘G‘RISIDAGI 52-SONLI KONVENSIYA

*1936-yil 24-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 20-sessiyasida qabul qilingan*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
84-I-son Qaroriga muvofiq qo‘shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma‘muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1936-yilning 4-iyunida o‘zining yigirmanchi sessiyasiga *to‘planib*,
sessiya kun tartibining ikkinchi bandi bo‘lgan haq to‘lanadigan yillik ta‘tillar
to‘g‘risida turli takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi yil iyun oyining yigirma to‘rtinchi kunida quyidagi
1936-yilgi Haq to‘lanadigan ta‘tillar to‘g‘risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin
bo‘lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya davlatga qarashli yoki xususiy bo‘lishidan qat’i nazar, quyidagi korxonalaridan birida yoki biron bir muassasalarda ish bilan band bo‘lgan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi:

a) buyumlar ishlab chiqariladigan, o‘zgartiriladigan, tozalanadigan, ta‘mirlanadigan, bezatiladigan, sayqal beriladigan, sotuvga tayyorlanadigan, buziladigan yoki yo‘q qilinadigan yoki materiallar qayta ishlanadigan korxonalarda, shu jumladan, kema qurish yoki ishlab chiqarish, elektr toki o‘zgartiriladigan yoki har qanday turdagi elektr energiyasi yoxud dvigatel quvvati uzatiladigan korxonalarda;

b) to‘liq yoki asosan qurilish, rekonstruksiya qilish, saqlash, ta‘mirlash, qayta qurish yoki qismlarga ajratish bilan shug‘ullanadigan korxonalarda:

- binolarni;
- temir yo‘llarni;
- tramvay yo‘llarini;
- aeroportlarni;
- portlarni;
- prichallarni (kemalar bog‘lanadigan joy);
- pirsarlarni (kemalar bog‘lab qo‘yiladigan maxsus joylar);
- suv toshqini yoki qirg‘oq eroziyasidan himoya qiladigan inshootlarni;

- kanallarni;
 - ichki, dengiz yoki havo navigatsiyasi maqsadlari uchun inshootlarni;
 - yo'llarni;
 - tunnellarni;
 - ko'priklarni;
 - viaduklarni (yo'l ustidan o'tgan ko'priklarni);
 - kanalizatsiya tizimlarini;
 - suv quvurlarini;
 - quduqlarni;
 - irrigatsiya yoki quritish inshootlari, elektraloqalari qurilmalarini;
 - gaz yoki elektr quvvati ishlab chiqarish yoki taqsimlash bo'yicha korxonalarini;
 - quvurlarni;
 - suv ta'minoti tizimlarini;
 - hamda boshqa shu kabi ishlar yoki yuqorida qayd etilgan ishlardan oldingi qurilishga tayyorlash yoki poydevorini o'rnatish bilan shug'ullanadigan korxonalarini;
- c) avtomobil va temir yo'llar, ichki suv yo'llari yoki havo yo'llari bo'ylab yo'lovchilarni yoki yuklarni tashish, jumladan, yuklarni port, prichal, pristan (kemalar bog'lab qo'yiladigan maxsus joylar), omborlarda yoki aeroportlarda tashish bilan shug'ullanadigan korxonalarda;
- d) yerdan foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha shaxta, karyerlarda yoki boshqa korxonalarda;
- e) tijorat yoki savdo korxonalarida, shu jumladan, pochta va elektraloqalari muassasalarida;
- f) xodimlari asosan ish yuritish bilan shug'ullanadigan muassasalar va ma'muriy organlarda;
- g) davriy matbuot korxonalarida;
- h) bemor, nimjon, nochor va aqldan ozganlarni davolaydigan hamda parvarishlaydigan muassasalarda;
- i) mehmonxonalar, restoranlar, pansionlar, oshxonalar, klublar, kafelar va boshqa shunga o'xshash umumiy ovqatlanish muassasalarida;
- j) teatrlar va umumiy ko'ngilochar joylarda;
- k) avvalgi toifalar bilan butunlay qamrab olinmagan aralash tijorat va sanoat korxonalarida.

2. Har bir mamlakat hokimiyatining vakolatli organi, ish beruvchilar va xodimlarning asosiy manfaatdor tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashgandan so'ng bir tomondan avvalgi bandda belgilangan korxonalar va muassasalar, ikkinchi tomondan, mazkur Konvensiya qo'llanilmaydigan korxonalar va muassasalar o'rtasida chegaralarni belgilaydi.

3. Har bir mamlakat hokimiyatining vakolatli organi mazkur Konvensiyaning quyidagi shaxslarga nisbatan qo'llanilishini istisno qilishi mumkin:

a) faqat ish beruvchining oila a'zolari band bo'lgan korxonalarda yoki muassasalarda band bo'lgan shaxslarni;

b) xizmat sharoitlari ularga, hech bo'lmaganda, ushbu Konvensiya bilan belgilangan ta'til muddatiga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqini beradigan davlat muassasalarida band bo'lgan shaxslarni.

2-modda

1. Ushbu Konvensiya qo'llaniladigan har bir shaxs bir yil davomida uzluksiz ishlaganidan so'ng, hech bo'lmaganda, olti ish kuniga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqiga ega.

2. O'n olti yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, jumladan, o'quvchilar uzluksiz ishlaganidan so'ng, hech bo'lmaganda, o'n ikki ish kuniga teng bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqiga ega.

3. Haq to'lanadigan yillik ta'tilga quyidagilar qo'shilmaydi:

a) rasmiy va an'anaviy bayramlar;

b) kasallik natijasida ishdagi tanaffuslar.

4. Milliy qonunlar yoki qoidalar ayrim vaziyatlarda ushbu modda bilan belgilangan eng kam muddatdan oshadigan haq to'lanadigan yillik ta'tilning qismlarga bo'linishiga ruxsat berishi mumkin.

5. Haq to'lanadigan yillik ta'tilning davomiyligi milliy qonunlar va qoidalar bilan belgilanadigan shartlardan kelib chiqib, ish stajining davomiyligiga muvofiq ko'paytiriladi.

3-modda

Ta'tilga chiqadigan har bir shaxs ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga asosan butun ta'til davomida quyidagilarni oladi:

a) milliy qonunlar yoki qoidalar bilan belgilangan usulda hisoblangan uning naqd pul ko'rinishidagi mukofotni qo'shgan holda, agar mavjud bo'lsa, o'zining odatdagi haqini;

b) jamoa shartnomasi bilan belgilangan haqni.

4-modda

Haq to'lanadigan yillik ta'til olish huquqini istisno etadigan yoki bunday ta'til olish huquqini bermaydigan har qanday bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.

5-modda

Milliy qonunlar yoki qoidalar, o'zining yillik ta'tili paytida haq to'lanadigan ishda band bo'lgan shaxslar, ta'til davri uchun haq olishdan mahrum bo'lishi mumkinligini nazarda tutishi mumkin.

6-modda

Ish beruvchilarga bog'liq sababga ko'ra tegishli ta'tildan foydalangunga qadar ishdan bo'shatilgan shaxsga mazkur Konvensiyaga asosan ta'tilning har bir kuni uchun 3-moddada nazarda tutilgan haq to'lanishi lozim.

7-modda

Ushbu Konvensiya qoidalarining hayotga samarali tatbiq etilishini yengillashtirish uchun har bir ish beruvchi vakolatli hokimiyat tomonidan ma'qullangan shakl bo'yicha quyidagilarni aks ettiradigan yozuvlarni yuritib borishi kerak:

a) u tomonidan yollangan shaxsning ishga qabul qilingan sanasi va har bir bunday shaxs ega bo'lgan haq to'lanadigan yillik ta'tilning muddatini;

b) har bir shaxsning haq to'lanadigan yillik ta'tilga chiqish sanasini;

c) har bir shaxsning haq to'lanadigan yillik ta'til davri uchun oladigan haqini.

8-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a'zosi, mazkur Konvensiya qoidalarining qo'llanilishini ta'minlash uchun choralar tizimini ishlab chiqadi.

9-modda

Ushbu Konvensiyada hech bir narsa mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan sharoitdan qulayroq sharoitni ta'minlaydigan qonun, sud qarori, an'analar yoki ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida bitim bilan belgilangan har qanday qoidalarni buzmaydi.

10-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuboriladi.

11-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkiloti a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Bosh direktor Tashkilotning ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganidan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar ro'yxatga olingan kundan keyin o'n ikki oy o'tgach Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan kuchga kiradi.

12-modda

Xalqaro mehnat tashkilotining ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari ro'yxatga olinishi bilan Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori bu haqda Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi. U, shuningdek keyinchalik Tashkilotning boshqa a'zolaridan yuborilgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi barcha hujjatlarning ro'yxatga olinganligi haqida ularni xabardor qiladi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat tugaganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutadi va keyinchalik ushbu modda bilan belgilangan tartibda mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'liq yoki

qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

15-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va, agar yangi konvensiyada buning aksi nazarda tutilmagan bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biron bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik ravishda 13-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirishi sharti bilan zudlik bilan denonsatsiya qilishga olib keladi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qoladi.

16-modda

Mazkur Konvensiyaning fransuz va ingliz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

ISH HAQINI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDAGI 95-SONLI KONVENSIYA

*1949-yil 1-iyul, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 12-martdagi
O'RQ-918-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1949-yilning 8-iyunida o'zining o'ttiz ikkinchi sessiyasiga *to'planib*,
sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan ish haqini himoya qilishga oid
bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz qirq to'qqizinchi yil iyul oyining birinchi kunida quyidagi
"1949-yilgi Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya" deb nomlanishi mumkin
bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun "ish haqi" atamasi nomidan yoki hisoblash usulidan qat'i nazar, pul shaklida hisoblanishi mumkin bo'lgan va o'zaro kelishuv yoki milliy qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, yozma yoki og'zaki mehnat shartnomasi asosida bajarilgan yoki bajarilishi kerak bo'lgan ish uchun yoki ko'rsatilgan yoxud ko'rsatiladigan xizmatlar uchun ish beruvchi tomonidan xodimga to'lanishi kerak bo'lgan ish haqi yoki daromadni anglatadi.

2-modda

1. Ushbu Konvensiya ish haqi to'lanadigan yoki to'lanishi kerak bo'lgan barcha xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Vakolatli organi, ish beruvchilar va xodimlarning tashkilotlari bilan maslahatlashuvdan so'ng, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa va ular shundan bevosita manfaatdor bo'lsa, Konvensiyaning barcha yoki ayrim qoidalari qo'llanilishi doirasidan mazkur barcha yoki ayrim qoidalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lmagan vaziyat va sharoitda ishlaydigan hamda jismoniy ishlarda band bo'lmagan yoki uy xo'jaligida yoki shunga o'xshash xizmatda band bo'lgan shaxslar toifalarini chiqarib tashlashi mumkin.

3. Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi o'zining

birinchi yillik ma'ruzasida, avvalgi bandga ko'ra, ushbu Konvensiyaning barcha yoki ayrim qoidalari qo'llanilishi doirasidan chiqarishni mo'ljallagan shaxslarning toifalarini ko'rsatadi. Tashkilotning hech bir a'zosi birinchi har yilgi ma'ruzasi taqdim etilganidan so'ng, shu ma'ruzada ko'rsatilgan shaxslar toifalaridan tashqari boshqa shaxslar toifalarini chiqara olmaydi.

4. Tashkilotning har bir a'zosi o'zining birinchi yillik ma'ruzasida ushbu Konvensiyaning barcha yoki ayrim qoidalari qo'llanilishi doirasidan chiqarishini mo'ljallagan shaxslar toifalarini ko'rsatib, o'zining navbatdagi har yilgi ma'ruzalarida ushbu moddaning 2-bandi qoidalari qaysi shaxslar toifalariga nisbatan qo'llanilishi to'xtatilganligini ko'rsatadi hamda ushbu Konvensiyani shu shaxslar toifalariga qo'llash maqsadida erishilgan har qanday o'zgarishlar to'g'risida xabar qiladi.

3-modda

1. Naqd pulda to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi faqat qonuniy to'lov vositasida to'lanadi va oddiy veksel, vaucher, kupon shaklida yoki qonuniy to'lov vositasi deb gumon qilinayotgan har qanday boshqa shaklda to'lanishi man qilinadi.

2. Vakolatli organi ish haqini bank cheklari yoki pochta o'tkazmalari orqali, agar to'lashning shunday shakli oddiy amaliyotda qabul qilingan bo'lsa yoki alohida holatlar tufayli zarur bo'lsa va, agar jamoa shartnomasi yoki arbitraj qarorida nazarda tutilgan bo'lsa yoki bunday qarorlar bo'lmagan taqdirda manfaatdor xodim shunga o'zi rozi bo'lsa, to'lashga ruxsat berishi yoki buyurishi mumkin.

4-modda

1. Milliy qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari yoki arbitraj qarorlari ayrim sanoat yoki ish turlari sohasida ish haqini qisman natura shaklida, agar mazkur sanoat yoki ish turlari sohasida haq to'lashning shu shakli odat bo'lsa yoki mazkur sanoat yoki ish turlari xususiyati uchun ma'qul bo'lsa, to'lashga ruxsat berishi mumkin. Lekin hech bir holda ish haqi spirtli ichimlik va giyohvand moddalar shaklida to'lanishiga ruxsat berilmaydi.

2. Ish haqini qisman natura shaklida to'lashga ruxsat etilgan hollarda quyidagilarni ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'riladi:

a) natura shaklidagi to'lov xodimlar va ularning oilalari tomonidan shaxsan foydalanishi uchun va ularning manfaatlari uchun mos bo'lishini;

b) natura shaklidagi to'lov adolatli va maqbul narxga ega bo'lishini.

5-modda

Ish haqi, agar milliy qonun hujjatlari, jamoa shartnomasi yoki arbitraj qarorida buning aksi nazarda tutilmagan bo'lsa va, agar mazkur manfaatdor xodim boshqacha tartibga rozilik bildirmagan bo'lsa, bevosita manfaatdor xodimga to'lanadi.

6-modda

Ish beruvchilarga xodimning ish haqini tasarruf etish erkinligini har qanday tarzda cheklash taqiqlanadi.

7-modda

1. Agar tashkilotda xodimlarga tovarlar sotuvchi do'konlar yoki ta'minot xizmatlari mavjud bo'lsa, u holda manfaatdor xodimlarga nisbatan ushbu do'konlar va xizmatlardan foydalanishga majbur qilinmasligi kerak.

2. Agar boshqa do'konlar yoki xizmatlardan foydalanishning iloji bo'lmasa, vakolatli organ tovarlar adolatli va maqbul narxlar bo'yicha sotilishi va xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash yoki ish beruvchi tomonidan ta'sis etilgan do'kon yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar daromad olish uchun emas, balki xodimlarning manfaatlari uchun faoliyat olib borishini ta'minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar ko'rish kerak.

8-modda

1. Ish haqidan ushlab qolish milliy qonun hujjatlari yoki jamoa shartnomasi yoki arbitraj qarorida belgilangan shartlar va chegaralar doirasida amalga oshirishga ruxsat etiladi.

2. Bunday ushlab qolish amalga oshirilishini ruxsat etadigan shartlar va chegaralar to'g'risida vakolatli organ xodimlarni eng maqbul hisoblaydigan tarzda xabardor qiladi.

9-modda

Ish beruvchi yoki uning vakili yoki biron-bir vositachi (masalan, pudratchi yoki ishga jalb qiluvchi) foydasiga bevosita yoki bilvosita haq to'lash orqali ish joyiga ega bo'lish yoki uni saqlab qolish maqsadida xodimning ish haqidan barcha undirishlar taqiqlanadi.

10-modda

1. Ish haqi faqat milliy qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va chegaralar doirasida ushlab qolish yoki o'tkazish ob'ekti bo'lishi mumkin.

2. Ish haqi xodim va uning oilasini boqish uchun zarur deb hisoblangan darajada ushlab qolinishi yoki o'tkazilishidan himoyalangan bo'lishi kerak.

11-modda

1. Tashkilot bankrot deb topilgan yoki majburiy tugatilgan taqdirda, unda ishlaydigan xodimlar bankrotlik yoki tugatilishdan oldingi davrda ishlaganligi uchun milliy qonunchilikda belgilangan miqdordan oshmaydigan ularga tegishli bo'lgan ish haqi bo'yicha imtiyozli kreditorlar kabi mavqega ega.

2. Imtiyozli qarzni tashkil etuvchi ish haqi oddiy kreditorlar o'z ulushini talab qilishdan oldin to'liq to'lanadi.

3. Ish haqidan tashkil topgan imtiyozli talabning boshqa imtiyozli talablarga nisbatan navbatdagi tartibi milliy qonun hujjatlari bilan belgilanishi kerak.

12-modda

1. Ish haqi muntazam ravishda muayyan vaqt oralig'ida to'lanadi. Agar ish haqini muntazam vaqt oralig'ida to'lashni ta'minlaydigan tegishli mexanizm mavjud bo'lmasa, ish haqi to'lanishining davrlari milliy qonun hujjatlar yoki jamoa shartnomasi yoxud arbitraj qarori bilan belgilanishi kerak.

2. Mehnat shartnomasi muddati tugagandan so'ng xodimga to'lanadigan ish haqining yakuniy hisob-kitobi milliy qonun hujjatlariga, jamoa shartnomasiga yoki arbitraj qaroriga binoan amalga oshiriladi, shunday qonun hujjatlari, shartnoma yoki qaror bo'lmagan taqdirda, mehnat shartnomasi shartlarini hisobga olgan holda maqbul vaqt ichida amalga oshiriladi.

13-modda

1. Ish haqi naqd pul bilan to'lab berish faqat, agar milliy qonun hujjatlari, jamoa shartnomasi yoki arbitraj qarorida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yoki xodimlarga ma'lum bo'lgan usullar maqsadga muvofiqroq deb topilmasa, ish kunlarida va ish joyining o'zida yoxud unga yaqin joyda amalga oshiriladi.

2. Ish haqini to'lash tavernalarda yoki shunga o'xshash joylarda, shuningdek, agar suiiste'mollikning oldini olish zarur bo'lsa, do'konlarda yoki chakana savdo do'konlarida va ko'ngilochar joylarda amalga oshirilishi taqiqlanadi, ish haqi shunday joylarda ishlaydigan shaxslarga to'lanadigan hollar bundan mustasno.

14-modda

Zarur bo'lganda, xodimlarni tegishli va oson tushunarli tarzda xabardor qilishni ta'minlash uchun samarali choralar ko'riladi:

a) ular ishga kirishdan oldin, shuningdek, har qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan hollarda, ular ishga yollangan ish haqi bilan bog'liq shartlar haqida;

b) har bir ish haqini to'lash vaqtida tegishli to'lov davri uchun ularning ish haqining turli qismlari to'g'risida, chunki ular o'zgartirilishi mumkin.

15-modda

Ushbu Konvensiya qoidalarini amalga oshiradigan qonunlar yoki qoidalar:

a) manfaatdor shaxslarga axborot uchun taqdim etilishi;

b) unga rioya qilishni ta'minlash uchun mas'ul shaxslarni aniqlash;

c) har qanday qoidabuzarlik uchun tegishli jazo choralari yoki boshqa tegishli choralarni belgilash;

d) barcha zarur hollarda belgilangan shakl va usulda hujjatlar yuritilishini olib borilishini ko'zda tutadi.

16-modda

Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasi qoidalariga muvofiq taqdim etiladigan har yilgi ma'ruzalarga ushbu Konvensiyaning qoidalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida to'la ma'lumotlar kiritiladi.

17-modda

1. Agar Tashkilot a'zosining hududi o'z ichiga yirik hududlarni qamrab olsa va vakolatli organi mazkur hududlardagi aholi alohida tarqoqligini yoki rivojlanish darajasini hisobga olib, ushbu Konvensiya qoidalarini qo'llashning amalda iloji yo'q, deb hisoblasa, mazkur vakolatli organi ish beruvchilar va xodimlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng, mazkur hududlarni ushbu Konvensiya qo'llanilishi doirasidan to'liq chiqarib tashlashi mumkin yoki ba'zi tashkilotlar yoki ayrim ish turlariga nisbatan o'z fikricha maqsadga muvofiq bo'lgan istisnolar bilan chiqarishi mumkin.

2. Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga binoan taqdim etiladigan ushbu Konvensiyaning qo'llanishi to'g'risidagi o'zining birinchi yillik ma'ruzasida mazkur moddaning qoidalaridan foydalanishni mo'ljallagan har bir hudud to'g'risida xabar beradi va shu qoidalardan nimaga foydalanishni mo'ljallaganlik sabablarini ko'rsatadi. Keyinchalik, Tashkilotning hech bir a'zosi, shu tarzda ko'rsatilgan hududlarga nisbatan ushbu moddaning qoidalarini qo'llay olmaydi.

3. Ushbu modda qoidalaridan foydalanadigan Tashkilotning har bir a'zosi uch yildan oshmaydigan oraliqda ish beruvchilar va xodimlarning tegishli tashkilotlari bilan maslahatlashuvdan so'ng, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, ushbu Konvensiya qo'llanilishi ta'siri mazkur moddaning 1-bandi asosida chiqarilgan hududlarga nisbatan tatbiq etilishi maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqadi.

4. Ushbu modda qoidalaridan foydalanadigan Tashkilotning har bir a'zosi o'zining navbatdagi har yilgi ma'ruzasida qaysi hududlarga nisbatan mazkur modda qoidalarini ishlatish huquqidan voz kechganligi to'g'risida xabar qiladi hamda ushbu Konvensiyani shu hududlarga nisbatan qo'llash maqsadida erishilishi mumkin bo'lgan har qanday taraqqiyot to'g'risida xabar qiladi.

18-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

19-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

20-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandiga muvofiq Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan bayonotlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarining o'zgartirishlarsiz qo'llanilishini zimmasiga olishi;

b) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarining o'zgartirishlar bilan qo'llanilishini zimmasiga olishi va shu o'zgartirishlarning tafsiloti;

c) qaysi hududlarga nisbatan Konvensiya qo'llanilmasligi va bu holda uning qo'llanilmaslik sabablari;

d) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi o'z qarorini, bu holat kelgusida ko'rib chiqilgunga qadar, saqlab turishi to'g'risidagi ma'lumot.

2. Ushbu modda 1-bandining "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiyaning ajralmas qismi deb hisoblanadi va ratifikatsiya kuchiga ega.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi navbatdagi deklaratsiya orqali ushbu modda 1-bandining "b", "c" yoki "d" kichik bandlari asosida avvalgi deklaratsiyada aytib o'tilgan har qanday shartlardan yoki ularning bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davr mobaynida 22-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga istalgan avvalgi bayonotning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda belgilangan hududlaridagi hozirgi ahvolni ifoda etuvchi navbatdagi bayonotni yuborishi mumkin.

21-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4- va 5-bandlariga muvofiq, Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan bayonotlarda Konvensiya qoidalari tegishli hududga nisbatan qanday qo'llanilishi, ya'ni o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishsiz qo'llanilishi ko'rsatiladi, agar bayonotda Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilsa, u holda o'zgartirishlarning tafsiloti ham beriladi.

2. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul istalgan paytda keyingi bayonoti orqali tegishli huquqidan foydalanib, har qanday avvalgi bayonotida ko'zda tutilgan har qaysi o'zgartirishlardan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a'zosi, a'zolari yoki tegishli xalqaro darajadagi mas'ul, ushbu Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan muddat mobaynida, 22-modda qoidalariga muvofiq, Bosh direktorga har qanday avvalgi bayonotning har qanday shartiga o'zgartirishlar kirituvchi hamda mazkur Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan hozirgi ahvolni ifoda etuvchi bayonot yuborishi mumkin.

22-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va ushbu modda shartlariga binoan mazkur Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

23-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

24-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

25-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy Kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

26-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 22-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

27-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

ONALIKNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDAGI 103-SONLI KONVENSIYA

*1952-yil 28-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 35-sessiyasida qabul qilingan
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
85-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh Konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy Kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1952-yilning 4-iyunida o'zining o'ttiz beshinchi sessiyasiga *to'planib*,
sessiya kun tartibining yettinchi bandi hisoblangan onalikni muhofaza qilish
to'g'risida bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz ellik ikkinchi yil iyun oyining yigirma sakkizinchi kunida quyidagi
1952-yilgi Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) konvensiya deb
nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya sanoat korxonalarida band bo'lgan xotin-qizlarga kabi nosanoat
va qishloq xo'jalik ishlarida band bo'lgan, jumladan, kasanachi (uyda ishlovchi) xotin-
qizlarga ham qo'llaniladi.

2. Mazkur Konvensiya maqsadlarida "sanoat korxonalari" atamasi davlat va xususiy
korxonalarga, shuningdek ularning bo'limlariga taalluqli va, xususan, quyidagilarni
qamrab oladi:

a) shaxtalar, karyerlar (ochiq konlar) va boshqa yer osti boyliklarini qazib oluvchi
sanoat korxonalarini;

b) ishlab chiqarish buyumlarini tayyorlash, qayta ishlash, tozalash, ta'mirlash, bezash,
sayqal berish, sotishga tayyorlash, buzish yoki yo'q qilish bo'yicha korxonalarni yoxud
materiallarni qayta ishlash bo'yicha korxonalarni, jumladan, kemasozlik korxonalarini,
transformatsiya va elektr quvvatini uzatish hamda umuman dvigatel quvvatini ishlab
chiqarish bo'yicha korxonalarni;

c) qurilish, tiklash, ta'mirlash, qayta qurish va buzish bilan shug'ullanuvchi qurilish
bo'yicha korxonalarni;

d) yo'llar, temir yo'llar, dengiz yoki ichki suv yo'llari yoxud havo yo'llari orqali
yo'lovchilarni yoki tovarlarni tashish, shu jumladan, yuklarni portlar, pristanlar (kemalar
to'xtaydigan joy), platformalar, omborlar yoki aeroportlarda yuklarni qayta ishlash
bo'yicha korxonalarni.

3. Mazkur Konvensiya maqsadlarida “nosanoat ishlar” atamasi quyidagi davlat yoki xususiy korxonalarda yoki xizmatlar yoxud ularning faoliyat yuritishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarga taalluqli:

a) savdo korxonalari;

b) pochta va elektr aloqa xizmatlari;

c) xodimlar asosan idora ishi bilan mashg‘ul bo‘ladigan muassasalar va ma‘muriy organlar;

d) gazeta chiqaradigan korxonalar;

e) mehmonxonalar, pansionlar, restoranlar, klublar, kafelar va shunga o‘xshash umumiy ovqatlanish korxonalari;

f) kasal, nogiron, nochor va yetimlarni davolash va parvarish qilish bo‘yicha muassasa;

g) teatrlar va madaniy-ommaviy muassasalar;

h) xususiy xo‘jaliklarda bajariladigan yollanma uy mehnati;

shuningdek, hokimiyatning vakolatli organi mazkur Konvensiya qoidalarini qo‘llashga qaror qilgan barcha boshqa nosanoat ishlari.

4. Mazkur Konvensiya maqsadlarida “qishloq xo‘jaligi ishlari” atamasi qishloq xo‘jalik korxonalarida, shu jumladan, ekinzorlar va yirik sanoatlashtirilgan qishloq xo‘jalik korxonalarida bajariladigan barcha ishlarga taalluqlidir.

5. Ushbu Konvensiya muayyan korxonalar, korxonalar bo‘limi yoki ish turiga qo‘llanilishiga nisbatan gumon mavjud bo‘lgan barcha hollarda, mazkur masala hokimiyatning vakolatli organi tomonidan ish beruvchilar va ishchilarning tegishli vakillik tashkilotlari bilan, bunday tashkilotlar mavjud bo‘lsa, maslahatlashilganidan so‘ng hal qilinadi.

6. Milliy qonunchilik ushbu Konvensiyani qo‘llash doirasidan mazkur mamlakat qonunchiligining aniqlashi bo‘yicha faqat ish beruvchining oila a‘zolari band bo‘lgan korxonani chiqarishi mumkin.

2-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun “ayol” atamasi yoshi, millati, irqi yoki e‘tiqodi, nikohda bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, ayol jinsiga mansub har qanday shaxsni, “bola” atamasi esa uning ota-onasi nikohda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligidan qat’i nazar, har qanday bolani anglatadi.

3-modda

1. Ayolga nisbatan mazkur Konvensiya qo‘llanilganda, uning taxminiy tug‘ish muddatini tasdiqlaydigan tibbiy guvohnoma taqdim etilganida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til olish huquqiga ega bo‘ladi.

2. Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilning davomiyligi kamida 12 haftani tashkil etadi hamda tug‘ruqdan keyingi majburiy ta‘til davrini o‘z ichiga oladi.

3. Tug‘ruqdan keyingi majburiy ta‘tilning davomiyligi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanadi, ammo hech qanday holatda 6 haftadan kam bo‘lishi mumkin emas; butun homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilning qolgan qismi mamlakat qonunchiligida belgilab qo‘yilganligiga qarab, tug‘ruqning taxmin qilingan sanasigacha yoki tug‘ruqdan keyingi majburiy ta‘til muddati tugaganidan so‘ng foydalanilishi mumkin yoxud uning bir qismi tug‘ruqning taxmin qilingan sanasidan oldin, qolgan qismi tug‘ruqdan keyingi majburiy ta‘til muddati tugaganidan so‘ng olinishi mumkin.

4. Agar tugʻruq taxmin qilingan sanasidan keyin roʻy bersa, ushbu sanaga qadar olingan taʼtil har qanday holatda tugʻruqning aniq sanasigacha uzaytiriladi, bunda tugʻruqdan keyingi majburiy taʼtilning davomiyligi qisqartirilmaydi.

5. Tibbiy koʻrik bilan aniqlanganda kasallikning sababi homiladorlik boʻlsa, mamlakat qonunchiligi tugʻruqqa boʻlgan davrda qoʻshimcha taʼtil muddatini nazarda tutadi va uning maksimal davomiyligi hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanishi mumkin.

6. Tibbiy koʻrik bilan aniqlangan kasallikning sababi tugʻruq boʻlsa, ayol tugʻruqdan keyingi taʼtilini uzaytirish huquqiga ega boʻladi va uning maksimal davomiyligi hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanishi mumkin.

4-modda

1. 3-modda qoidalariga muvofiq belgilangan homiladorlik va tugʻish boʻyicha taʼtilda boʻlgan ayol pul va tibbiy yordam olish huquqiga ega boʻladi.

2. Pul nafaqasi miqdori mamlakat qonunchiligi tomonidan ayolning oʻzi va uning farzandi uchun gigiyena nuqtai nazaridan yaxshi hayotiy sharoitni hamda zarur turmush darajasini taʼminlaydigan tarzda belgilanadi.

3. Tibbiy yordam malakali akusherlar yoki shifokorlar tomonidan koʻrsatiladigan tugʻruqqa, tugʻish vaqtida va undan keyin parvarish hamda kuzatuvni, shuningdek zarurat boʻlganda kasalxonaga yotqizishni oʻz ichiga oladi; bunda imkon qadar shifokorni tanlashga boʻlgani kabi davlat yoki xususiy tibbiy muassasani tanlashda ham toʻliq erkinlik taqdim etiladi.

4. Pul nafaqalari va tibbiy yordam yo majburiy ijtimoiy sugʻurta tizimining mablagʻlari hisobidan yo davlat jamgʻarmalari hisobidan taqdim etiladi; har ikki holatda ham ular belgilangan shartlarga javob beradigan barcha xotin-qizlarga huquqiy jihatdan taqdim etiladi.

5. Koʻrsatilgan pul nafaqalarini va tibbiy yordamni olish huquqiga daʼvogarlik qila olmaydigan xotin-qizlarga, ijtimoiy koʻmaklashish jamgʻarmasi hisobidan ijtimoiy koʻmaklashish tartibida yordam koʻrsatish uchun talab qilinadigan daromadlarining tekshirilishi sharti bilan tegishli yordam taqdim etiladi.

6. Majburiy ijtimoiy sugʻurta mablagʻlari hisobidan beriladigan pul nafaqalari miqdori avvalgi ish haqi asosida hisoblab chiqilganda, u ayolning ushbu maqsadda hisobga olinadigan avvalgi ish haqining kamida uchdan ikki qismini tashkil etadi.

7. Majburiy ijtimoiy sugʻurta tizimiga muvofiq homiladorlik va tugʻruq boʻyicha nafaqalarni koʻzda tutadigan hamda toʻlanadigan ish haqining umumiy miqdoriga asoslangan har qanday soliqlarni va shu kabi nafaqalarni taqdim etish maqsadida yigʻiladigan har qanday badallar ish beruvchilar va ishchilar yoki faqat ish beruvchilar tomonidan toʻlanishidan qatʼi nazar, mazkur korxonada band boʻlgan erkaklar va xotin-qizlarning umumiy soni asosida, jinsdagi farqlarsiz toʻlanadi.

8. Hech bir holatda ish beruvchi unda band boʻlgan xotin-qizlarga tegishli bunday nafaqalarning taqdim etilishi yuzasidan qilgan xarajatlari uchun shaxsan javobgar boʻlmaydi.

5-modda

1. Agar ayol oʻz farzandini ona suti bilan boqayotgan boʻlsa, u bu maqsad uchun ishida bir yoki bir necha marotaba tanaffus olish huquqiga ega boʻlib, bu tanaffusning davomiyligi mamlakat qonunchiligi bilan belgilanadi.

2. Bolani ovqatlantirish uchun ishdagi tanaffuslar ish vaqti hisoblanadi hamda unga bu uchun qonun hujjatlari tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ish vaqtidek haq to'lanadi; agar bu masala jamoa shartnomasi orqali tartibga solinadigan bo'lsa, mazkur qoida tegishli shartnoma bilan belgilanadi.

6-modda

Ayol 3-modda qoidalariga muvofiq unga berilgan homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lganida, ish beruvchi tomonidan ayolning ishdan bo'lmaganligi vaqtida yoki ijro muddati uning ishdan bo'lmaganligi bilan to'g'ri keladigan muddatda berilgan ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyrug'i noqonuniy hisoblanadi.

7-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro mehnat tashkilotining har bir a'zosi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatga ilova qilingan bayonot yordamida quyidagilarga nisbatan mazkur Konvensiya qo'llanilishi yuzasidan istisnoni nazarda tutishi mumkin:

- a) nosanoat ishlarining ayrim toifalarini;
- b) qishloq xo'jaligi korxonalarida (ekinzorlardan tashqari) bajariladigan ishlarni;
- c) xususiy xo'jaliklarda bajariladigan uy ishlari;
- d) uyda ishlovchi xotin-qizlarni;
- e) dengiz orqali yo'lovchilarni yoki yuklarni tashish bo'yicha transport muassasalari.

2. Mazkur moddaning 1-bandi qoidalari ish turlari yoki korxonalar toifalariga nisbatan qo'llanilishi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatga ilova qilinadigan bayonotda ko'rsatiladi.

3. Shunday bayonot qilgan Tashkilotning har qanday a'zosi istalgan vaqtda yangi bayonot orqali uni to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

4. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qilingan bayonotning o'ziga nisbatan kuchga kirgan Tashkilotning har bir a'zosi, o'zining mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi har yilgi ma'ruzasida, qilingan bayonotga asosan ushbu moddaning 1-bandi tatbiq etiladigan ishlar va korxonalarga nisbatan o'z qonunchiligi va amaliyotining holati hamda mazkur ishlar va korxonalarga nisbatan Konvensiya hayotga qay darajada qo'llanilayotgani yoki uni qanday qo'llash ko'zda tutilayotgani to'g'risida xabar beradi.

5. Mazkur Konvensiya dastlab kuchga kirgan sanadan besh yillik davr o'tganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi Konferensiyaga, uning fikriga ko'ra, ushbu istisnolarning qo'llanilishi to'g'risidagi, mazkur masalada qabul qilinishi kerak bo'lgan choralar haqidagi takliflarni o'z ichiga olgan maxsus ma'ruzani taqdim etadi.

8-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlarni ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingandan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosiga nisbatan uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 2-bandiga muvofiq Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga yuborilgan bayonotda quyidagilarga nisbatan ko'rsatmalar mavjud:

a) Tashkilotning tegishli a'zosi Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlarsiz qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

b) Konvensiya qoidalarini o'zgartirishlari bilan va bu o'zgartirishlarning tafsilotlarini qo'llash majburiyatini olgan hududlar;

c) Konvensiya qo'llanilmaydigan hududlar va bu holatda uning qo'llanilmaslik sababi;

d) qaysi hududlarga nisbatan Tashkilotning tegishli a'zosi o'z qarorini, bu holat kelgusida ko'rib chiqilgunga qadar, saqlab turishi.

2. Ushbu moddaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlarida ifodalangan majburiyatlar ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatning ajralmas qismi hisoblanadi hamda u bilan bir xil kuchga ega.

3. Tashkilotning har qanday a'zosi yangi bayonoti orqali ushbu moddaning 1-bandi "b", "c" yoki "d" kichik bandlariga asosan avvalgi bayonotida mavjud bo'lgan qo'shimcha shartlarning barchasidan yoki bir qismidan voz kechishi mumkin.

4. Tashkilotning har qanday a'zosi 12-modda qoidalariga muvofiq mazkur Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davri mobaynida Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlardagi istalgan avvalgi bayonotning shartlarini o'zgartiradigan va muayyan hududlardagi hozirgi vaziyat to'g'risida xabardor qiladigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

11-modda

1. Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 35-moddasi 4 va 5-bandlariga muvofiq Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yo'llangan bayonotda Konvensiya qoidalari tegishli hududda o'zgartirishlar bilan yoki o'zgartirishlarsiz qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi; agar bayonotda Konvensiya qoidalari o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda o'zgartirishlarning tafsiloti ham beriladi.

2. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat yangi bayonot orqali har qanday avvalgi bayonotda nazarda tutilgan o'zgartirishlardan foydalanish huquqidan to'liq yoki qisman voz kechishi mumkin.

3. Tashkilotning tegishli a'zosi yoki a'zolari yoxud xalqaro hokimiyat 12-modda qoidalariga muvofiq mazkur Konvensiya denonsatsiya qilinishi mumkin bo'lgan davrida Bosh direktorga har qanday boshqa munosabatlardagi istalgan avvalgi bayonotning shartlarini o'zgartiradigan va ushbu Konvensiyaning qo'llanilishiga nisbatan mavjud vaziyat to'g'risida xabardor qiladigan yangi bayonotni yuborishi mumkin.

12-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi uning dastlabki kuchga kirgan paytidan boshlab o'n yillik muddat o'tganidan keyin denonsatsiya qilish

to'g'risidagi hujjat orqali uni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi avvalgi bandda qayd etilgan o'n yillik davr o'tganidan keyin bir yil muddatda mazkur moddada nazarda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmasa, navbatdagi o'n yillik davrga bog'liq bo'ladi hamd mazkur moddada belgilangan tartibda ushbu Konvensiyani har o'n yillik davr o'tishi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

13-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarning ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonotlar va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

15-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

16-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyani qabul qilsa va agar yangi konvensiyada aksi nazarda tutilmagan holatlar bo'lsa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 12-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan uni ratifikatsiya qilish uchun yopiladi.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni jihatidan o'z kuchida qoladi.

17-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

KORXONALARDA XODIMLAR VAKILLARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA ULARGA BERILADIGAN IMKONIYATLAR TO'G'RSIDAGI 135-SONLI KONVENSIYA

*1971-yil 23-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 56-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
494-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va
1971-yilning 2-iyunida o'zining ellik oltinchi sessiyasiga *to'planib*,
xodimlar mehnat sohasida birlashmalar erkinligini cheklashga qaratilgan har qanday
kamsitish harakatlariga qarshi himoyani ta'minlovchi 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini
olib borish va birlashish huquqi to'g'risidagi konvensiya qoidalarini *hisobga olib*,
sessiya kun tartibining beshinchi bandi hisoblangan korxonalarda xodimlarning
vakillari huquqlarini himoya qilish hamda ularga berilgan imkoniyatlarga oid bir qator
takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,
bir ming to'qqiz yuz yetmish birinchi yil iyun oyining yigirma uchinchi kunida
quyidagi "1971-yilgi Xodimlar vakillari to'g'risidagi konvensiya" deb nomlanishi mumkin
bo'lgan Konvensiyani qabul qiladi:

1-modda

Korxonadagi xodimlarning vakillari ularga zarar yetkazish mumkin bo'lgan har
qanday xatti-harakatlarga qarshi, shu jumladan, ularning xodimlar vakili sifatidagi
maqomiga yoki faoliyatiga asosan yoki ularning birlashmaga a'zo bo'lganligiga, yoki
ularning birlashma faoliyatida ishtirok etganligiga asosan bo'shatilishiga qarshi samarali
himoyadan, ular qanchalik amaldagi qonun hujjatlariga yoki jamoa shartnomalariga
yoki boshqa birgalikda kelishilgan shartnomalarga muvofiq ravishda faoliyat olib borgan
bo'lsalar, shu darajada foydalanadilar.

2-modda

1. Korxonada xodimlar vakillariga ular o'z funksiyalarini tez va samarali bajarishiga
imkon beradigan kerakli shart-sharoit yaratiladi.

2. Shu munosabat bilan, tegishli korxonalar ehtiyojlari, ko'lam va imkoniyatlari hamda mamlakat sanoat munosabatlarining xususiyatlari hisobga olinadi.

3. Xodimlar vakillariga bunday imkoniyatlarning berilishi tegishli korxonalar faoliyatining samaradorligini pasaytirmaydi.

3-modda

Ushbu Konvensiya maqsadida "xodimlar vakillari" atamasi milliy qonunchilik yoki amaliyotga muvofiq bunday deb e'tirof etilgan shaxslarni anglatadi, xususan:

a) kasaba uyushmalari vakillari, ya'ni kasaba uyushmalari yoki ushbu kasaba uyushmalari a'zolari tomonidan tayinlangan yoki saylangan vakillar;

b) saylangan vakillar, ya'ni milliy qonunchilik yoki jamoa shartnomalari qoidalariga muvofiq korxonalar xodimlari tomonidan erkin saylanadigan vakillar va ushbu vakillarning funksiyalari tegishli mamlakatdagi kasaba uyushmalarining mutlaq vakolatlari deb e'tirof etilgan faoliyatni o'z ichiga olmaydi.

4-modda

Milliy qonunchilik, jamoa shartnomalari, sud yoki hakamlik sudi qarorlari ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan himoya qilinish huquqi va imkoniyatlar bilan ta'minlangan xodimlar vakillari turi yoki turlarini belgilab berishi mumkin.

5-modda

Bir korxonaning o'zida ham kasaba uyushmalari vakillari, ham saylangan vakillar mavjud bo'lgan hollarda, zarurat tug'ilganda, saylangan vakillarning mavjudligi tegishli kasaba uyushmalarining yoki ular vakillarining mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanilmasligini ta'minlash maqsadida hamda saylangan vakillar bilan tegishli kasaba uyushmalari va ular vakillari o'rtasida barcha muhim masalalar bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish maqsadida kerakli choralar qabul qilinadi.

6-modda

Ushbu Konvensiyani amalga oshirish milliy qonunchilik yoki jamoa shartnomalari orqali yoki milliy amaliyotga mos keluvchi har qanday boshqa yo'l bilan ta'minlanishi mumkin.

7-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

8-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkiloti a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik, ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutadi va u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

10-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan unga yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

11-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining barchasiga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

12-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

13-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror-bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 9-modda qoidalaridan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiyaning kuchga kirishi sharti bilan avtomatik ravishda mazkur Konvensiyani zudlik bilan denonsatsiya qilishni taqozo etadi;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan ushbu Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

14-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

XODIMLARNI ISH JOYIDAGI HAVONING IFLOSLANISHI, SHOVQIN VA TEBRANISHLAR TUFAYLI YUZAGA KELADIGAN KASBIY XAVF-XATARDAN HIMOYA QILISH TO'G'RISIDAGI 148-SONLI KONVENSIYA

1977-yil 20-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 63-sessiyasida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 6-maydagi
O'RQ-840-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1977-yilning 1-iyunida o'zining oltmish uchinchi sessiyasiga *to'planib*,

tegishli xalqaro konvensiyalar va tavsiyalar qoidalarini, xususan: 1953-yildagi Ishchilar salomatligini muhofaza qilish to'g'risidagi tavsiyalar; 1959-yildagi Ish joylarida sog'liqni saqlash xizmatlari to'g'risidagi tavsiyalar; 1960-yildagi Radiasiyadan himoya qilish to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar; 1963-yildagi Mashinalarni himoya vositalari bilan jihozlash to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar; 1964-yildagi Ishlab chiqarish jarohatlari bo'yicha nafaqalar to'g'risidagi konvensiya; 1964-yildagi Savdo va muassasalarda gigiyena to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar; 1971-yildagi Benzol to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar; 1974-yildagi Kasbiy saraton to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalarni *qayd etgan holda*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan mehnat muhiti: havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishlar to'g'risidagi masalalar bo'yicha bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

ushbu takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz yetmish yettinchi yil iyun oyining yigirmanchi kunida quyidagi 1977-yilgi Ishlab chiqarish muhiti (havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish) to'g'risidagi konvensiyasi deb deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. QO'LLANISH SOHASI VA TUSHUNCHALAR

1-modda

1. Mazkur Konvensiya iqtisodiyot faoliyatining barcha sohalariga qo'llaniladi.
2. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilot a'zosi, ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan, agar ular mavjud bo'lsa,

maslahatlashuvlardan so'ng, ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi iqtisodiy faoliyatning ayrim sohalariga nisbatan muhim xarakterga alohida muammolarni keltirib chiqarsa, mazkur sohalarni uning qo'llanilish doirasidan istisno qilishi mumkin.

3. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasida ushbu moddaning 2-bandiga binoan istisno qilinishi mumkin bo'lgan sohalarni istisno sabablarini ko'rsatib sanab o'tadi, shuningdek keyingi ma'ruzalarda istisno qilingan sohalarga nisbatan o'zining qonunchilik va o'zining amaliy holati to'g'risida hamda Konvensiyaning qanday darajada amalga kiritilgani yoki Konvensiyani bunday sohalarga nisbatan amalga kiritish ehtimoli to'g'risida xabar beradi.

2-modda

1. Tashkilotning har bir a'zosi, ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan, agar ular mavjud bo'lsa, maslahatlashuvlardan so'ng, mazkur Konvensiyada alohida quyidagilarga nisbatan nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi mumkin:

- a) havoning ifloslanishi;
- b) shovqin;
- c) tebranish.

2. Ushbu Konvensiyaning xavfning bir yoki undan ortiq toifalariga nisbatan majburiyatlarini o'z zimmasiga olmagan Tashkilot a'zosi bu haqida o'zining ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatida ma'lum qiladi hamda buni XMT Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasida asoslab beradi; u keyingi ma'ruzalarida istisno qilingan toifalarga yoki xavf-xatar toifalariga nisbatan o'zining qonunchilik va o'zining amaliy holati, shuningdek Konvensiyaning qanday darajada amalga kiritilgani yoki uni har bir bunday xavf-xatar toifalariga nisbatan amalga kiritish ehtimoli to'g'risida ko'rsatib o'tadi.

3. Ratifikatsiya qilish paytida xavf-xatarning barcha toifalariga nisbatan mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olmagan Tashkilotning har bir a'zosi keyinchalik buni vaziyat taqozo etganda, u Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktorini avval istisno qilingan bir yoki bir nechta toifalarga nisbatan ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olgani haqida xabardor qiladi.

3-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlarida:

a) "havoning ifloslanishi" tushunchasi, ularning jismoniy holatidan qat'i nazar, sog'liq uchun zararli yoki boshqa xavfli moddalar bilan havoning har qanday ifloslanishini o'z ichiga oladi;

b) "shovqin" tushunchasi eshitish qobiliyatini yo'qotishi yoki sog'liq uchun zararli yoxud boshqa xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday tovushni o'z ichiga oladi;

c) "tebranish" tushunchasi qattiq jismlar tomonidan inson tanasiga uzatiladigan va sog'liq uchun zararli yoxud boshqa xavfli bo'lgan har qanday tebranishni o'z ichiga oladi.

II BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

4-modda

1. Milliy qonunchilik ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatarlardan ogohlantirish va ularni cheklashga, shuningdek ushbu xavf-xatarlardan himoya qilishga yo'naltirilgan choralar ko'rish zarurligini belgilaydi.

2. Bunday belgilangan choralarni amalda qo'llashga nisbatan qoidalar texnik me'yorlar yo'li bilan amaliy qoidalar to'plami yoki boshqa tegishli uslub yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

5-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi mazkur Konvensiya qoidalarini qo'llashda ish beruvchilar va xodimlarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlardan so'ng harakat qiladi.

2. Ish beruvchilar va xodimlar vakillari 4-moddaga muvofiq belgilangan choralarni amalda qo'llashga nisbatan qoidalarni ishlab chiqishda jalb etiladi.

3. Mazkur Konvensiyaga muvofiq belgilangan choralarni qo'llashga nisbatan ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida barcha darajalarda iloji boricha yaqin hamkorlikni ta'minlash nazarda tutiladi.

4. Korxonalar ish beruvchilari va xodimlar vakillariga inspektorlarning mazkur Konvensiyaga muvofiq belgilangan choralarning qo'llanilishi yuzasidan ular tomonidan nazorat qilishda, agar inspektorlarning fikriga ko'ra, vakolatli organning umumiy ko'rsatmalari nazorat samaradorligiga zarar yetkazmasa, hamrohlik qilish imkoniyati beriladi.

6-modda

1. Ish beruvchilar belgilangan choralarni qo'llash uchun javobgardirlar.

2. Agar bir yoki bir nechta ish beruvchi bir vaqtning o'zida bir ish joyida faoliyat yuritrsa, ular belgilangan choralarni qo'llash maqsadida har bir ish beruvchining o'z xodimlarining sog'lig'i va xavfsizligi uchun javobgarligiga zarar yetkazmasdan hamkorlik qilishga majburlar. Tegishli sharoitlarda vakolatli hokimiyat organi bunday hamkorlikni amalga oshirish uchun umumiy tartib-taomillarni belgilaydi.

7-modda

1. Xodimlar ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatarlarni oldini olish va ularni cheklashga, shuningdek ulardan himoyalanihga yo'naltirilgan xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etishga majburlar.

2. Xodimlar yoki ularning vakillari taklif berish, kasbiy tayyorgarlik va ma'lumot olish hamda ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatarlardan himoyalanihni ta'minlash uchun tegishli organlarga murojaat qilish huquqiga ega.

III BO'LIM. OLDINI OLISH VA HIMOYA QILISH CHORALARI

8-modda

1. Hokimiyatning vakolatli organi ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishning zararli ta'siri xavfini aniqlash imkonini beradigan toifalarni belgilaydi va zarur hollarda, ushbu toifalar asosida maqbul ta'sir qilish darajasini ko'rsatadi.

2. Hokimiyatning vakolatli organi bunday toifalarni ishlab chiqish va ta'sirning maqbul darajasini belgilashda ish beruvchilar va xodimlarning eng manfaatdor vakillik tashkilotlari tomonidan tayinlangan texnik jihatdan vakolatli shaxslarning fikrini hisobga oladi.

3. Ushbu toifalar va ta'sir qilish chegaralari, iloji boricha, ish joyida bir vaqtning o'zida bir nechta xavf-xatarlarga ta'sir qilish natijasida yuzaga keladigan kasbiy xavfning har qanday o'sishini hisobga olgan holda, zamonaviy milliy va xalqaro bilim va ma'lumotlar asosida muntazam ravishda o'rnatiladi, to'ldiriladi hamda ko'rib chiqiladi.

9-modda

Iloji boricha ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan har qanday xavf-xatar quyidagilar yordamida bartaraf etiladi:

a) loyihalashtirish yoki jihozlashtirish yoxud yangi qurilma yoki jarayonlarda qo'llaniluvchi yoxud mavjud qurilma va jarayonlarga qo'shiladigan texnik choralar yordamida; yoki agar buning imkoni bo'lmasa;

b) qo'shimcha tashkiliy choralar yordamida.

10-modda

Agar 9-moddaga muvofiq qo'llaniladigan choralar ish joylaridagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish darajasini 8-moddada keltirilgan darajasigacha kamayishiga olib kelmasa, ish beruvchi xodimlarni tegishli shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlaydi hamda ularni tegishli holatda saqlaydi. Ish beruvchi xodimlardan mazkur moddaga muvofiq taqdim etilgan shaxsiy himoya vositalarisiz ishlarni bajarishni talab qilmaydi.

11-modda

1. Ish joylaridagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatarlar ostida bo'lgan yoki duchor bo'lishi mumkin bo'lgan xodimlar sog'lig'ining holati, hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilangan vaqt oralig'iga muvofiq shartlar va sharoitlar orqali nazorat qilinadi. Bunday nazorat hokimiyatning vakolatli organi belgilaganidek, ishga tayinlanishdan oldin dastlabki tibbiy ko'rik va davriy ko'riklarni o'z ichiga oladi.

2. Manfaatdor xodimlar mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan nazorat bilan bog'liq hech qanday xarajatlarni o'z zimmalariga olmaydilar.

3. Agar xodimning ish joyida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish ta'sirida bo'lishi tibbiyot nuqtai nazarin zid bo'lsa, milliy amaliyot va sharoitlarga muvofiq manfaatdor ishchi boshqa to'g'ri keladigan ish joyiga o'tkazilishi yoki ijtimoiy ta'minot yoxud har qanday boshqa choralar yordamida uning daromadi saqlanishining barcha choralari ko'rilishi kerak.

4. Mazkur Konvensiya amalga oshirilishi uchun ko'riladigan choralar ijtimoiy ta'minot yoki ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida taqdim etiladigan xodimlarning huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

12-modda

Hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanadigan ish joylarida havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishi natijasida xodimlarni kasbiy xavf-xatarlarga duchor qiluvchi jarayonlar, moddalar, mexanizmlar va jihozlar qo'llanilayotganligi to'g'risida hokimiyatning vakolatli organi xabardor qilinadi va zarur bo'lganda, hokimiyatning vakolatli organi o'rnatilgan sharoitlarda ularning qo'llanilishiga ruxsat beradi yoki taqiqlaydi.

13-modda

Barcha manfaatdor shaxslar:

a) havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishi natijasida yuzaga keladigan ish joylaridagi kasbiy xavf-xatarlar to'g'risida yetarli va tegishli ma'lumotni olishadi;

b) ushbu xavf-xatarlarni oldini olish va cheklash, shuningdek bu xavf-xatarlardan himoya qilish uchun mavjud vositalar bo'yicha yetarli va tegishli ko'rsatmalarni olishadi.

14-modda

Milliy sharoitlar va resurslarni hisobga olgan holda, ish joylaridagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan xavf-xavflarning oldini olish va cheklash sohasida tadqiqotlarni o'tkazishda amaliy yordam berish uchun choralar ko'riladi.

IV BO'LIM. QO'LLASH BO'YICHA CHORALAR

15-modda

Hokimiyatning vakolatli organi tomonidan belgilanadigan tartib va sharoitlarga muvofiq, ish beruvchi ish joylaridagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarning oldini olish va cheklashga taalluqli bo'lgan masalalarni hal qilish uchun vakolatli shaxsni tayinlashi yoki korxonadan tashqari vakolatli xizmat yordamidan yoxud bir nechta korxonalar uchun umumiy bo'lgan xizmatdan foydalanishi kerak.

16-modda

Tashkilotning har bir a'zosi:

a) milliy amaliyot va shartlarga muvofiq qonun hujjatlarida yoki boshqa usul bilan ushbu Konvensiya qoidalarini amalga oshirish uchun zarur choralarni, shu jumladan tegishli jazo choralarni ko'rish;

b) mazkur Konvensiya qoidalarining qo'llanilishi ustidan nazoratni tegishli inspeksiya xizmatlariga topshiradi yoki tegishli inspeksiya o'tkazilayotganligini tekshiradi.

V BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

17-modda

Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

18-modda

1. Mazkur Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Tashkilot a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotni har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

19-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin uni to'liq yoki mazkur Konvensiyaning 2-moddasida keltirilgan bir yoki bir nechta xavf-xatarlar toifalariga nisbatan Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga ko'ra, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

20-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

21-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

22-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki

qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

23-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 19-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qoladi.

24-modda

Mazur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

JAMOA MUZOKARALARIGA KO'MAKLASHISH TO'G'RISIDAGI 154-SONLI KONVENSIYA

1981-yil 19-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 67-sessiyasida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
495-I-sonli Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1981-yilning 3-iyunida o'zining oltinchi sessiyasiga *to'planib*,

Filadelfiya deklaratsiyasining "jahon mamlakatlari tomonidan jamoa muzokaralarini olib borish huquqining amalda e'tirof etilishiga erishishni ko'zlagan dasturlarning qo'llab-quvvatlanishi maqsadida Xalqaro mehnat tashkilotining muhim majburiyatini" tan oluvchi qoidalarini tasdiqlab hamda ushbu prinsipni "barcha xalqlar uchun qo'llash mumkin ekanligini" *ta'kidlab*,

1948-yilgi Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya, 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini olib borish va birlashish huquqi to'g'risidagi konvensiya, 1951-yilgi Jamoa shartnomalari to'g'risidagi tavsiya, 1951-yilgi Ixtiyoriy o'zaro murosaga kelish va arbitraj to'g'risidagi tavsiya, 1978-yilgi Davlat xizmatidagi mehnat munosabatlari to'g'risidagi konvensiya va tavsiya, 1978-yilgi Mehnat sohasini tartibga solish to'g'risidagi konvensiya va tavsiyada mavjud bo'lgan xalqaro standartlarning muhim ahamiyatini *e'tiborga olib*,

ushbu standartlarning maqsadlariga erishish uchun, xususan, 1949-yilgi Jamoa muzokaralarini olib borish va birlashish huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 4-moddasi hamda 1951-yilgi Jamoa shartnomalari to'g'risidagi tavsiyaning 1-bandidan kelib chiqadigan asosiy prinsiplarni amalga oshirish uchun kuch-g'ayrat sarflash lozimligini *e'tiborga olib*,

shu bois, mazkur standartlarni erkin va ixtiyoriy jamoa muzokaralarini olib borishga ko'maklashishga qaratilgan hamda ushbu standartlarga asoslangan tegishli chora-tadbirlar bilan to'ldirish zarurligini *e'tiborga olib*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblangan jamoaviy muzokaralarni olib borishga ko'maklashishga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil iyun oyining o'n to'qqizinchi kunida quyidagi 1981-yilgi Jamoa muzokaralarini olib borish to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. QO'LLANISH SOHASI VA ATAMALAR

1-modda

1. Ushbu Konvensiya iqtisodiy faoliyatning barcha tarmoqlarini qamrab oladi.

2. Ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan kafolatlar qurolli kuchlarga va politsiyaga nisbatan qay darajada qo'llanilishi milliy qonunchilik yoki milliy amaliyot tomonidan belgilanishi mumkin.

3. Davlat xizmatiga nisbatan mazkur Konvensiya qo'llanilishining maxsus usullari milliy qonunchilik yoki milliy amaliyot tomonidan belgilanishi mumkin.

2-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun "jamoamuzokaralari" atamasi bir tomondan ish beruvchi, ish beruvchilar guruhi yoki ish beruvchilarning bir yoki bir necha tashkilotlari bilan, ikkinchi tomondan mehnatkashlarning bir yoki bir necha tashkilotlari o'rtasida quyidagi maqsadlarda olib boriladigan barcha muzokaralarni anglatadi:

- a) mehnat sharoitlarini va ish bilan ta'minlanish shartlarini belgilash;
- b) ish beruvchilar va mehnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- c) ish beruvchilar yoki ularning tashkilotlari bilan mehnatkashlar tashkiloti yoki tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish.

3-modda

1. Agar milliy qonunchilik yoki milliy amaliyot mehnatkashlar vakillari mavjudligini 1971-yilgi Mehnatkashlar vakillari to'g'risidagi konvensiyaning 3-moddasi "b" kichik bandida belgilanganidek e'tirof etsa, u holda milliy qonunchilik va amaliyot "jamoamuzokaralari" atamasi mazkur vakillar bilan olib boriladigan muzokaralarni qay darajada qamrab olishini, ushbu Konvensiya maqsadlari uchun belgilashi mumkin.

2. Mazkur moddaning 1-bandi bajarilishidan kelib chiqib "jamoamuzokaralari" atamasi mehnatkashlar vakillari bilan olib boriladigan muzokaralarni ham qamrab oladigan bo'lsa, mazkur vakillarning mavjudligi tegishli mehnatkashlar tashkilotlarining mavqeiga zarar yetkazmasligini ta'minlash uchun, zarur bo'lganicha, tegishli choratadbirlar ko'riladi.

II BO'LIM. QO'LLANISH USULLARI

4-modda

Ushbu Konvensiya qoidalarining qo'llanilishi, agar jamoa shartnomalari, arbitraj qarorlari yoki milliy amaliyotga muvofiq bo'lgan boshqa usul orqali amalga oshirilmayotgan bo'lsa, milliy qonun hujjatlari tomonidan ta'minlanadi.

III BO'LIM. JAMOA SHARTNOMALARIGA KO'MAKLASHISH

5-modda

1. Jamoa muzokaralarini olib borishga ko'maklashish uchun milliy sharoitga mos bo'lgan chora-tadbirlar ko'riladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandida belgilangan choralar quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) mazkur Konvensiyada ko'zda tutilgan faoliyat tarmoqlarida jamoa muzokaralarini barcha ish beruvchilar va barcha mehnatkashlar guruhi olib borish imkoni bo'lishini;
- b) jamoa muzokaralari bosqichma-bosqich mazkur Konvensiyaning 2-moddasi "a", "b", "c" kichik bandlarida ko'zda tutilgan barcha masalalarni qamrab olishini;

c) ish beruvchilar va mehnatkashlar tashkilotlari o'rtasida kelishilgan tartib-qoidalar ishlab chiqishni rag'batlantirishni;

d) jamoa muzokaralarini olib borishga ularni tartibga soladigan qoidalarning mavjud emasligi yoki bu qoidalarning xususiyati to'liq emasligi yoxud mos kelmasligi to'sqinlik qilmasligini;

e) mehnat nizolarini hal etish bo'yicha organlar va tartib-qoidalar jamoa muzokaralarini olib borishga ko'maklashishini ko'zlagan holda ta'sis etilishini.

6-modda

Ushbu Konvensiyaning qoidalari jamoa muzokaralarining o'zaro murosaga kelish va/yoki arbitraj mexanizmi yoki muassasasining doiralarida olib borilishini o'z ichiga oluvchi yoki jamoa muzokaralari jarayonida tomonlar ixtiyoriy ishtirok etadigan mexanizm yoki muassasani o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarish munosabatlari tizimining faoliyatiga to'sqinlik qilmaydi.

7-modda

Davlat hokimiyat organlari tomonidan jamoa muzokaralarini rivojlantirishni rag'batlantirish va ko'maklashishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar dastlabki maslahatlashuvlar va imkon qadar davlat hokimiyati organlari hamda ishchilar va ish beruvchilar tashkilotlari o'rtasidagi bitimlarning mavzusi bo'ladi.

8-modda

Jamoa muzokaralariga ko'maklashish maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar jamoa muzokaralari erkinligini cheklamaydigan tartibda ishlab chiqiladi yoki qo'llaniladi.

IV BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

9-modda

Mazkur Konvensiya mavjud bo'lgan har qanday Konvensiyani yoki Tavsiyani qayta ko'rib chiqmaydi.

10-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

11-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkiloti a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

12-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish

to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi hamda u ushbu modda shartlariga binoan bu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

13-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

14-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

15-modda

Har gal, Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

16-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 12-moddaning qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

17-modda

Mazkur Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

ISHLAYOTGAN ERKAKLAR VA AYOLLAR UCHUN TENG MUOMALA VA TENG IMKONIYATLAR: OILAVIY MAJBURIYATLARGA EGA XODIMLAR TO'G'RISIDAGI 156-SONLI KONVENSIYA

*1981-yil 23-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 67-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-iyundagi
O'RQ-932-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro mehnat byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1981-yilning 3-iyunida o'zining oltinchi yettinchi sessiyasiga *to'planib*,

Xalqaro mehnat tashkilotining maqsad va vazifalari bo'yicha, quyidagi "barcha insonlar irqi, e'tiqodi yoki jinsidan qat'i nazar, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyat, erkinlik va qadr-qimmatlari ta'minlangan sharoitida o'z moddiy farovonligiga va ma'naviy rivojiga erishish huquqiga ega" degan qoidani e'tirof etuvchi Filadelfiya deklaratsiyasini *e'tiborga olib*,

Xalqaro mehnat konferensiyasi tomonidan 1975-yilda qabul qilingan Ayol mehnatkashlar uchun muomala va imkoniyat tengligi to'g'risidagi deklaratsiya qoidalarini hamda Ayol mehnatkashlar uchun muomala va imkoniyat tengligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan harakat dasturlari to'g'risidagi rezolyutsiya qoidalarini *e'tiborga olib*,

Erkak va ayol mehnatkashlar uchun muomala va imkoniyat tengligini ta'minlashga qaratilgan mehnat bo'yicha xalqaro konvensiyalar va tavsiyalarni, xususan, 1951-yilgi Teng haq to'lash to'g'risidagi konvensiya va Tavsiya, 1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya va Tavsiya hamda 1975-yilgi Inson resurslarini rivojlantirish to'g'risidagi tavsiyaning VIII bo'limini *e'tiborga olib*,

1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya oilaviy majburiyatlar asosida amalga oshiriladigan farqlar bevosita ko'rib chiqilmasligini va bu sohada yangi normalar qabul qilinishi zarurligini hisobga olinishini *eslatib*,

1965-yilgi Oilaviy majburiyatlarga ega ayollar mehnati to'g'risidagi tavsiya qoidalarini hisobga olgan holda va u qabul qilinganidan beri sodir bo'lgan o'zgarishlarni *e'tiborga olib*,

erkaklar va ayollar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan ham qabul qilinganligini ta'kidlab, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi

muqaddimasining o‘n to‘rtinchi bandida ta’kidlanganidek, “Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari erkak va ayol o‘rtasida to‘la tenglikka erishish uchun ham erkak, ham ayolning jamiyat va oiladagi an’anaviy rolini o‘zgartirish zarurligini” *eslatib,*

oilaviy majburiyatlarga ega xodimlarning muammolari oila va jamiyatga taalluqli kengroq masalalarning milliy siyosatni amalga oshirishda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan jihatlari ekanligini *e’tirof etib,*

oilaviy majburiyatlarga ega erkaklar va ayollar uchun, shuningdek, mazkur va boshqa xodimlar o‘rtasida haqiqiy muomala va imkoniyatlar tengligini o‘rnatish zarurligini *e’tirof etib,*

barcha xodimlar duch keladigan ko‘plab muammolar oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar uchun keskinlashishini hisobga olib, ularning alohida ehtiyojlarini qondirish choralari ko‘rish va umuman xodimlarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan choralarni ko‘rish orqali ularning ahvolini yaxshilash zarurligini *e’tirof etib,*

sessiya kun tartibining 5-bandi hisoblangan erkak va ayol xodimlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar to‘g‘risida bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib,*

ushbu takliflarni xalqaro konvensiya shaklida berishga *qaror qilib,*

bir ming to‘qqiz yuz sakson birinchi yil iyun oyining yigirma uchinchi kunida quyida 1981-yilgi Oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to‘g‘risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo‘lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

1. Ushbu Konvensiya o‘z qaramog‘idagi bolalariga nisbatan oilaviy majburiyatlarga ega erkak va ayol xodimlarga, agar bunday majburiyatlar ularning iqtisodiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish, kirish, ishtirok etish yoki ularda ilgarilash imkoniyatlarini cheklagan holatlarda qo‘llaniladi.

2. Ushbu Konvensiya qoidalari, shuningdek haqiqatdan ham parvarish yoki yordamga muhtoj bo‘lgan boshqa yaqin qarindoshlari – ularning oila a‘zolariga nisbatan majburiyatlarga ega erkak va ayol xodimlarga, agar bunday majburiyatlar ularning iqtisodiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish, kirish, ishtirok etish yoki ularda ilgarilash imkoniyatlarini cheklagan holatlarda qo‘llaniladi.

3. Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun “qaramog‘ida bo‘lgan bola” va “haqiqatdan ham parvarish yoki yordamga muhtoj bo‘lgan boshqa yaqin qarindoshi – oila a‘zosi” atamalari har bir mamlakatda ushbu Konvensiyaning 9-moddasida ko‘rsatilgan usullardan biri bilan belgilanadigan shaxslarni anglatadi.

4. Ushbu moddaning 1 va 2-bandlari qoidalari qo‘llaniladigan xodimlar bundan keyin “oilaviy majburiyatlari bo‘lgan xodimlar” deb nomlanadi.

2-modda

Ushbu Konvensiya iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga va xodimlarning barcha toifalariga nisbatan qo‘llaniladi.

3-modda

1. Erkak va ayol xodimlar uchun muomala va imkoniyatlarning haqiqiy tengligini ta‘minlash uchun Tashkilotning har bir a‘zosining milliy siyosatining maqsadlaridan biri shundaki, haq to‘lanadigan ishlarni bajaradigan yoki bajarishni xohlaydigan oilaviy

majburiyatlari bo'lgan shaxslar bu ishni kamsitishlarga duchor bo'lmasdan va imkoni boricha kasbiy va oilaviy majburiyatini uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishda o'z huquqlaridan foydalanishlari kerak.

2. Ushbu moddaning 1-bandi maqsadlari uchun "kamsitish" atamasi 1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiyaning 1 va 5-moddalarida belgilanganidek, mehnat va ish turlari sohasidagi kamsitishni anglatadi.

4-modda

Erkak va ayol xodimlar uchun muomala va imkoniyatlarning haqiqiy tengligini belgilashda quyidagilar bilan birga milliy shart-sharoit va imkoniyatlarga mos keladigan barcha choralar ko'riladi:

a) oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar o'zlarining ishni erkin tanlashga bo'lgan huquqidan foydalanishlari;

b) ularning ish sharoitlari va ijtimoiy ta'minot sohasidagi ehtiyojlari e'tiborga olinishi.

5-modda

Shuningdek, quyidagilar bilan birga milliy shart-sharoit va imkoniyatlarga mos keladigan barcha choralar ko'riladi:

a) mahalliy darajada tadbirlarni rejalashtirishda oilaviy majburiyattga ega xodimlarning ehtiyojlarini hisobga olish;

b) bolalarni parvarish qilish va oilaga yordam ko'rsatish bo'yicha muassasalari va xizmatlari kabi davlat yoki xususiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish va rivojlantirishga ko'maklashish.

6-modda

Har bir mamlakatning vakolatli hokimiyati va organlari erkak va ayol xodimlar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar tamoyili hamda oilaviy majburiyatlarga ega xodimlarning muammolarini kengroq tushunishga ko'maklashuvchi axborot va ta'limni rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek bu muammolarni hal qilishga yordam beradigan jamoatchilik fikrini rag'batlantirish bo'yicha tegishli choralarni ko'radilar.

7-modda

Milliy shart-sharoit va imkoniyatlarga mos keladigan barcha chora-tadbirlar, shu jumladan oilaviy majburiyatlari bo'lgan xodimlarga mehnat faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishi, shuningdek ushbu majburiyatlar tufayli ishdan bo'shatilgandan keyin uni ishga qayta tiklashga imkon beradigan kasbga yo'naltirish va tayyorlash sohasida choralarko'riladi.

8-modda

Oilaviy majburiyatlar o'z-o'zidan mehnat munosabatlarini tugatish uchun asos bo'la olmaydi.

9-modda

Ushbu Konvensiya qonun hujjatlari yoki qoida, jamoa shartnomalari, korxonaning ichki mehnat tartib qoidalari, arbitraj qarorlari, sud qarorlari yoki ushbu usullarning

birikmali orqali yoxud milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, milliy amaliyotga mos keladigan har qanday boshqa usulda amalga oshirilishi mumkin.

10-modda

1. Ushbu Konvensiya qoidalari, milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, zarur hollarda, bosqichma-bosqich qo'llanilishi mumkin, biroq ularni amalga oshirilishi bo'yicha ko'rilgan choralar har qanday holatda ham 1-moddaning 1-bandi amalda bo'lgan barcha xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan Tashkilotning har bir a'zosi Xalqaro mehnat tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasida Konvensiyaning qaysi qoidalarga nisbatan mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan imkoniyatdan foydalanmoqchi ekanligi ma'lum qiladi va keyingi ma'ruzalarida ushbu qoidalarni qay darajada amalga oshirganligi yoki amalga oshirmoqchi ekanligini ko'rsatadi.

11-modda

Ish beruvchilar va xodimlar tashkilotlari ushbu Konvensiya qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llashda milliy shart-sharoitlar va amaliyotga mos keladigan tarzda ishtirok etish huquqiga ega.

12-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiya faqat ratifikatsiya hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilotning ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

14-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjati orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi hamda u ushbu modda shartlariga binoan bu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

15-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarining ro'yxatga olingani haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolarini xabardor qiladi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

16-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, avvalgi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlariga oid to'liq ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

17-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topgan hollarda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

18-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror bir a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi avtomatik tarzda 14-moddaning qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan, yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qoladi.

19-modda

Ushbu Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

QURILISHDA MEHNAT XAVFSIZLIGI VA GIGIYENASI TO'G'RISIDAGI 167-SONLI KONVENSIYA

*1988-yil 20-iyun, Jenevada
XMT Bosh konferensiyasining 75-sessiyasida qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-fevraldagi
O'RQ-750-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi,
Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1988-yilning 1-iyunida yetmish beshinchi sessiyasiga *to'planib*,

tegishli mehnat bo'yicha xalqaro konvensiyalar va tavsiyalarni, xususan, 1937-yilgi Qurilishda texnik xavfsizlik bo'yicha konvensiya va tavsiyalarni, 1937-yilgi Qurilish sanoatida baxtsiz hodisalarning oldini olishda hamkorlik to'g'risidagi tavsiyalar, 1960-yilgi Radiatsiyadan himoya qilish to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1963-yilgi Mashinalar uchun xavfsizlik uskunalari bilan ta'minlash to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1967-yilgi Maksimal yuk to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1974-yilgi Kasbiy saraton kasalligi to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1977-yilgi Ishlab chiqarish muhiti (havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish) to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1981-yilgi Mehnatda texnik xavfsizlik va gigiena to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1985-yilgi Mehnatda gigiena xizmatlari to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar, 1986-yilgi Asbestdan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya va tavsiyalar hamda Konvensiya qoidalarida keltirilgan 1980-yilda kasbiy kasalliklar ro'yxati qayta ko'rib chiqilgan 1964-yilgi Ishlab chiqarishdagi jarohatlar holatida nafaqalar to'g'risidagi konvensiyani *e'tiborga olib*,

sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi bo'lgan qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha bir qator takliflarni qabul qilishga *qaror qilib*,

mazkur takliflarga 1937 yilgi Qurilishda texnik xavfsizlik to'g'risidagi konvensiyani qayta ko'rib chiquvchi xalqaro konvensiya shaklini berishga *qaror qilib*,

bir ming to'qqiz yuz sakkizinchi yil iyun oyining yigirmanchi kunida quyida 1988-yilgi Qurilishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi konvensiya deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

I BO'LIM. QO'LLANILISH SOHASI VA TUSHUNCHALAR

1-modda

1. Ushbu Konvensiya qurilish faoliyatining barcha turlarini, ayniqsa, qurilish, qurilish muhandisligi, montaj va demontaj ishlari, jumladan qurilish maydonini qurilish ishlariga tayyorlashdan tortib obyektni qurib bitirishgacha bo'lgan har qanday jarayonlar, holatlar va tadbirlarni o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning a'zosi ish beruvchilar va ishchilarning manfaatdor vakillik tashkilotlari bilan maslahatlashuvlardan so'ng, agar ular mavjud bo'lsa, xavfsiz va sog'lom mehnat muhiti ta'minlangan taqdirda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maxsus muammolarni ushbu Konvensiya doirasidan yoki uning ba'zi qoidalari doirasidan iqtisodiy faoliyatning ayrim tarmoqlarini yoki alohida korxonalarni chiqarib tashlashi mumkin.

3. Ushbu Konvensiya, milliy qonun hujjatlari yoki boshqa tartibga solishga muvofiq tayinlangan mustaqil ish bilan band shaxslarni qamrab oladi.

2-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun:

a) "qurilish" atamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

i) qurilish ishlari, shu jumladan yer osti ishlari va qurilish, tarkibiy o'zgarishlar, tiklash ishlari, kapital ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (tozalash va bo'yashni o'z ichiga olgan holda) va barcha turdagi bino va inshootlarni buzish;

ii) fuqarolarning ehtiyojiga qaratilgan qurilishlar, shu jumladan qazish va montaj, tarkibiy o'zgarishlar, aeroportlar, aylanma yo'llar, portlar, ichki suv yo'llari, to'g'onlar, daryo sohillari, dengizlar va qulash zonalari, yo'llar va magistral yo'llar atrofidagi himoya inshootlari; aloqa, drenaj, kanalizatsiya, suv va energiya kabi xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq temir yo'llar, ko'priklar, tunnellar, yo'llar va inshootlar;

iii) bino va inshootlarni zavod ishlab chiqarish elementlaridan o'rnatish va demontaj qilish, shuningdek qurilish maydonchasida yig'ma elementlarni ishlab chiqarish;

b) "qurilish maydonchasi" atamasi "a" kichik bandda ko'rsatilgan qandaydir jarayonlar yoki operatsiyalar amalga oshiriladigan har qanday maydonni anglatadi;

c) "ish joyi" atamasi ishchilar ishlarni bajarish uchun bo'lishi mumkin bo'lgan yoki yuborilishi lozim bo'lgan va ish beruvchining nazorati ostida bo'lgan "e" bandida ko'rsatilgan har qanday joyni anglatadi;

d) "ishchi" atamasi qurilishida ishlaydigan har qanday shaxsni anglatadi;

e) "ish beruvchi" atamasi quyidagilarni anglatadi:

(i) qurilish maydonchasida bir yoki bir nechta ishchining mehnatidan foydalanadigan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs; va

(ii) bosh pudratchining, pudratchining yoki subpudratchining holatiga qarab;

f) "vakolatli shaxs" atamasi zarur malakaga ega shaxsni, masalan, ma'lum bir ishni xavfsiz bajarish uchun tegishli tayyorgarlik, yetarli bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan shaxsni anglatadi. Vakolatli organlar bunday shaxslarni tayinlash uchun tegishli mezonlarni va ular bajarishi kerak bo'lgan majburiyatlarni belgilashlari mumkin;

g) "iskala" atamasi odamlarni va materiallarni joylashtirish yoki har qanday bunday tuzilishga kirishni ta'minlash uchun foydalaniladigan va "h" kichik bandda belgilanganidek "ko'tarish mexanizmi" bo'lmagan turg'un, osib qo'yiladigan va harakatlanuvchi har qanday vaqtinchalik tuzilishni anglatadi;

h) “ko‘tarish mexanizmi” atamasi odamlarni yoki yuklarni ko‘tarish yoki tushirish uchun foydalaniladigan har qanday stasionar yoki harakatlanuvchi mexanizmni anglatadi;

i) “ko‘tarish uskunalari” atamasi yuk ko‘tarish mexanizmiga biriktirilishi mumkin bo‘lgan, ammo ko‘tarish mexanizmi yoki yukning ajralmas qismi bo‘lmagan har qanday asbob-uskunani yoki mahkamlashni anglatadi.

II BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR

3-modda

Ish beruvchilar va ishchilarning eng manfaatdor vakillik tashkilotlari ushbu Konvensiya qoidalarini amalga oshirish uchun ko‘rilishi kerak bo‘lgan choralarda to‘g‘risida maslahatlashuvlar o‘tkazadi.

4-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a‘zosi, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni baholash asosida ushbu Konvensiya qoidalarining qo‘llanilishini ta‘minlaydigan qonun hujjatlari yoki qoidalarni qabul qilishga va saqlab qolish majburiyatini oladi.

5-modda

1. Yuqoridagi 4-moddaga muvofiq qabul qilingan qonun hujjatlari va qoidalar texnik normalar yoki qurilish standartlari yoxud milliy sharoitlar va amaliyotga mos keladigan boshqa tegishli usullar orqali ularni amalda qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

2. Yuqoridagi 4-moddaning va ushbu moddaning 1-bandi qoidalarini amalga oshirishda Tashkilotning har bir a‘zosi tan olingan xalqaro tashkilotlar tomonidan standartlashtirish sohasida qabul qilingan tegishli normalarni zarur ravishda hisobga oladi.

6-modda

Milliy qonun hujjatlari va qoidalari bilan belgilanadigan tartib-taomillarga muvofiq ish beruvchilar va ishchilar o‘rtasida qurilish maydonlarida mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko‘maklashish maqsadida hamkorlikni ta‘minlash choralari ko‘riladi.

7-modda

Milliy qonun hujjatlari yoki qoidalari ish beruvchilardan va o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlaydigan shaxslardan ish joylarida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi yuzasidan belgilangan choralarga rioya qilish majburiyatini zimmasiga olishini nazarda tutadi.

8-modda

1. Ikki yoki undan ortiq ish beruvchi bir vaqtning o‘zida bitta qurilish maydonchasida ish olib borganda:

a) qurilish maydonchasidagi umumiy faoliyat uchun amaliy nazoratni amalga oshiruvchi yoki asosiy javobgar bo‘lgan pudratchi yoki boshqa shaxs yoki organ mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga oid belgilangan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish hamda bunday chora-tadbirlarga rioya qilinishini ta‘minlash uchun milliy qonun hujjatlari va qoidalarga muvofiq tarzda javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;

b) qurilish maydonchasidagi umumiy faoliyat uchun amaliy nazoratni amalga oshiruvchi yoki asosiy javobgar bo'lgan pudratchi yoki boshqa shaxs yoki organ qurilish maydonchasida bo'lmasa, ular milliy qonun hujjatlari va qoidalarga mos keladigan darajada qurilish maydonchasida ularning nomidan "a" kichik bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va ularga rioya qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan vakolat va vositalarga ega bo'lgan vakolatli shaxs yoki organni tayinlaydi;

c) har bir ish beruvchi doimiy ravishda uning bo'ysinuvida bo'lgan ishchilarga nisbatan belgilangan choralarga rioya qilish uchun javobgardir.

2. Agar bitta qurilish maydonchasida ish beruvchilar yoki o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydigan shaxslar bir vaqtning o'zida ishlasalar, ular milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarga muvofiq belgilangan mehnat xavfsizligi va gigenasi bo'yicha choralarni qo'llashda hamkorlik qilish majburiyatini oladi.

9-modda

Qurilish obyektini loyihalash va qurilish ishlarini rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar milliy qonun hujjatlariga, qoidalarga va amaliyotga muvofiq qurilish ishchilari mehnatining xavfsizligi va gigiyenasini hisobga oladi.

10-modda

Milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarida har qanday ish joyida ishchilar asbob-uskunalar va mehnat usullarini nazorat qiladigan darajada xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashda ishtirok etish huquqiga va majburiyatga egaligi hamda, agar ular mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, amalga oshiriladigan ish tartib-taomillariga nisbatan o'z fikrlarini bildirishlari nazarda tutiladi.

11-modda

Milliy qonun hujjatlari yoki qoidalari ishchilarning quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olishini nazarda tutadi:

a) ish beruvchi bilan belgilangan mehnat xavfsizligi va gigiyenasini bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda imkoni boricha yaqinroq hamkorlik qilish;

b) o'z xatti-harakatlari yoki ishdagi xatolari tufayli zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan o'zining va boshqalarning sog'lig'ini xavfsizligi va muhofaza qilishni ta'minlash uchun oqilona darajada ehtiyotkorona bo'lish;

c) o'zlariga berilgan vositalardan foydalanish va o'zlarini himoya qilish yoki boshqa shaxslarni himoya qilish uchun mo'ljallangan har qanday vositalardan maqsadsiz foydalanmaslik;

d) o'zlarining bevosita rahbarlari va texnik xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi ishchilar vakillarini, agar mavjud bo'lsa, ularning fikriga ko'ra, muayyan xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan va o'zlari hal qila olmaydigan har qanday vaziyat to'g'risida darhol xabardor qilish;

e) belgilangan mehnat xavfsizligi va gigiyenasini bo'yicha choralarga rioya qilish.

12-modda

1. Milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarda, agar ishchi o'zining xavfsizligi yoki sog'lig'iga bevosita va jiddiy tahdid mavjudligiga ishonish uchun asosli sabablar mavjud bo'lsa, xavfli zonani tark etish huquqiga ega ekanligi va bu haqda darhol o'z rahbarini xabardor qilishga majbur ekanligi nazarda tutilgan.

2. Agar ishchilar xavfsizligiga muqarrar tahdid mavjud bo'lsa, ish beruvchi ishlarni tugatish va zarurat tug'ilganda ishchilarni evakuatsiya qilish uchun darhol choralar ko'radi.

III BO'LIM. OLDINI OLIH VA HIMOYA QILISH CHORALARI

13-modda. Ish joylaridagi xavfsizlik

1. Ish joylari xavfsiz bo'lishi hamda ishchilar xavfsizligi va sog'lig'iga xavf solmasligi uchun barcha zarur choralar ko'riladi.

2. Barcha ish joylariga kirish va barcha ish joylaridan chiqishning xavfsiz vositalari ta'minlanadi va yaxshi holatda saqlanadi, shuningdek zarur bo'lganda, ishoralar bilan belgilanadi.

3. Qurilish maydonchasida yoki qurilish maydoni hududida bo'lgan shaxslarni bunday joyda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarlardan himoya qilish uchun barcha zarur choralar ko'riladi.

14-modda. Qurilish havozalari va narvonlar

1. Agar ish yer maydoni yoki binoning biron bir qismidan yoki stasionar loyihalashtirishni xavfsiz bajarish imkoni bo'lmasa, xavfsiz va meyorlarga javob beradigan qurilish havozalari yoki teng darajada xavfsiz va mos keladigan boshqa vositalar bilan ta'minlanadi va yaxshi holatda saqlanadi.

2. Yuqori qismdagi ish joylariga ko'tarilishning boshqa xavfsiz vositalari bo'lmagan taqdirda, standartlarga javob beradigan bardoshli narvonlar bilan ta'minlanadi. Ular kutilmaganda siljib ketishini oldini olish maqsadida lozim darajada mustahkamlab qo'yiladi.

3. Barcha qurilish havozasi va narvonlar milliy qonun hujjatlari va qoidalarga muvofiq ishlab chiqariladi hamda foydalaniladi.

4. Qurilish havozalari vakolatli shaxs tomonidan milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarda belgilangan holatlarda va muddatlarda tekshiriladi.

15-modda. Yuk ko'tarish-tashish mexanizmlari va ko'tarish uskunalari

1. Har bir yuk ko'tarish-tashish mexanizmi va ko'tarish uskunalari elementlari, shu jumladan ularning tarkibiy qismlari, mahkamlaydigan moslamalari, langarlar va tayanchlar:

a) to'g'ri loyihalashtirilgan va ishlab chiqarilgan, yaxshi materialdan tayyorlangan va mo'ljallangan maqsadlar uchun zarur bo'lgan kuchga ega bo'lishi kerak;

b) to'g'ri o'rnatilishi va ishlatilishi kerak;

c) yaxshi ish sharoitida saqlanishi kerak;

d) vakolatli shaxs tomonidan milliy qonun hujjatlarida yoki qoidalarida belgilangan muddatlarda va holatlarda tekshirilishi va sinovdan o'tkazilishi kerak; belgilangan tekshiruvlar va sinovlar natijalari ro'yxatdan o'tkaziladi;

e) milliy qonun hujjatlari va qoidalarga muvofiq zarur tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan boshqarilishi kerak.

2. Ko'tarish mexanizmlari yordamida odamlarni ko'tarish, tushirish yoki tushirishga faqat milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarga muvofiq ushbu maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan, o'rnatilgan va foydalanadiganlarga ruxsat beriladi, agar ular odamlarni og'ir

jarohatlar yoki o'limiga olib kelishi mumkin bo'lsa va agar bunday holatlarda ko'tarish mexanizmidan xavfsiz foydalanish mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar bundan mustasno.

16-modda. Transport, yer kovlaydigan yoki yuk ortish-tushirish uskunalari

1. Barcha transport, yer kovlaydigan yoki yuk ortish-tushirish uskunalari:

a) iloji boricha ergonomik prinsiplarni hisobga olgan holda tegishli tarzda loyihalashtirilgan va qurilgan bo'lishi kerak;

b) yaxshi ish holatida saqlanishi kerak;

c) tegishli tarzda foydalanilishi kerak;

d) milliy qonun hujjatlari va qoidalarga muvofiq zarur tayyorgarlikdan o'tgan ishchilar tomonidan boshqarilishi kerak.

2. Transport, yer kovlaydigan yoki yuk ortish-tushirish uskunalari ishlatiladigan barcha qurilish maydonchalarida:

a) undan xavfsiz va belgilangan meyorlarga javob beradigan tarzda foydalanish ta'minlanadi;

b) harakat uning xavfsiz islatilishini ta'minlaydigan tarzda tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

17-modda. Qurilmalar, mexanizmlar, uskunalar va qo'l asboblari

1. Qurilmalar, mexanizmlar va uskunalar, jumladan mexanizatsiyalashmagan kabi mexanizatsiyalashgan qo'l asboblari:

a) iloji boricha ergonomik prinsiplarni hisobga olgan holda tegishli tarzda loyihalashtirilgan va qurilgan bo'lishi kerak;

b) yaxshi ish holatida saqlanishi kerak;

c) agar vakolatli shaxs ulardan loyihalash maqsadlari doirasidan tashqari foydalanish xavfsiz degan xulosaga kelmasa, ulardan faqat ular mo'ljallangan ish turlari uchun foydalanilishi kerak;

d) zarur kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan boshqarilishi kerak.

2. Zarur holatlarda, ishlab chiqaruvchi yoki ish beruvchi ishchilar uchun tushunarli bo'lgan shaklda ulardan xavfsiz foydalanish bo'yicha kerakli ko'rsatmalar beradi.

3. Kompresor qurilmalari va uskunalari vakolatli shaxs tomonidan milliy qonun hujjatlarida yoki qoidalarda belgilangan hollarda va muddatlarda tekshiriladi va sinovdan o'tkaziladi.

18-modda. Balandlikda, shu jumladan tomlarda ishlash

1. Xavfdan himoya qilish zarur bo'lgan holatlarda yoxud agar inshootning balandligi yoki qiyalik burchagi milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarda belgilangan o'lchamdan oshsa, odamlar, asboblari yoki boshqa buyumlar yoki materiallarning yiqilishining oldini olish choralarini ko'riladi.

2. Agar ishchilar tomlar yoki tomlar yaqinida yoki ular qulab tushishi mumkin bo'lgan mo'rt materiallar bilan qoplangan boshqa joylarda ishlar bajarishlari kerak bo'lsa, ular mo'rt materiallarning yuzasiga bexosdan qadam bosish yoki ular orasiga yiqilib tushishining oldini olish uchun choralar ko'riladi.

19-modda. Chuqurlar, quduqlar, yer osti inshootlari va tunnellar

Har bir chuqurda, quduqda, yer osti inshootida yoki tunnel ichida tegishli ehtiyot choralari ko'riladi:

a) tegishli mahkamlash yoki boshqacha tarzda ishchilarni tuproq, tosh massasi yoki boshqa materialning to'kilishi yoki siljishidan yetadigan xavf-xatardan himoya qilish;

b) odamlar, materiallar yoki buyumlarning qulashi yoxud chuqurlar, quduqlar, yer osti inshootlari yoki tunnellarga suvning oqib kirishi oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatardan himoya qilish;

c) har bir ish joyida nafas olish uchun zarur bo'lgan atmosferani saqlab turish va milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarga muvofiq barcha turdagi tutunlar, gazlar, bug', chang yoki boshqa aralashmalarning sog'liq uchun xavfsiz va zararli bo'lmagan darajasini cheklash uchun shamollatilishini ta'minlash;

d) ishchilarga yong'in, suv toshishi yoki qulash holatida xavfsiz hududga evakuatsiya qilish imkoniyatini ta'minlash;

e) ishchilar uchun ularni aniqlash maqsadida tegishli qidiruvlarni olib borish orqali yuzaga keladigan suyuqlik aylanishi yoki gaz qopchalarining bosimi kabi yer osti xavflarining mavjudligi oqibatida kelib chiqadigan xavf-xatarlarni oldini olish.

20-modda. Peremichka va kessonlar

1. Har qanday peremichka va kesson:

a) lozim darajada loyihalashtirilgan, tegishli va sifatli materialdan tayyorlangan hamda zarur kuchga ega bo'lishi kerak;

b) suv yo'li buzilib ketganda yoki materiallar qulagan hollarda ishchilarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish uchun zarur vositalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

2. Peremichka va kessonni qurish, o'rnatish, o'zgartirish yoki buzish faqat vakolatli shaxsning bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi.

3. Har bir peremichka va har bir kesson vakolatli shaxs tomonidan belgilangan vaqt oralig'ida tekshiriladi.

21-modda. Siqilgan havoda ishlash

1. Siqilgan havoda ishlash faqat milliy qonun hujjatlarida yoki qoidalarda belgilangan choralarga rioya qilish bilan amalga oshiriladi.

2. Siqilgan havoda ishlash faqat bunday ish uchun jismoniy ma'lumotlari tibbiy ko'rikdan o'tish orqali tavsiya etilgan ishchilar tomonidan va ishlab chiqarish amaliyotlari borishini nazorat qiluvchi vakolatli shaxs ishtirokida amalga oshiriladi.

22-modda. Ko'tarib turuvchi ramka tuzilmalari va qoliplar

1. Ko'tarib turuvchi ramka tuzilmalari va ularning tarkibiy qismlarini, qoliplar, suyab turuvchi tuzilmalarni va qoliplarni tutib-turuvchi havozalarni o'rnatish faqat vakolatli shaxs nazorati ostida amalga oshiriladi.

2. Ishchilarni tuzilmalarda vaqtincha mustahkamlanmagan yoki beqarorlik bilan bog'liq xavfdan himoya qilish uchun tegishli choralar ko'riladi.

3. Qoliplar, ko'tarib turuvchi tuzilmalar va qoliplarni tutib-turuvchi havozalar shunday tuzilmaga ega bo'lishi, ishlab chiqilishi va shunday sharoitda saqlanishi kerakki, ular yuklanishi mumkin bo'lgan barcha yuklarga bardoshli bo'lsin.

23-modda. Suv ustida ishlash

Agar ish suv ustida yoki suvga yaqin joyda olib borilsa, tegishli ravishda ta'minlanadi:

- a) odamlarning suvga tushishining oldini olish;
- b) cho'kish xavfi ostida bo'lgan ishchilarni qutqarish;
- c) yetarli miqdorda xavfsiz transport.

24-modda. Buzish bo'yicha ishlar

Agar biron bir bino yoki inshootning buzilishi ishchilar va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lsa:

- a) milliy qonun hujjatlari yoki qoidalarga muvofiq chiqindilar va qoldiq materiallarni tozalashni o'z ichiga olgan tegishli ehtiyot choralari, usullari va amaliyotlari qo'llaniladi;
- b) ish faqat vakolatli shaxs nazorati ostida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

25-modda. Yoritish

Har bir ish joyida va ishchining o'tishi mumkin bo'lgan qurilish maydonchasining boshqa joylarida tegishli va etarli yorug'lik, shu jumladan, agar kerak bo'lsa, ko'chma yoritish ta'minlanadi.

26-modda. Elektr

1. Barcha elektr jihozlari va qurilmalari vakolatli shaxs tomonidan ishlab chiqariladi, o'rnatiladi va tegishli holatda saqlanadi hamda xavf paydo bo'lishining oldini olish uchun foydalaniladi.

2. Qurilishdan oldin va qurilish paytida yuqorida yoki qurilish maydonchasida joylashgan har qanday quvvatlangan elektr simlari yoki elektr jihozlari ishchilarga yetkazishi mumkin bo'lgan xavfni aniqlash va himoya qilish uchun tegishli choralar ko'riladi.

3. Qurilish maydonchalarida elektr kabellari va elektr jihozlarini yotqizish va yaxshi holatda saqlash milliy darajada qo'llaniladigan texnik qoidalar va standartlar bilan tartibga solinadi.

27-modda. Portlovchi moddalar

Portlovchi moddalar quyidagi holatlarda saqlanadi, tashiladi, ko'chiriladi va foydalaniladi:

- a) faqat milliy qonun hujjatlari yoki qoidalar bilan belgilangan sharoitlarda;
- b) faqat ishchilar va boshqa odamlarning sog'lig'i xavf ostida qolmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radigan vakolatli shaxs tomonidan.

28-modda Sog'liq uchun xavf

1. Agar xodimga uning sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin bo'lgan darajada kimyoviy, fizikaviy yoki biologik xususiyatdagi zararli omil ta'sir etadigan bo'lsa, bunday ta'sirni oldini olish uchun tegishli choralar ko'riliadi.

2. 1-bandda ko'rsatilgan profilaktika choralariga quyidagilar kiradi:

- a) iloji boricha zararli moddalarni xavfsiz yoki kamroq xavfli moddalar bilan almashtirish;
- b) asbob-uskunalar, mexanizmlar, uskunalar yoki texnologik jarayonlarga nisbatan maxsus choralar ko'rish; yoki

c) “a” yoki “b” kichik band qoidalariga rioya qilishning iloji bo‘lmasa, boshqa samarali choralar, jumladan shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimlaridan foydalanish kabi choralar ko‘riladi.

3. Agar ishchilar toksik yoki zararli moddalar bo‘lgan yoki atmosferada kislorod miqdori kam bo‘lgan yoki atmosfera yong‘in jihatidan xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududga kirishlari kerak bo‘lsa, xavfdan himoya qilish uchun tegishli choralar ko‘riladi.

4. Chiqindilar yo‘q qilish yoki boshqacha yo‘l bilan sog‘liq uchun zararli bo‘lmagan tarzda qurilish maydonchasidan chiqariladi.

29-modda. Yong‘in xavfsizligi

1. Ish beruvchi quyidagilar uchun barcha tegishli choralarni ko‘radi:

a) yong‘in xavfini oldini olish uchun;

b) yong‘in o‘choqlarini tez va samarali bartaraf etish uchun;

c) odamlarni tez va xavfsiz evakuatsiya qilishni ta‘minlash uchun.

2. Yonuvchan suyuqliklar, qattiq moddalar va gazlar uchun mos keladigan va tegishli omborxonalar ta‘minlanadi.

30-modda. Shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimlari

1. Agar baxtsiz hodisa yoki sog‘liqqa zarar yetkazish, shu jumladan noqulay sharoitlarda yashash xavfidan tegishli himoya boshqa vositalar bilan ta‘minlanmasa, ish beruvchi milliy qonun hujjatlarida yoki qoidalarda nazarda tutilganidek, ishning o‘ziga xos xususiyati va xavfini hisobga olgan holda xodimlarga zarur shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimlarini bepul taqdim etadi va ta‘minlaydi.

2. Ish beruvchi xodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishga imkon beradigan zarur vositalarni taqdim etadi va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlaydi.

3. Shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimlari, iloji boricha ergonomik prinsiplarni hisobga olgan holda, vakolatli organlar tomonidan belgilangan standartlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Ishchilardan ularga berilgan shaxsiy himoya vositalari va himoya kiyimlaridan to‘g‘ri ishlatish va yaxshi holatda saqlash talab etiladi.

31-modda. Birinchi yordam

Ish beruvchi har doim o‘qitilgan xodimlar tomonidan birinchi yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash uchun javobgardir. Jarohat olgan yoki to‘satdan kasal bo‘lgan ishchilarga tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida ularni evakuatsiya qilishni ta‘minlash choralari ko‘riladi.

32-modda. Sanitariya sharoitlari

1. Har bir qurilish maydonchasida yoki undan yetarli masofada zarur sifatli ichimlik suvining zarur zaxirasi ta‘minlanadi.

2. Har bir qurilish maydonchasida yoki undan yetarli masofada ishchilar soni va ishning davomiyligiga qarab quyidagi texnik xizmat ko‘rsatiladi va ta‘minlanadi:

a) sanitariya va yuvinish xonalari;

b) kiyimlarni almashtirish, saqlash va quritish xonalari;

c) noqulay ob-havo sharoiti tufayli odamlarning ovqatlanishi va ishda tanaffus paytida yashash uchun xonalar.

3. Erkak va ayol ishchilar alohida sanitariya va yuvinish xonalari bilan ta‘minlanadi.

33-modda. Axborot berish va o'qitish

Xodimlar tegishli va muvofiq tarzda:

a) ish joylarida mehnat xavfsizligi va sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy omillar to'g'risida xabardor qilinadi;

b) ushbu salbiy omillarning oldini olish, ularga qarshi kurashish va ulardan himoya qilish uchun mavjud choralar bo'yicha ko'rsatma beriladi va o'qitiladi.

34-modda. Baxtsiz hodisalar va kasalliklar to'g'risida xabar berish

Milliy qonun hujjatlari yoki qoidalar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar to'g'risida hokimiyatning vakolatli organiga belgilangan muddatda xabar berishni nazarda tutadi.

IV BO'LIM. AMALGA OSHIRISH

35-modda

Tashkilotning har bir a'zosi:

a) ushbu Konvensiya qoidalariga samarali rioya etilishini ta'minlash maqsadida barcha zarur choralarni, shu jumladan tegishli sanksiyalarni va axloq tuzatish choralarni ko'radi;

b) ushbu Konvensiyaga muvofiq ko'rilishi lozim bo'lgan choralarning qo'llanilishini nazorat qilish uchun tegishli inspeksiya xizmatlarini ta'minlaydi va ushbu xizmatlarni o'z vazifalarini bajarish uchun zarur manbalar bilan ta'minlaydi yoki tegishli inspeksiya o'tkazilayotganligini tekshiradi.

V BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

36-modda

Ushbu Konvensiya 1937-yilgi Qurilishda texnik xavfsizlik to'g'risidagi konvensiyani qayta ko'rib chiqadi.

37-modda

Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olish uchun Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

38-modda

1. Mazkur Konvensiya faqat ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Tashkilot a'zolarini birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotni har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

39-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning biron-bir a'zosi, Konvensiya dastlab kuchga kirgan paytdan boshlab o'n yillik davr tugaganidan keyin Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan denonsatsiya qilish

to'g'risidagi hujjat orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Xalqaro mehnat byurosida denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga ko'ra, u bu modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

40-modda

1. Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan barcha ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro mehnat tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor Tashkilot a'zolarini u tomonidan qabul qilingan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat ro'yxatga olingani haqida xabardor qilgan holda, ularning e'tiborini ushbu Konvensiyaning kuchga kirgan sanasiga qaratadi.

41-modda

Xalqaro mehnat byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan barcha ratifikatsiya qilish, bayonot va denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

42-modda

Xalqaro mehnat byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish yoki kiritmaslikni hal qiladi.

43-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi 39-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiya Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi uchun yopiq.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda ham, uni ratifikatsiya qilgan, biroq qayta ko'rib chiqilayotgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolariga nisbatan shakli va mazmuni bo'yicha o'z kuchida qoladi.

44-modda

Ushbu Konvensiyaning ingliz va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

**XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING
ASOSIY XALQARO SHARTNOMALARI
TO'PLAMI**

Nashr uchun mas'ul
Muharrirlar
Kompyuterda sahifalovchi

M. Tillabayev
M. Palnova, L. Ruzikulova
A. Jumaniyazov

Chop etishga 2024-yil 30-oktabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16.
«PT Serif» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 12,4. Nashr tabog'i 9,1.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 16.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.